

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

TOSHOVA SHARIFA PANOEVNA

**MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXI
FANIDAN USLUBIY QO‘LLANMA**

Chirchiq-2025

UDK -

KBK:

Sh.P.Toshova / Markaziy Osiyo xalqlari tarixi / Uslubiy qo'llanma –Toshkent “___”, 2025. – 93 bet.

Sh.P.Toshova – *TIPI “Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrası v.b., dotsenti, t.f.f.d. (PhD).*

Mas’ul muharrir:

J.N.Abduraxmanova – tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:

N. Nazarov – Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti
“Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrası professori.

S.Sh. Kubaev – Alfraganus universiteti “Xalqaro munosabatlar va tarix” kafedrası
dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

Mazkur uslubiy qo'llanma Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” fani dasturi asosida tayyorlangan. Uslubiy qo'llanma Tarix ta'lim yo'nalishi, sirtqi ta'lim shakli talabalariga mo'ljallangan bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi fanining xonliklar chog'i, ularning Rossiya mustamlakasiga aylantirilishi va mustaqillik uchun kurash voqealarini qamrab oladi. Ushbu fanni o'zlashtirish davomida talabalar xonliklarning zaiflashuvi va chor Rossiyasi qo'l ostiga o'tishi, mustamlakachilik siyosati, unga qarshi olib borilgan milliy ozodlik xarakatlari, sovet davrida sotsialistik mafkuraning o'rnatilishi to'g'risida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar.

Ushbu uslubiy qo'llanma Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti O'quv-uslubiy Kengashining 2025-yildagi -sonli yig'ilishi (-sonli bayonnoma)da muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Ma'lumki, mamlakatimizda yuksak bilimli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shuni nazarda tutib, bugungi kunda tarixiy merosimizni teran o'rganish hamda keng targ'ib qilish, tarix fani sohasida innovatsion tadqiqotlar yaratish, uning natijalarini ta'lim jarayoni, darslik va o'quv adabiyotlariga tatbiq etish, iqtidorli yoshlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda¹. Ma'naviyatning asosi bo'lgan tarix, bu vazifani bajarishda, ya'ni yoshlarni insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda, milliy o'zligini anglashga ko'mak beruvchi katta kuch hisoblanadi.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar atamashunosligida "Markaziy Osiyo" bu – Sovet ittifoqi parchalangach yuzaga kelgan 5 ta respublika – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekistonni hududlarini anglatadi². Bir so'z bilan aytganda, 1990-yillarning boshlarida "Markaziy Osiyo" tushunchasi mintaqada tashkil topgan yangi davlatlarga ichki mintaqaviy va geosiyosiy identifikatsiyani amalga oshirish hamda mintaqani shakllantiruvchi muhim omil bo'lgan integratsiya jarayonlarini boshlash imkonini berdi.

O'zbekiston uchun tashqi dunyo Markaziy Osiyodan – mintaqadagi qo'shni davlatlardan boshlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning eng yaxshi tashqi siyosatlaridan biri beshala respublikani yaqinlashtirgani bo'ldi. Sh.M. Mirziyoev boshchiligida mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi – yaqin qo'shnilarga nisbatan ochiq va konstruktiv siyosat olib borish, Markaziy Osiyodagi muammolarni tenglik, o'zaro manfaatlarni hurmat qilish va oqilona kelishuv asosida hal etishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirildi hamda buni 2018 yilning o'zida mintaqaning barcha davlatlari bilan oliy darajadagi tashriflar almashuvi bo'lib o'tganida ham ko'rsa bo'ladi³.

¹ Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: «O'zbekiston». 2017. - B. 472-473.

² Казанцев А.А. «Большая игра» с неизвестными правилами: Мировая политика и Центральная Азия. – М.: МГИМО; Наследие Евразии, 2008. – С. 123; Горшенина С.М. Изобретение концепта Средней / Центральной Азии: между наукой и геополитикой. Перевод с французского М.Р. Майзульса. – Вашингтон: Программа изучения Центральной Азии, Университет Джорджа Вашингтона, 2019.

³ O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi: 2018-yilning eng muhim voqealari //

Binobarin, tinch osoyishta, iqtisodiy yuksalgan Markaziy Osiyo – O'zbekiston intiladigan eng muhim maqsaddir. Ana shu oliy maqsad yo'lida qisqa vaqt ichida qator manfaatli hujjatlar imzolandi. Xususan, Qirg'iziston bilan chegara hududlarida ishonch choralari bo'yicha Bitim (2017 yil), Turkmaniston bilan Strategik sheriklik to'g'risidagi Shartnoma (2017 yil), Turkmaniston, O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasida uch davlatning davlat chegaralari tutashgan nuqtasi to'g'risidagi Shartnoma (2017 yil) imzolandi.

Ulkan Yevrosiyo materigining markazida joylashgan Markaziy Osiyo eng qadim zamonlardan boshlab antropogen jarayonlar ro'y bergan, insoniyatning ilk ajdodlari shakllangan, ko'plab xalqlarning taqdirini birlashtirgan, murakkab etnik va tarixiy jarayonlar kechgan tarixiy jo'g'rofiy hudud hisoblanadi. Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik va ilmiy tadqiqot izlanishlari buni tasdiqlamoqda. Markaziy Osiyo hududlarida ilk sivilizatsiya asoslari mezolit va neolit bosqichlariga borib taqaladi. Mintaqaning poyonsiz tegrasida shakllangan tarixiy-madaniy o'lkalarda jez davridan boshlab davlatchilik, shaharsozlik an'analari, sug'orma dehqonchilik, chorvachilik bilan bir qatorda madaniyat va san'at rivojlanib, sayqallanib kelgan. Markaziy Osiyo hududida Qadimgi Xorazm, Choch, Parkana, Parfiya, Yunon-Baqtriya kabi davlatlar vujudga keldi, yuksaldi. Antik davrning buyuk davlatlari Qang', Kushon, Poykend, Varaxsha, Buxoro kabi saltanatlar nafaqat mintaqada balki, Sharq va G'arb mamlakatlari tarixida ham sezilarli iz qoldirdi. Bu tegralarda yashagan xalqlar Xitoy, Hindiston, Rim, Vizantiya, Eron, Old Osiyo sharhlari bilan doimiy madaniy va savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'ygan.

Jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lgan Buyuk Ipak yo'li aynan shu davrda shakllandi va rivojlandi. Ilk o'rta asrlarda mintaqada xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va etnik hayotida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Bu avvalo, jahon tarixining keskin burilishiga sabab bo'lgan xalqlarning buyuk ko'chishlari bilan bog'liqdir. Aynan shu davrda Markaziy Osiyoning o'troq hududlariga ko'chmanchi turkiy xalqlarning ommaviy ko'chib kelishlari yuz berdi. Natijada,

mintaqa xalqlarining etnosida turkiylashuv jarayoni kuchaydi. Bunday o'zgarishlar oqibatida tarix sahnasiga Xiyoniylar, Sosoniylar, Kidariylar, Eftaliylar va Turk xoqonligi kabi yangi buyuk davlatlar chiqib keldi. VI–VIII yuzyilliklarga kelib, Markaziy Osiyo mintaqasida 20 ga yaqin voqa hukmdorliklari Buyuk Turk xoqonligiga bo'ysungan. Mintaqaning antik va ilk o'rta asrlar chog'lari o'rganilar ekan, bitta siyosiy imperiya ostida turli jo'g'rofiy tegrallar, har xil xo'jalik shakllari va turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar birgalikda tinch-totuv yashab kelganini nazardan qochirmaslik lozim.

Turk xoqonligidan keyin Turondagi tarixiy kechmishlar Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Chig'atoy ulusi, Temuriylar kabi davlatlarning tarixi bilan bog'liq. Islomgacha va islomdan keyingi chog'lardagi yirik saltanatlar yoki sulolalar hukmdorlari va ularning qo'mondonlari bosqinchilik uchun emas, Markaziy Osiyoni bitta imperiyaga birlashtirish uchun urinishgan. Xuddi shu holni Xunlar, Turklar, Mo'g'ullar, Temuriylar va boshqa ko'plab Yevroosiyo imperiyalari o'rnagida ko'rsa bo'ladi. O'rta asrlar davridagi madaniy aloqalar, yagona din, yozuv, davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotdagi yaqinlik mintaqaning turli hududlarida umummintaqaviy madaniyat shakllanishiga olib kelishi bilan birga barcha musulmon mamlakatlari madaniyatida ham umumiylik va yaqinlikni keltirib chiqardi. Bu davrda Markaziy Osiyo madaniyati haqida gapirganda mintaqaxalqlari mentalitetiga xos bo'lgan muhim bir xususiyatni, ya'ni barcha tarixiy davrlarda bu hududda hayratdaxalqli bag'rikenglik bo'lganini ta'kidlab o'tish kerak. Bunga birinchilardan bo'lib shvetsariyalik olim A.Ments e'tibor qaratgan. Shu tariqa, O'rta Osiyoxalqlarining madaniy aloqalari o'tgan tarixiy davrlar davomida ezgulik, bunyodkorlik va umuminsoniy taraqqiyotga xizmat qilib keldi.

Endi mintaqamizning turli chog'larda nomlanishi masalasida qisqacha to'xtalsak. Mintaqamiz o'tmishning turli kezlarida "Turon", "Turkiston", "Movarounnahr", "O'rta Osiyo", "O'rta Osiyo va Qozog'iston", "Transoksiana" kabi otlar bilan atalib kelindi. Sovetlar chog'ida "Markaziy Osiyo" tushunchasi ostida Mo'g'uliston atrofidagi tegrallar ko'zda tutilgan. Qozog'istonning birinchi

Prezidenti N.A. Nazarboev Markaziy Osiyo davlatlarining 1992-yildagi sammitida “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston” tushunchasini “Markaziy Osiyo” atamasi bilan almashtirishni taklif qildi. Ungacha siyosiy doiralarda “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston” atamasi o‘rniga “Turkiston” atamasini qo‘llash kerakligi to‘g‘risida takliflar ham ilgari surilgan. Jo‘g‘rofiy tomondan “Markaziy Osiyo” deb Xitoy va Hindistondan boshlab Old Osiyogacha cho‘zilgan ummonga chiqmaydigan, birgina daryolar oqimidan iborat ichki quruqlik tegrasi tushuniladi. Demak, Markaziy Osiyo anchayin keng mintaqa bo‘lib, unga O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iz, Tojikiston va Turkmanistondan tashqari Mo‘g‘uliston, Sharqiy Turkiston, Panjob, Shimoliy Hindiston (Pokiston), Shimoli-sharqiy Eron, Afg‘oniston, Rossiyaning janubiy tayga yerlari (Janubiy Oltoy, Tuva va Baykalorti) ham kiradi. Turon atamasi turli manbalarda turlicha talqin qilingan. Milliy entsiklopediyaga ko‘ra, tur elati dastlab “Avesto”da tilga olingan. Keyinchalik turlar Markaziy Osiyo dasht va tog‘ yerlarida yashovchi chorvador aholi deb tushunilgan. Ba’zi olimlar bu atama sak-massagetlarning dastlabki nomi deb hisoblagan. Sak va massagetlarga oid tarixiy yodgorliklar turli hududlardan topilgani inobatga olinsa, Turon atamasi O‘rta Osiyodan kengroq hududni anglatadi. Ba’zi tarixchi va o‘lkashunoslar Turon turklar, turkiy qabilalarning yurti degan ma’noni bildirganini, keyinchalik “Turkiston” tushunchasiga aylanganini ta’kidlaydi.

XIX yuzyillikning o‘rtalarida Markaziy Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi. XX asr birinchi choragida sho‘rolar hukumati o‘rnatildi, xonliklar tugatildi, mintaqa avval uchta, keyinroq beshta respublikaga bo‘lib tashlandi. So‘nggi yuzyillik davomida turmush tarzi, o‘tmishi, urf-odatlari, madaniyati mushtarak bo‘lgan Turkistonning yaxlit madaniy merosi, tarixi va san’atini mintaqaning zamonaviy siyosiy-ma’muriy chegaralar doirasida o‘rganildi va taqdim qilindi. Har respublikaning tarixi va san’ati haqida alohida tadqiqotlar yozildi. Bunday yondashuv ilmiy jihatdan noxolis ekanligi o‘z vaqtida ilmiy doiralarda tanqid etilishiga qaramay, davom etaverdi. Mintaqadagi beshta respublika ozodlikka erishib, mustaqil davlatlarga aylangandan keyin ham u yoki bu moddiy merosni, dunyoga mashhur olimlarni talashish, faqat o‘z xalqining

tarixini ulug‘lash, qo‘shni xalqlarning mintaqa tarixida tutgan ahamiyatini kamsitishga urinishlar yanada avj oldi.

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari umumiy tarixi mushtaraklikda kechgan xalqlarning kelajagi ham birgalikda qurilishi kerakligi hayotiy taqozo ekanligini to‘g‘ri anglagani holda, yagona mintaqaviy makonning madaniy va geosiyosiy g‘oyasini ilgari surmoqdalar. Ayniqsa mintaqadan tashqaridagi siyosiy o‘yinchilarning ta’siri kuchaygani sari ularga qarshi turish uchun “yaxlit xavfsizlik” makonini yaratish, “mintaqaviy hamkorlik”ni yo‘lga qo‘yish, “mintaqaviy o‘zlik” tushunchasini shakllantirish masalalari dolzarb bo‘lib qoldi va bu borada amaliy qadamlar tashlanmoqda.

Jahonda yuz berayotgan siyosiy inqirozlarga qaramasdan, 2024 yil Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ko‘p qirrali hamkorlik va o‘zaro manfaatli sheriklikka boy yil bo‘ldi. Biroq, dunyoda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar shuni ko‘rsatmoqdaki, ayrim kuch tuzilmalari, hukmronlikka intilayotgan davlatlar uchinchi davlat hududidan o‘z manfaatlarini ilgari surish vositasi o‘laroq foydalanishga intilishda davom etmoqdalar. Buni tushungan zamonamiz oydinlari, siyosiy qatlam va o‘zligini anglab yetgan har bir kishi borki, dushman ig‘vosiga uchmaslikning har qachongidan ko‘ra bugun muhim ekanini yaxshi his etadilar.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish tomon intilmoqda. Xususan, 2025 yilning 31 mart kuni Markaziy Osiyo xalqlari uchun tarixiy kun bo‘ldi. Xo‘jand shahrida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iz yetakchilarining qo‘shma uchrashuvida uch davlat chegaralarini delimitatsiya qilish jarayoni yakunlangani munosabati bilan uchala davlat chegaralari tutashgan Lakkon qishlog‘ida O‘zbekiston, Qirg‘iz va Tojikiston o‘rtasidagi mustahkam do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va hamjihatlik timsoli o‘laroq “Do‘stlik stellas” o‘rnatildi. Davlat chegaralari Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani (O‘zbekiston), Botken viloyatining Botken tumani (Qirg‘iz) va So‘g‘d viloyatining Isfara tumani (Tojikiston)ga tutashgan nuqtadadir. Eslatib o‘tish kerak, davlatlar o‘rtasidagi

chegara deyarli to'rt yil davomida – 2021 yil may oyidan beri yopiq bo'lib kelayotgan edi. O'sha paytda Botken viloyatida yuz bergan qurolli to'qnashuv tufayli Qirg'iz chegarani to'liq yopgan edi.

Ikki davlat o'rtasidagi chegara muammosini tinch yo'l bilan yechishda O'zbekistonning ham hissasi bo'ldi. O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi bugungi kunda barcha muammolar faqat mintaqa xalqlariga xos bir necha mingyillik qardoshlik, yaxshi qo'shnichilik, bordi-keldi va maslahatlashuvlar yo'li bilan hal qilinishi kerakligini aytib, o'zaro qon to'kilishlardan tiyilishga chaqirgan. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon bilan qayta-qayta qo'ng'iroqlashib, nihoyat kelishuvlarga erishildi.

Eslatib o'tish kerak, 2017 yili O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston o'rtasida xuddi shunday shartnoma – uchala davlat chegaralari tutash hududi to'g'risida shartnoma imzolangan edi. Bu kabi hujjatlar mohiyatan uzoq yillardan beri yechilmay kelayotgan chegara tortishuvlariga nuqta qo'yilayotganini anglatadi. Davlatlarning chegara masalasida erishgan yutuqlari butun mintaqaning gullab-yashnashi uchun ulkan ahamiyatga ega. Bunda, albatta, O'zbekistonning tashqi munosabatlarda olib borayotgan oqilona siyosati ham sezilarli rol o'ynadi.

O'zbekiston uchun tashqi dunyo Markaziy Osiyodan – mintaqadagi qo'shni davlatlardan boshlanadi. O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoev boshchiligida mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi – yaqin qo'shnilarga nisbatan ochiq va konstruktiv siyosat olib borish, Markaziy Osiyodagi muammolarni tenglik, o'zaro manfaatlarni hurmat qilish va oqilona kelishuv asosida hal etishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirildi hamda buni 2018 yilning o'zida mintaqaning barcha davlatlari bilan oliy darajadagi tashriflar almashuvi bo'lib o'tganida ham ko'sa bo'ladi. Binobarin, tinch osoyishta, iqtisodiy yuksalgan Markaziy Osiyo – O'zbekiston intiladigan eng muhim maqsaddir. Ana shu oliy maqsad yo'lida qisqa vaqt ichida qator manfaatli hujjatlar imzolandi. Xususan, Qirg'iziston bilan chegara hududlarida ishonch choralari bo'yicha Bitim (2017 yil), Turkmaniston bilan Strategik sheriklik to'g'risidagi Shartnoma (2017 yil),

Turkmaniston, O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasida uch davlatning davlat chegaralari tutashgan nuqtasi to'g'risidagi Shartnoma (2017 yil) imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning eng yaxshi tashqi siyosatlaridan biri beshala respublikani yaqinlashtirgani bo'ldi. O'zbekiston tashqi siyosatining tubdan o'zgarganini mahalliy va xorijiy matbuot, qolaversa, qo'shni davlatlarning yetakchilari ham e'tirof etmoqdalar. Xususan, 2025-yilning 29-mart kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart To'qayev bilan Olma-otada bo'lib o'tgan norasmiy uchrashuvida To'qayev Sh. Mirziyoevning qardosh xalqlarni yaqinlashtirish va mintaqani barqaror rivojlantirishga qo'shgan shaxsiy hissasini yuqori baholadi. Qirg'iz Prezidenti Sadir Japarov esa "Mintaqadagi barcha davlatlar o'zaro chegaralar bilan bog'liq masalalarni yakuniy hal qildi. Endi Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro vizasiz rejimni joriy etish jarayonini boshlashi va boshqa davlatlardan keladigan mehmonlar uchun barcha mintaqa davlatlari bo'ylab erkin harakatlanishga imkon beradigan yagona viza tizimini ishlab chiqishi lozim. Bu Shengen vizasiga o'xshash bo'lishi mumkin", deb yozdi. Bordiyu bu taklif ham o'z yechimini topsa, Markaziy Osiyo davlatlari birligi yo'lidagi amaliy harakatlardan biri bo'lar edi.

O'zbekiston Prezidenti 2017-yilning 10-noyabrida BMT shafeligida Samarqandda bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferentsiyada Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining maslahat uchrashuvlarini o'tkazish taklifini ilgari surgan edi. Ushbu tashabbusni mintaqadagi barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlar qo'llab-quvvatlagan. Bugunga kelib bu maslahat uchrashuvlari yaxshi udumga aylanib ulgurdi va mintaqaviy birlikni shakllantirishda bu uchrashuvlar sezilarli o'rin tutmoqda. O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo bo'lishi bu jarayonlarni yanada kengaytirmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, Markaziy Osiyo yoki Turonni birlashtirish yo'lida O'zbekistonning bu tashabbusini, eng oldin, mintaqadagi boshqa qardosh xalqlar ham to'la qo'llab-quvvatlasalar, tez orada mintaqaviy o'zlik va mintaqaviy birlikka erishsa bo'ladi. 2016-yildan boshlab mintaqada vaziyat ancha o'zgargan bo'lib,

xalqlar yaqinlashgani, birlashgani, uzoq yillik muammolar stol atrofida o'tirilib, o'z yechimini topayotgani kuzatilmoqda.

Mintaqaviy birlikning buguniga qisqa ko'z yugurtirsak, iqtisodiy hamkorlik tomondan Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar yanada kengayib bormoqda, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqa qator xalqaro tashkilotlar orqali oldi-berdi rivojlanib bormoqda.

Siyosiy integratsiya va o'zaro yaqinlashish jarayonlari ham izchillik bilan ijobiy tomonga siljimoqda. Yuqorida bir ko'z tashlab o'tilganidek, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iz, Tojikiston va Turkmaniston o'rtasidagi munosabatlar yaxshilanmoqda, qolaversa, Markaziy Osiyo davlatlari hamkorlikni mustahkamlash yo'lida qo'shma forum va sammitlar o'tkazmoqda.

Madaniy va gumanitar aloqalarda esa har doim milliy madaniyatlar va urf-odatlar umumiyliги mintaqaviy birlikni mustahkamlashdagi muhim omil bo'lib kelgan. Buning ustiga islom madaniyati va umumiy tarixiy meros mintaq xalqlari o'rtasida uyg'unlikni ta'minlaydi. Aynan mintaq xalqlarining tarixiy-etnik tomondan yaqinligi ularni bir birlari bilan munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga undovchi omillardan biridir. To'g'rirog'i, mintaq davlatlarining strategik maqsadlari birligi va turli tashqi tahdidlarga qarata bir xil pozitsiyada ekani hamda madaniyati, dini, mentaliteti va o'tmishining umumiyliги ularning mintaqaviy o'zlik va mintaqaviy birlikning shakllanishida o'ta muhim rol o'ynaydi.

I BOB. XVI-XIX ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA XONLIKLARNING PAYDO BO‘LISHI VA MARKAZIY OSIYODA CHOR ROSSIYASINING ISTILOCHILIK SIYOSATI. SHO‘ROLAR DAVRIDA MARKAZIY OSIYO.

1.1. Buxoro xonligining tashkil etilishi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti

Markaziy Osiyo xalqlarining XVI asrning boshi – XIX asrning birinchi yarmi tarixiga oid ko‘pdan ko‘p yozma manbalar bizgacha etib kelgan. Ular avvalo, mahalliy tarixnavislik maktablari vakillarining asarlari, qolaversa, Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan elchilar, sayyohlar, zobitlarning ma’lumotlaridan iborat. Ushbu manbalar yuqoridagi davr tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot hamda siyosiy jarayonlar haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Ular orasida quyidagilarni alohida sanab o‘tish maqsadga muvofiqdir: Boburning “Boburnoma”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Mulla Shodining “Fathnoma”, Fazlulloh Ro‘zbexonning “Mehmonnomayi Buxoro”, Zayniddin Vosifiyning “Badoyeul-vaqoye”, Hofiz Tanish Buxoroniyning “Abdullanoma”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy”, Xoja Samandar Termiziyning “Dastur al-muluk”, Mirza Badi devonning “Majma al-arkam”, Mir Muhammad Salimning “Silsilat as-salotin”, Abdurahmon Davlatning “Tarixi Abulfayzxoniy”, Mulla Vafo Karmanagiy va Olimbekning “Tuhfat al-xoniy”, Abulg‘oziyning “Shajarai turk”, Niyozmuhammad Xo‘qandiyning “Tarixi Shohruhiy”, Muhammad Hakimxonning “Muntaxib at-tavorix”, Muhammad Rizo Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol”, Ahmad Donishning “Mang‘it amirlari tarixi” kabi asarlardir.

Shuningdek, bu davr tarixini ilmiy jihardan o‘rganishda V.Abdullayev, A.Arends, B.Axmedov, S.Azimjonova, M.Abduraimov, Ya.G‘ulomov, U.Karimov, A.Kononov, N.Malitskiy, R.Muqminova, A.Muhammadjonov, R.Nabiyev, T.Ne‘matov, A.O‘rinboyev, A.Ziyo, B.Bobojonov, Sh.Vohidov, R.Xoliqova, M.Yo‘ldoshev, H.Boboyev, A.Saidov, Z.Muqimov, I.Saidahmedovlarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Ma'lumki, XV asrning 90-yillarida Movarounnahrda Temuriylar saltanati amalda mustaqil boshqariladigan viloyatlarga aylanib qolgan edi. Kichik bir viloyatda hokimlik qilayotgan temuriy shahzodalarning har biri poytaxt Samarqandni egallash, bobokalonlari o'tirgan taxtga chiqib, butun mamlakatga yagona hukmdor bo'lish orzusida edilar. Bu niyatga yetish uchun ular o'rtasida o'zaro ichki nizo avj olib ketgan bo'lib, mamlakat aholisining ham temuriylardan noroziligi kuchayib borayotgan bir davr edi. Samarqand hukmdori Sulton Ahmad Mirzoning 1494-yilda vafot etishi, bu holatni yanada keskinlashtirdi, mamlakatda ko'p hokimiyatchilik vujudga keldi. Bu vaziyatdan Temuriylarning shimoldagi qo'shnisi, Dashti Qipchoqda o'z hokimiyatini mustahkamlab olgan Muhammad Shayboniyxon (1451–1510-yy.) foydalanib, 1497-yilda Movarounnahrni egallash uchun birinchi marta qurol bilan bostirib kirdi. Tarixga e'tibor qaratsak, Shayboniylar asli XI asrdan boshlab Balxash ko'li va Sirdaryoning quyi oqimlaridan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarda qipchoq va boshqa turkiy qabilalarning hukmronlik qilgan. Botuxon 1236-yilda asos solgan Oltin O'rda davlati XIV asr boshlarida ikki qismga ajralib ketgan bo'lib, uning sharqiy qismida "O'zbeklar mamlakati" deb yuritilgan Oq O'rda davlati tashkil topdi. Bu hududda Jo'jixonning beshinchi o'g'li Shaybon urug'idan bo'lgan Abulxayrxon (1412–1468-yy.) 1428-yilda mustaqil davlatga asos soldi. Lekin urug' boshliqlarining mustaqil hukmronlikka intilishlari va 1468-yilda Abulxayrxonning vafoti bu davlatning inqirozga uchrashiga sabab bo'ldi. XV asrning 80-yillariga kelib, Abulxayrxonning nabirasi, Budoq Sultonning o'g'li Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon bobosining davlatini qayta tiklab, Shayboniylar sulolasiga asos soldi.

Buxoro xonligiga Shayboniylar sulolasi asos sogan va Buxoroni 1500–1601-yillar davomida boshqargan. Bu sulolaga Muhammad Shayboniyxon asos solgan bo'lib, XV asr oxiri va XVI asr boshlarida toju-taxt uchun o'zaro kurashayotgan temuriy shahzodalarning o'zaro nizolari oqibatida Movarounnahrning asosiy shaharlari: Samarqand va Buxoroni osonlik bilan egallab, yangi davlatga asos soldi. Keyinchalik Movarounnahrning qolgan hududi va Xuroson ham bu davlat

tarkibiga kiritildi. Ismoil I Safaviy bilan bo'lgan jangda Shayboniyxon o'ldirilgach, 1510-yil Ubaydullaxon dushmanga qarshi kurashga otlandi. 1511-yilda bo'lgan jangda engilgan Ubaydullaxon va Ko'chkunchixon, Samarkand hokimi Suyunchxo'jaxon, shuningdek, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton o'z yaqinlari bilan Turkiston shahriga chekinadilar. 1512-yil 28-aprelda Ko'li Malik jangida Ubaydullaxon g'alaba qozonib, Buxoro va Samarqandni egallaydi. 1512-yil bahorida Ubaydullaxonning shijoati natijasida Movarounnahr yana Shayboniylar qo'liga o'tdi. Biroq Ismoil I yuborgan Najmi Soniy boshchiligidagi 60 ming kishilik safaviylar qo'shiniga suyangan Bobur 1512-yil kuzida G'uzor va Qarshini egallaydi. Najmi Soniy qo'shini G'ijduvonni qamal qilishga kirishdi. Ubaydullaxon va Jonibek Sulton Karmanaga, Kuchkunchixon va Temur Sulton Miyonqolga chekinib, hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'rishadi. 1512-yil 24-noyabrdagi G'ijduvon jangida Ubaydullaxon boshchiligidagi qo'shin g'alaba qozonadi⁴.

1513-yil yanvarda Ubaydullaxon boshchiligidagi qo'shin Xurosonga harbiy yurishlar qilib, safaviylarga kuchli zarbalar berdi. 1513-yil 11-martda Ubaydullaxon Marvni egallaydi. Bu orada Ubaydullaxon Xorazmni ham egallab, o'g'li Abdulazizxonni hokim qilib tayinlaydi. Uzoq davom etgan harbiy to'qnashuvlardan so'ng Mashhad, Hirot va boshqa shaharlar egallandi. Ubaydullaxon Hirotidagi murakkab vaziyatni tartibga solish(bu yerda shialarning ta'siri kuchayib ketgan edi) va uning Buxoro bilan aloqalarini mustahkamlashga katta qaratgan. Ko'chkunchixon vafot etgach, uning o'g'li Abu Saidxon (1530–1533-yy.) davrida ham Ubaydullaxon noiblik vazifasida qolgan. 1533-yilda Abu Saidxon vafotidan so'ng, turkiy an'anaga binoan sultonlar ichida eng yoshi ulug'i Ubaydullaxon Buxoroda Shayboniylar sulolasining xoni qilib ko'tariladi. Poytaxt ham Samarqanddan Buxoroga ko'chirilib, Buxoro xonligining tashkil topish jarayoni boshlandi. Ubaydullaxon hukmronligi davrida Buxoroning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatidagi mavqei kuchaydi.

⁴ Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланом. биринчи китоб /форс тилидан С.Мирзоев таржимаси, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б. Ахмедов. –Тошкент: Шарк, 1999. –Б. 60 62.

Ubaydullaxonidan so'ng 1539-yil hokimiyatga o'g'li Abdulazizxon taxtga chiqadi. Abdulazizxon ungacha 1538–1539-yillar oralig'ida Xorazmda hokimlik qiladi. Otasining vafotidan so'ng mamlakatda ikki hokimiyatchilik vujudga kelib, Abdulazizxon (1540–1550-yy.), Buxoro xoni Ko'chkunchixonning o'g'li Abdullatifxon (1540–1551-yy.) esa Samarqand xoni bo'lgan. Abdulazizxon o'z hukmronligi davrida davlat va aholi manfaatlarini ko'zlab qator islohotlar o'tkazdi, ayrim soliqlar, jumladan, tanob puli, tafovut, tavfiri va boshqalarni bekor qildi va Buxoro atrofini yangi mudofaa devori bilan o'rash olishga kirishdi (devor qulilishini keyinchalik Abdullaxon bitkazadi va u XX asr o'rtalarigacha saqlandi)⁵. Abdullaxon Buxoro xonligida Shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdor (1583–1598-yy.), davlat arbobi, sarkarda, ilm fan, ma'rifat, madaniyat homiysi edi.

Abdullaxon Shayboniyxon vafotidan keyin parchalanib ketgan mamlakat hududini qayta birlashtirish, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun yoshlik chog'idan qattiq kurash olib boradi. Toshkent hokimi Navro'z Ahmadxon bilan Koson yonida 1548-yil va Mo'g'uliston xoni Abdurashidxon va Shayboniy Do'stum sulton qo'shiniga qarshi Forob yonida 1554-yil jang qiladi. Yosh Abdulla sulton o'zining hukmdor sifatidagi butun g'ayrat shijoatini 1551-yil Karmanada namoyish etdi. Shu yil bu viloyatga Toshkentdan Navro'z Ahmadxon va Samarqanddan Abdullatifxon hujum qilgan edi. Viloyat hukmdori Iskandar sulton Amudaryo ortiga qochadi. Abdulla sulton esa otasi vazifasini o'z zimmasiga olib, bu hujumni muvaffaqiyatli qaytaradi. 1552–1556-yillarda o'z mulkini g'arbga-Buxoro tomonga va janubi-sharqqa - Qarshi va Shahrisabz tomonga kengaytirishga intiladi. Bu sa'y-harakat dastlab muvaffaqiyatsiz chiqqan, hatto 1556-yili ota meros mulkini tashlab Maymanaga qochishga majbur bo'lgan. U amakisi, Balx hokimi Pirmuhammaddan harbiy yordam olib va piri Jo'ybor xojalaridan Xoja Muhammad Islom ko'magida Navro'z Ahmadxon, keyinchalik uning o'g'illari Darveshxon va Bobo sultonlarga qarshi uzoq muddat kurash olib boradi. Navro'z Ahmadxon vafot etgach, 1556-yil darhol Karmana va Shahrisabzda o'z

⁵ Бухоро шарқ дурдонаси . /Муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.53-55.

hukmronligini tiklaydi, 1557-yil may oyida Buxoroni qo'lga kiritadi va uni o'z poytaxtiga aylantiradi.

1561-yil otasi Iskandarxonni davlat boshlig'i, ya'ni xon deb e'lon qilib, uning nomidan mamlakatni boshqara boshlaydi⁶. Markaziy xokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortgan Shayboniy sultonlar bilan kurashib 1574-yil Balxni, 1578-yil Samarqandni, 1583-yil Toshkent, Sayram, Turkiston va Farg'onani egallaydi. 1582-yil Dashtga yurish qilib Ulug'tog'ga qadar boradi. 1583-yil otasi Iskandarxon vafot etgach, mamlakatni o'z nomidan boshqara boshlaydi. Markaziy hokimiyatga qarshi 1583-yil Maymana va Garchistonda ko'tarilgan qo'zg'olonni va 1585-yilgi Badaxshon g'alayonini bostiradi. Xorazmga 1594 va 1596-yillarda yurish qilib, u yerda markaziy hokimiyat hukmronligini qayta tiklaydi. Abdullaxon mamlakat hududi yaxlitligini tiklash yo'lida qo'shni xorijiy davlatlar bilan ham kurash olib boradi. Uning Movarounnahrni Buxoro atrofida birlashtirish istagiga erishishi oson bo'lmadi. U Amir Temurdan keyin Dashti Qipchoqqa nisbatan qat'iy siyosat yurgiza olgan yagona va so'nggi davlat rahbari sanaladi. 1598-yil Abdullaxon vafotidan so'ng uning o'g'li Abdulmo'min taxtni uzoq boshqara olmadi. So'nggi Shayboniy hukmdori Pirmuhammad II ham bebosh amirlarni tiyib qo'ya olmadi. XVI asr oxiri XVII asr boshlaridagi murakkab qarama-qarshiliklar natijasida Shayboniylar hokimiyatdan ayrilishdi.

Markaziy Osiyoda hukm surgan Shayboniylar sulolasi qudrali sulola namoyandasi Abdullaxon II ning vafoti sabab parokandalikka yuz tutdi. Shunga qaramay, u hayotining so'nggi yillarida mamlakatda davlatning iqtisodiy rivojlanishiga, xonlikdagi ichki ahvolga e'tibor berib, pul islohoti o'tkazadi. Abdullaxon II mamlakatda tarqoqlikka barham berib, xonlik hududini birlashtirgan va uni yanada 1Бухоро Шарқ дурдонаси/ Муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997,-Б. 55. 155 kengaytirgan. Uning Movarounnahrni Buxoro atrofida birlashtirish istagiga erishishi oson bo'lmadi⁷.

XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida yuz bergan mana shunday muhim

⁶ Бухоро шарқ дурдонаси . /Муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.54.

⁷ Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдуллонома/Содиқ Мирзаев тарж. –Тошкент: Шарқ, 2-жилд. 1999, -Б. 201-217.

siyosiy voqealardagi murakkab qarama-qarshiliklar natijasida Shayboniylar sulolasi vakillari hokimiyatdan ayrilishdi. Bundan foydalangan qo'shni davlatlar Buxoro erlariga tez-tez bostirib kira boshlashdi. Taxt endi so'nggi Shayboniyzoda Pirmuhammad qo'liga o'tdi⁸. So'nggi Shayboniy Pirmuhammadxon II o'ziga qarshi chiqqan Samarqand hokimi Boqi Muhammad bilan 1601-yil iyunda Samarkand yaqinidagi Bog'i Shamolda bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchragach, taxtni unga topshirishga majbur bo'ldi. Kurashda yengilgan Pirmuhammad bilan birgalikda butun boshli sulola taqdiri ham hal bo'lishi turgan gap edi. Unga qarshi tomonning qo'shini 50 000 askar atrofida bo'lgan. Boqi Muhammad boshqa yangi sulola – Ashtarxoniylar sulolasi vakili sanalardi.

Shunday qilib, 1601-yildan Buxoro xonligini yangi turkiy sulola – Ashtarxoniylar (Joniylar) boshqarishga kirishgan. Ashtarxoniylar sulolasining vakillari Buxoro xonligi taxtida bir yarim asrga yaqin vaqt mobaynida hukmronlik qilishdi. Ular asli XV asrning 30-yillarida Volgabo'yi yerlarida Ashtarxon xonligiga asos solishgan. Bu so'z aslida "Hoji Tarxon" so'zidan olingan. Xuddi shu asrning 50-60-yillarida rus davlatining istilochilik yurishlari tufayli sulola vakillaridan biri Yormuhammad farzandlari Jonibek Muhammad va boshqalar bilan birgalikda Movarounnahrda kelib qolgan. Ularning Buxoro xonlari bilan aloqalari yaxshi bo'lgan va hatto ular quda-andachilik bilan bog'langan bo'lgan. Ularning mavqei oshib borib, oxir-oqibat xonlik taxti mazkur sulola vakillari ixtiyoriga o'tib qoldi.

1605-yilda Boqi Muhammad o'ldirilgandan so'ng, taxtga uning akasi Vali Muhammad o'tiradi. Biroq tez orada unga qarshi fitna uyushtirilib, hukmdor safaviylar sulolasi podshosi Shoh Abbosga yordam so'rab murojaat etadi. Ammo uning o'zi asir olinib, qatl qilingach, taxt uning jiyani, Dinmuhammadning o'g'li Imomqulixon (1611-1642) ixtiyoriga o'tadi⁹. To'g'ri, Abbos yordami bilan bo'lsa-da, Vali Muhammad taxtni qaytarib oladi, ammo bu vaziyat uzoqqa cho'zilmaydi. 1611-yil oktabr oyida tomonlar o'rtasida kechgan to'qnashuvdan keyin Vali

⁸ Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Тошкент: Шарқ, 2000. -Б.256.

⁹ Султонов Т. Чингиз и Чингизиды. -Москва: Евразия, 2017. -С. 399.

Muhammad Samarqand atrofida halok bo'ladi. Shu paytda Vali Muhammad Erondan olib kelgan qo'shinga qarshi Imomqulixon Buxoro xalqining kurashiga rahbarlik qilib qozoqlar yordamida eronliklar qo'shinlarini tor-mor etadi. So'ngra 1611-yilda Sirdaryoning quyi oqimidagi hududlarga yurish qilib isyonkor qozoq, qalmoq, qoraqalpoqlarni ham bo'ysundirishga erishadi. 1612-yilda Toshkent shahrini egallab, unga o'g'li Iskandarni hokim etib tayinlaydi, ammo shahar aholisi uning nojo'ya xatti-harakatlaridan norozi bo'lib, isyon ko'taradi va Iskandarni o'ldiradi¹⁰.

Imomqulixon mamlakatni deyarli 30 yil davomida boshqarib, siyosiy vaziyatni yumshatishga, hokimiyatni markazlashtirishga qisman bo'lsa-da erishgan hukmdor. Lekin umrining oxirida ko'zi ojiz bo'lib qoladi va ukasi Nodir Muhammadni Balxdan chaqirtirib, taxtni unga topshiradi.

Manba tili bilan aytganda, davlatning oliy maqom ishlari va muhim mulkiy hamda moliyaviy tadbirlarini ijro qilib kelgan tabaqa Nodir Muhammad sultonning xonlik kursisiga o'tirishidan manfaatdor emasdi. Chamasi ularga ko'zi ojiz Imomqulixonning taxtda o'tirgani ma'qul edi¹¹. Imomqulixonning uzoq davom etgan hukmronligidan so'ng, taxtga o'tirgan Nodir Muhammadga nisbatan norozi kuchlar Xo'jandga bostirib kirgan qozoqlarni haydab chiqarish jarayonida uning o'g'li Abdulazizni xon deb e'lon qiladilar. XVII asrda ashtarxoniylar sulolasidan davlatni boshqargan Buxoro hukmdorlari orasida Abdulazizxon (1645-1680) nomi alohida tilga olinadi. Shu o'rinda bir fikrni aytib o'tish o'rinliki, Abdulazizning dastlabki hukmronlik yillaridagi mavqei uncha ham mustahkam emasdi. Misol uchun, shu paytda Balxda turgan Nodir Muhammad boburiy hukmdor Shoh Jahonga yordam so'rab murojaat etgan.

Abdulazizxon taxtni egallaguniga qadar avval Xuttalon, 1630-yildan esa Balxning g'arbiy tumanlari hokimi edi. Keyinchalik esa, xonlik taxtini egallab, Buxoro xonligida markaziy hokimiyatni mustahkamlashga harakatlar qiladi. Abdulazizxon hokimiyatining dastlabki o'n yilligida Samarqand hokimi

¹⁰ Абдуллахон. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси /www.ziyouz.com кутубхонаси.

¹¹ Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Тошкент: Шарқ, 2000,-Б.262.

Yalangto'sh Bahodir kuchidan foydalandi. Keyinchalik Yalangto'sh Samarqand hokimligi mavqeini saqlab qola oldi. "Silsilat as-salotin"da keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, u Abdulazizxon tomonidan berilmoqchi bo'lgan otaliq unvonini rad etgan¹². XVII asrning 60-yillaridan Buxoro siyosiy kurashlar maydoniga aylanib boraverishi natijasida uning madaniy va iqtisodiy ahamiyati biroz pasaygandek bo'ldi¹³.

Xuddi shu davrda Xiva xonlari Abulg'oz Bahodurxon va Anushaxonlarning Buxoro yerlariga bostirib kirish holatlari kuzatiladi. Abdulazizxon garchi oliy taxtda bo'lsa-da, ammo Balx muammosi unga tinchlik bermasdi. Uning ukasi Subhonquli deyarli mustaqil faoliyat yuritardi. Ba'zi vaqtlarda diniy ulamolarning aralashuvi va hattoki Balxda Abdulaziz nomidan xutba o'qilgan bo'lishiga qaramasdan, 1681-yilgacha shahar amalda o'zining mustaqilligini saqlab qola oldi. O'sha davr tarixiy manbalaridan bo'lmish Xo'jamquli Balxiyning "Tarixi Qipchoqxon" asarida Subxonquli va Abdulaziz o'rtasidagi kurashlar uzoq davom etgan va bu uning halokatini yaqinlashtirganligi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Abdulazizxon hukmronligining oxirida taxtni ukasi va valiahdi Subhonquliga topshirib, o'zi Eron Safaviylari davlat hududi orqali hajga jo'nab ketishga qaror qiladi. 1681-yilda uni Eron shohi kutib olgan. O'sha davr manbalarida bu haqda ma'lumotlar berilgan. 1683-yilda Makka shahrida vafot etgandan so'ng o'sha joyda dafn etiladi.

Ashtarxoniylar sulolasining vakillaridan Subhonqulixonning taxtga o'tirishi shundoq ham murakkab vaziyatni battar chigallashtirib yubordi. Podshoh hukmronligining so'nggi yillari o'zaro urushlar va boshboshdoqliklar bilan o'tdi. Natijada xonlik taxti uning o'g'li Ubaydullaxonga o'tadi. Urug' va qabila boshliqlari otaliq boshchiligida ba'zan xonlardan siyosiy maqsadlarda foydalanishgan. Masalan, Nodir Muhammad o'z o'rnini vorisiga bergan bo'lsa, Subhonqulixonning Muhammad Muqim sultonni taxt vorisi etib belgilash istagi amalga ham oshmagan. Xonning xohishiga qarshi Ubaydulla Sulton (1702-1711)

¹² Зияев А. Х. «Силсилат ас-салотин» как исторический источник. /Автореферат. Ташкент: 1990. - Б. 11.

¹³ История Бухары. / Под редакцией И.Муминова. -Ташкент: Фан, 1976.- С. 113.

ni xonlik taxtiga o'tqazishgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, hukmdorning o'zaro kurashlarga chek qo'yish uchun qilgan harakatlari oson kechmadi, sababi unga ko'plab qarshiliklar bo'ldi. Kelishmovchiliklar natijasida Balx hokimi Muhammad Muqimxon o'zini Buxorodan mustaqil deb e'lon qiladi. Yirik amirlar va mansabdorlarning, hokimlarning mavqei oshib borish jarayoni tezlashib boraverdi.

“Ubaydullanoma”da otaliq lavozimining obro'si oshib borganligi ta'kidlanadi. Vaholanki, hukmdorning o'zi 1707-yilda Odilbiy mingni Balx viloyati mulklarining boshlig'i etib tayinlaydi. Ubaydullaxon davrida pul islohoti o'tkazilib, 1708 yilda mamlakatda yangi tangalar muomalaga chiqarila boshlandi. Lekin bu ham xalqning noroziligiga sabab bo'lgan, chunki tangalar tarkibidagi kumushning miqdori 4 barobar kamaytirilib, miqdori avvalgi tangalarga tenglashtirilgan. Ammo mahsulot sotib olish jarayonida ularning qiymati avvalgisiga barobar qilib qo'yilishi xalqning noroziligini keltirib chiqardi¹⁴. Ubaydullaxon o'tkazgan pul islohotidan norozi bo'lgan aholi vakillari qo'zg'olon ko'tarishadi. Natijada hukmdor boshqaruviga putur etadi, 1711-yil Ubaydullaxonga nisbatan suiqasd uyushtirildi. Uning tarixini yozgan muallifning guvohlik berishicha, hukmdorning o'zbilarmonlik siyosati tufayli saroydagi bir guruh kishilar davlat ishlarini qo'lga olib, zulm yo'liga o'ta boshladilar. Ubaydullaxon bunday vaziyatni bilib turib ham chora qo'llay olmagan. Natijada davlat amaldorlari va lashkarlarining unga nisbatan e'tibori kamayib, suiqasd uchun qulay imkoniyat hosil bo'lgandi. Bunga sabab noto'g'ri pul islohoti, xalqqa solingan 40 dan ziyod soliq va xonlikda yuqori mavqega ega Jo'yboriy shayxlarga nisbatan ham soliqlarning joriy qilingani edi. So'nggi Ashtarxoniy hukmdorlardan biri Ubaydullaxon saroy fitnasi natijasida Buxoroning Piri Marza chorbog'ida o'ldiriladi. Fitnaga xonning qo'riqchilar boshlig'i rahbarlik qilgan. Hukmdorning jasi Buxoro yaqinida joylashgan Bahouddin Naqshband mozoridagi “Daxmai shohon”da, otasi Subhonqulixon qabri yonida dafn qilinadi.

Buxoroni boshqargan sakkizinchi hukmdor Abulfayzxon Joniylar sulolasi vakillaridan Subhonqulixonning o'g'li, Ubaydullaxonning ukasi edi. Ubaydullaxon

¹⁴ История Бухары. / Под редакцией И.Муминова. -Ташкент: Фан, 1976. – С. 113.

fojiasidan so'ng mamlakatda markaziy boshqaruv zaiflashib qoladi. Bunday vaziyatda Abulfayzxonning o'zi ham ularga qarshi biror chora ko'rishga ojiz edi. Oxir-oqibat markaziy hokimiyat boshqaruvni butunlay yo'qotib, davlat hokimiyati urug'- qabila boshliqlari qo'lga o'tadi. Abulfayzxon esa ular qo'lida qo'g'irchoq hukmdorga aylanib qoladi. Abulfayzxonning yagona umidi va tayanchi – lashkarlar edi, xolos. Mamlakatda o'zaro nizolar kuchaygan, chuqur iqtisodiy-siyosiy tanazzul yuz berayotgan edi. Abulfayzxonning hukmronlik davrida mang'it urug'laridan Muhammad Hakim otaliq lavozimiga tayinlanib, davlat boshqaruvida faol ishtirok eta boshlaydi. 1722-yilda kenagas urug'ining sardori Ibrohimbiy Abulfayzxonga qarshi chiqib, Samarqandda kuyovi Rajab sultonni xon deb e'lon qiladi¹⁵. Bundan ko'zlangan maqsad Muhammad Hakimbiyning hokimiyatini zaiflashtirish edi. Hattoki, Rajab Sulton qo'shin bilan Buxoroga yurish qiladi, lekin u o'z maqsadiga erisha olmaydi. Shundan keyin ular qozoqlar yordamiga umid qila boshlaydilar. Qozoqlarning bu hududlarga kelishi yaxshilik bilan tugamadi. Sababi qozoqlar Movarounnahr shaharlarini 7 yil davomida talon taroj qilib ketishgan.

1739–1740-yillarga kelib sulolaning zaiflashib qolishi eronlik istilochi Nodirshoh uchun qulay imkoniyat yaratib berdi va afshoriylar qabilasidan bo'lmish bu hukmdor Buxoroga tomon yurish boshlaydi. Qarshi va Qorako'l yonidagi janglarda qo'shin soni ko'p bo'lishiga qaramay, Buxoro qo'shinlari engiladi. 1740-yilda Eron qo'shinlari Buxoro xonligi ustidan zafar qozonadilar. Abulfayzxon o'z taxtida qoldirilgan bo'lsa-da, davlat boshqaruvida mang'it urug'i yirik vakillari, xususan, Muhammad Hakim otaliqning mavqei yuksaladi. Bu voqealar mahalliy tarixchi-buxorolik Vafo Karmanagiy, xivalik Munis asarlarida mufassal yozib qoldirilgan¹⁶. Nodirshoh tomonidan qo'lga kiritilgan o'ljalar orasida Amir Temurning qilichi va choroyna, Qur'on nusxasi, qabr ustidagi nefrit toshi bor edi. Ularning ayrimlari Nodirshoh tomonidan asl joyiga qaytarilgan.

Keyinchalik mahalliy hokimiyat Muhammad Hakim otaliq qo'lga o'tadi. Uning vafot etishi bilan, 1743-yildan mamlakatda yana tartibsizliklar avj ola

¹⁵ Бартольд В.В.. Сочинения. –Т.II, -Ч.1, - Москва: изд. Восточной литературы, 1963. - С. 268.

¹⁶ Бартольд В.В.. Сочинения. –Т.IV, - Москва: изд. Восточной литературы, 1966. - С. 241 242.

boshlaydi. Hukmdorga nisbatan norozilik kuchayib boraverdi. 1745-yil bahor bayramida Miyonqolda Ibodullabiy boshchiligida qo'zg'olon ko'targan qipchoqlar Buxoroga bostirib kiradilar. Bu qo'zg'olonni bostirish maqsadida Eronga ketib qolgan Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahimbiy qaytib keladi. Ammo uning Buxoroga kelishi oson kechmadi. Rahimbiy Buxoro yo'lida o'z chorbog'i G'ozibodda o'rnashib oladi. Keyinchalik, Abulfayzxonni taxtdan ag'darish borasida Jo'ybor xo'jalari bilan muzokaralar olib boradi. Nodirshohning 1747-yil sodir bo'lgan vafotidan keyin Muhammad Rahimbiy mamlakatda o'z mavqeini mustahkamlab oladi. Oradan ozgina vaqt o'tmay, Abulfayzxon taxtdan qulatilib, uning o'rniga o'g'li Abdulmo'min taxtga o'tqaziladi. Shunday qilib Buxoroning Eronga vassalik davri tugab, Buxoroda ashtarxoniy-joniy sulolasi vakillarining hukmronligi o'z nihoyasiga etadi. Abdulmo'min, undan so'ng esa Ubaydullaxon rasman xon deb e'lon qilinsa-da, amaldagi hokimiyat mang'itlar qo'liga o'tadi.

XVIII asr Markaziy Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan parokandalikka yuz tutish davri hisoblanadi. Buxoro ko'p millatli davlat bo'lib, shu davrda Buxoro xonligi tarkibiga Afg'onistonning shimoliy qismlari, Balx kabi bir qator hududlar kirar edi. XVIII asrga kelib, bu vaqtgacha 2400 yillik ulkan tarixiy taraqqiyot yo'liga ega o'zbek davlatchiligida bo'linish, tarqoqlik holati yaqqol namoyon bo'la boshladi. Bu O'rta Osiyo siyosiy xaritasida endi uchta alohida davlat ko'rinishini olishi bilan yakunlandi. Ya'ni hokimiyat maydoniga minglar sulolasi davlat tepasida bo'lgan Qo'qon xonligi qo'shildi.

1.2. Xiva xonligining tashkil etilishi. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti.

Xiva xonligining tashkil topishi ham XVI asr boshlariga to'g'ri keladi¹⁷. 1510 yilda Shayboniyxon vafotidan so'ng Xorazm hududi Eron shohi Ismoil tomonidan bo'ysundirildi. 1510–1512-yillarda Xorazmni Eron shohining noiblari idora qildilar. Ammo, 1512-yilda Xorazm hududlarida eroniylarga qarshi

¹⁷ Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент, 1994. – Б.332-334.

xalq xarakatlari boshlandi. Ushbu harakatga Vazir shahrining (Ustyurtda, Koʻhna Urganchdan 60 km uzoqlikda joylashgan bu shaharni XV asrda oʻzbek xonlardan boʻlgan Mustafoxon barpo etgan) qozisi Umar Shayx boshchilik qildi. Qoʻzgʻolonchilar Xorazmning Vazir, Urganch, Xiva, Xazorasp shaharlaridagi eroniy noiblar va ularning qoʻshinlarini qirib tashladilar.

1512-yilda Xorazmning obro‘li shayxlaridan bo‘lgan Shayx Ota avlodlari ko‘chmanchi o‘zbeklarning Berka sulton avlodidan bo‘lgan Elbarsxonga maktub yo‘llab, uni Xorazm taxtiga taklif qildilar. Elbarsxon taxtga o‘tirgach, eroniylarni mamlakat hududlaridan butunlay haydab chiqarib, amalda mustaqil xonlikka asos soldi. U mamlakat hududlarini hozirgi Turkmanistonning janubiy qismi, Eronning shimolidagi Seraxs viloyati, Mang‘ishloq, Abulxon, Durun hisobiga ancha kengaytirdi¹⁸.

XVI asrning ikkinchi yarmida Hojimaxon (Hoji Muhammadxon, 1558–1593, 1598–1602 yy.) hukmronligi davrida Xorazmdagi o‘zaro urushlarga biroz barham berilib tinchlik va osoyishtalik o‘rnatildi. 1601-yilda Hojimaxon 83 yoshida vafot etgach, taxtga uning o‘g‘li Arab Muhammadxon (1602-1623 yy.) o‘tirdi. Arab Muhammadxonning dastlabki hukmronligi yillarida toju-taxt uchun kurashlar keskinlashdi. 1616-yilga kelib taxt va mansab talashish mojarolariga Arab Muhammadxonning o‘g‘illari ham qo‘shildilar. 1623–1643-yillarda Xiva xonligini Isfandiyorxon boshqardi. Isfandiyorxon o‘zining yigirma yillik davlat boshqaruvini turkman qabila boshliqlariga tayanib olib bordi. Orol bo‘yi o‘zbeklari 1643-yilda Abulg‘ozi sultonni (1643–1663-yy.) xon qilib ko‘tardilar. Abulg‘ozixonning hayot yo‘li og‘ir kechgan. Davlat boshqaruvi va bunyodkorlik ishlari bilan shug‘ullangan Abulg‘ozixon tarixchi, tabib sifatida ham bebaho meros qoldirgan. Abdulg‘ozixon 1657-yilda tabobatga oid “Manofe’ ul-inson” (“Insonga foydali narsalar”), 1658–1664-yillarda “Shajarai turk” nomli tarixiy asarlarini yaratdi. Abulg‘ozixon hali o‘zi hayotlik davrida Xiva xonligi taxtini o‘g‘li Anushaxon (1663–1687-yy.) ga topshirdi va oradan olti oy o‘tib vafot etdi.

1687-yilda saroy a'yonlari tomonidan fitna uyushtirilib, Anushaxon

¹⁸ R.Shamsutdinov., Sh.Karimov. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. – Toshkent., “Sharq”. 2010, 90–bet.

o'ldiriladi. Taxtga esa uning o'g'li Xudoydod (1687–1688-yy.) o'tkaziladi. Arangxonning (1689–1690-yy.) hukmronligi ham uzoq davom etmadi. U 1690-yilda u Orol o'zbeklari bilan bo'lgan janga halok bo'ldi. Arangxon vafotidan so'ng Buxoro xoni Subhonqulixon Xiva taxtiga o'z odami Shohniyozni (1690–1707-y.y.) o'tkazib, amalda Xiva xonligini Buxoroga vassal davlatga aylantirdi. XVII asrning oxiri - XVIII asrning boshlariga kelib, Xiva xonligida siyosiy tarqoqlik, taxt uchun kurashlar va mahalliy hukmdorlarning mustaqillikka intilish harakatlari avj olib ketadi.

Sherg'ozixon (1715–1728-yy.) ning hukmronligi davri siyosiy voqealarga boy bo'ldi. Uning hukmronligi davri o'zbek, turkman, qoraqalpoq zodagonlarining o'zboshimchalik harakatlariga qarshi kurash bilan o'tdi. Sherg'ozixon o'limidan keyin taxtga o'tirgan qozoq sultoni Elbarsxon (1728–1740-yy.) davrida ichki kurashlar davom etib, qo'shni hududlarga ko'plab talonchilik yurishlari uyushtirilib turishi natijasida Xiva xonligining harbiy qudrati zaiflashib bordi.

1763-yildan boshlab Xivada amalda qo'ng'irot urug'i inoqlari hokimiyat tepasiga kelgan bo'lsa-da, 1804-yilgacha Xiva xonlari hukmdor sifatida boshqa shahsni xon qilib e'lon qilganlar. Qo'ng'irotlar sulolasi hukmdorlaridan Muhammad Amin inoq (1763–1790-yy.) Xivada hokimiyatni qo'lga olgach saroydagi bir qancha lavozim va amallarga o'ziga sodiq va ishonchli odamlarni tayinladi. Yangi xon shu yo'l bilan xonlikdagi muhim siyosiy-ma'muriy, moliyaviy va harbiy hokimiyatni o'z qo'lga olib, ayrim mustaqil beklarni o'ziga itoat ettirdi.

Muhammad Aminning o'g'li Avaz inoq (1790–1804-yy.) otasining ishlarini davom ettirgan bo'lsa, Avazning o'g'li Elto'zar inoq 1804-yilda Xiva taxtiga o'tirib, sohta xon Abdulg'ozni V ni haydab yubordi va o'zini rasmiy xon (1804–1806-yy.) deb e'lon qildi. Shu tariqa Xivada qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi rasmiy qaror topdi. Eltuzarxon xonlikdagi mustaqil hokimlarni birlashtirish siyosatini davom ettirdi. 1806-yilda Eltuzarxon buxoroliklar bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi. Taxtga uning ukasi Muhammad Rahimxon I o'tirdi. Muhammad Rahimxon I (1806–1825-yy.) markazlashtirish siyosatiga kata e'tibor berib, Xiva

xonligini birlashtirishni nihoyasiga yetkazdi.

Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlariga harbiy yurishlar Muhammadrahimxondan keyin taxtga o'tirgan o'g'li Olloqulixon (1825–1842-yy.) va nabirasi Rahimqulixon (1842–1845-yy.) davrida ham davom etdi.

Xiva taxtiga Sayid Muhammadxon (1856–1864-yy.) xon qilib ko'tarildi. U hokimiyatga kelgan paytda xonlikda siyosiy vaziyat keskinlashgan, iqtisodiy ahvol nihoyatda og'ir bo'lib, ko'pchilik viloyatlarda ocharchilik hukm surgan, yuqumli kasalliklar tarqalgan edi. Otasidan keyin Muhammadxon Rahimxon II (1864–1910-yy.) taxtga o'tirdi. Soniy va Feruz nomlari bilan ham ma'lum bo'lgan bu hukmdor Xiva xonlari orasida eng adolatparvar va ma'rifatparvar hukmdor bo'lganligi bois ham 47 yil davomida mamlakatni idora qilgan.

Muhammadxon Rahimxon II vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li Sayid Isfandiyor (1910–1918-yy.) o'tirdi. General-mayor unvoniga ega bo'lgan Isfandiyorxon ham otasi kabi rus hukumatiga tobe edi. 1918-yil 1-oktabrda turkman Qurbon Muhammad Sardor (Junaidxon)ning buyrug'i bilan Isfandiyorxon o'ldirildi. Hokimiyatni Junaidxon o'z qo'liga oldi. Ammo, u Xiva taxtiga o'tira olmas edi. Shu bois ham Isfandiyorxonning ukasi Said Abdullaxon (1918–1920-yy.) nomigagina xon qilib ko'tarildi. 1920-yil 2-fevralda Xivaga kirib kelgan qizil armiya qo'shinlari Junaidxon lashkarlarini tor-mor etib, hokimiyatni sovetlarga topshirdi.

Xiva xonligi ma'muriy jihatdan XVI-XVIII asrlarda viloyatlarga bo'lingan bo'lsa, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridan boshlab davlatdagi asosiy ma'muriy hududlar beklilik deb atalgan. Manbalarga ko'ra, bu davrda xonlikda 16 ta beklilik va 2 ta noiblik mavjud edi. Ular Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Kuhna Urganch, Qo'shko'prik, Pitnak, Qiyot, Shobboz (Shohabboz), Shovot, Toshhovuz, Ambarmanak, Urganch, Xo'jayli, Shumanay va Qo'ng'iro't bekliliklari hamda Beshariq va Qiyot-Qo'ng'iro't noibliklaridir. Ularni xon tomonidan tayinlangan beklar va noiblar boshqarganlar. Xiva shahri boshqaruvi xon va bosh vazir ixtiyorida bo'lgan. Xonlikning poytaxti turli davrlarda Vazir, Kat, Ko'hna Urganch, Xiva shaharlari bo'lgan.

1.3. Qo‘qon xonligining tashkil etilishi. Xonlikda ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot

XVIII asrning boshlarida Farg‘ona vodiysida shakllangan yangi davlat – Qo‘qon xonligiga mahalliy aholidan bo‘lgan ming urug‘i vakillari asos solgan. XVII asrning oxiri – XVIII asr boshlarida Ashtarxoniylarning siyosiy va ijtimoiy hayotida yuz bergan tushkunlik, Farg‘ona vodiysi iqtisodiy mustaqilligining o‘shishi hamda 1704 yilda Chodak xo‘jalarining isyon ko‘tarib, Farg‘onaning bir qismini egallashi bunga tegishli sharoit yaratib berdi. Ming urug‘ining boshlig‘i Shohruxbiy ibn Ashur Muhammad (1709–1721-yy.) Chodak xo‘jalari qo‘lida bo‘lgan siyosiy hokimiyatni kuch bilan tortib olib, 1709/1710-yilda Farg‘ona vodiysidagi Minglar sulolasi hukmronligiga asos soldi¹⁹. Avval boshda Shohruxbiy Buxoro xoni tomonidan otaliq unvonini olib mamlakatni boshqargan.

Shohruxbiyning o‘g‘li va vorisi Muhammad Abdurahimbiy (1721–1733-yy.) taxtga o‘tirganidan so‘ng Minglar tasarrufidagi yerlar yanada kengaya boshladi. Abdurahimbiy 1724-yilda Andijonni, 1725-yilda Xo‘jandni, 1726-yilda O‘ratepani bosib olib, xonlik hududlariga qo‘shdi. U qisqa muddat bo‘lsa-da, Buxoroga qarashli Samarqand va Kattaqo‘rg‘onni egallab, Shahrisabzga ham tahdid solgan. Abdurahimbiy Qo‘qon (Xo‘qand) qishlog‘i o‘rni va atrofida yangi shaharga (dastlab Qal‘ai Rahimbiy deb nomlangan, keyin esa Qo‘qon) asos soladi va bu shahar xonlikning poytaxtiga aylanadi.

1733–1750-yillarda hukmronlik qilgan Muhammad Abdulkarimbiy ibn Shohruxbiy asosiy e‘tiborini mudofaa ishlariga qaratdi. U xonlikning poytaxti Qo‘qonda Isfara, Qatag‘on, Marg‘ilon, Haydarbek nomli darvozalar qurdirib, shahar atrofini mustahkam devor bilan o‘ratdi. Shu bilan birga u 1741–1745-yillardagi qalmoqlar (jung‘orlar)ning Farg‘onaga qilgan hujumlarini daf etdi. Abdulkarimbiy qalmoqlarga qarshi kurashda qirg‘iz-qipchoqlar va O‘ratepa hokimi Fozilbiy yuz yordamiga tayandi hamda xonlik mustaqilligini saqlab qoldi.

¹⁹ Эшов Б., Одилов А. Ўзбекистон тарихи (Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача). I жилд. Дарслик. – Тошкент., “Янги аср авлоди”. 2014, 545–бет.

Abdulkarimbiy 1750-yilda vafot etganidan so'ng xonlik taxtiga uning o'g'li Abdurahmon o'tirdi. Ammo u taxtda to'qqiz oy o'tirib, so'ng Marg'ilonga hokim etib jo'natildi hamda taxtga Abdurahimbiyning ikkinchi o'g'li Erdonabiy o'tirdi. 1753-yilda qalmoqlarning tazyiqi va talabi bilan ularning qo'lida garov sifatida ushlab turilgan Bobobek xonlik taxtiga ko'tarildi. Lekin oradan bir yil ham o'tmay O'ratepa yurishi vaqtida Bobobek Beshariqda o'ldirildi hamda Erdonabiy (1755–1769-yy.) qayta Qo'qon taxtini egalladi. Xitoylik geograflarning ma'lumotlariga ko'ra, uning hukmronligi davrida, 1759–1760-yillarda Farg'ona to'rtta mulk: Andijon, Namangan, Marg'ilon va Qo'qonga bo'lingan bo'lib, ular ichida Qo'qon yetakchilik qilgan. Erdonabiydan so'ng taxtga Shohruxbiyning uchinchi o'g'li Shodibekning farzandi Sulaymonbek o'tiradi. Uning taxtni egallashida urug' oqsoqollarining ko'magi katta bo'lgan bo'lsa ham, u atigi 6 oy hukmdorlik qildi.

1770-yilda Qo'qon taxtiga Abdurahmonbiyning o'g'li Norbo'tabiy (1770–1801-yy.) o'tirdi. Norbutabiy markaziy hokimiyatni mustahkamlashda, bo'ysunmas hokimlar qarshiligini bostirishda ma'lum muvaffaqiyatga erishdi. U Chust va Namangandagi g'alayonlarni bostirganidan so'ng bu shaharlarga o'z odamlarini hokim etib tayinlaydi. Norbo'tabiy bir qancha urinishlardan so'ng Andijon, O'sh, Xo'jand va yaqin atrofdagi qo'shni hududlarni bosib oladi. U 1799-yilda Toshkentni ham bosib olishga harakat qildi, ammo uning yuborgan qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Tarixiy manbalarda bu hukmdor ancha tadbirli va zehnli deya ta'riflangan.

Qo'qonning dastlabki hukmdorlari “biy” va “bek” unvoni bilan mamlakatni idora qilgan bo'lsalar, Olimxon davridan boshlab (1805-yil) hukmdorlar rasman “xon” deb yuritila boshlandi²⁰.

Olimxon harbiy yurishlar qilib, yangi viloyatlarni, jumladan, Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent, Turkistonni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. U qisqa muddat O'ratepani ham egalladi, Jizzax va Zominga yurishlar qildi. Harbiy islohotlar o'tkazib, markazlashgan va kuchli davlat tuzish uchun harakat qilayotgan Olimxonning siyosatidan norozi bo'lgan ayrim zodagonlar guruhi unga

²⁰ Ўзбекистон тарихи дарслиги. – Тошкент, 2011. – Б. 259-261.

qarshi fitna tayyorlay boshladilar. Olimxon o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida ukasi Rustambekni, bir nechta sarkardalarni, din peshvolarini o'ldirtirib yubordi. Manbalarning ma'lumot berishicha, bu voqealardan so'ng kuchayib ketgan fitnachilarga Olimxonning ukasi Umarbek boshchilik qilgan. Natijada 1810-yilda Olimxon Toshkentdan Qo'qonga qaytayotganda Oltiqush mavzesida o'g'li Shohruxbek bilan birga Qambar Mirza tomonidan otib o'ldiriladi.

Manbalarga ko'ra, Umarxon (1810–1822-yy.) hukmdorligi davrida yirik yer egalari, harbiy sarkardalar va ruhoniylarning mavqei yanada oshadi. U davlat boshqaruvi ishlarida izchil tartib, qonun-qoidalar o'rnatdi va diniy ishlarni tartibga soldi. Natijada 1818-yilda Umarxon ruhoniylarni roziligi bilan “amir al-muslimin” unvonini olib, ham diniy, ham dunyoviy hokimiyatga ega bo'ladi. Muhammad Hakimxon ma'lumotlariga ko'ra, Umarxon davrida Amir Temur va Sulton Husayn Boyqaro zamoniga taqlidan unvon va lavozimlar joriy etilib, ularga hokimiyatga yaqin shaxslar tayinlanadi. Shuningdek, Olimxon zulmidan qochib ketgan ayrim amaldorlar Umarxon xizmatiga qaytib kelib, lavozimlarni egallaydilar.

Qo'qon xonligining Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy jarayonlar va o'zaro munosabatlarga faol aralashuvi ham Umarxon davridan boshlanadi. O'z davrida Umarxonning elchilari Xiva, Xitoy va Turkiya davlatlariga jo'natilganligi ma'lum. 1822-yilda Umarxon kasallikdan vafot etganidan so'ng taxtga uning o'g'li Muhammad Alixon (Madalixon, 1822–1842-yy.) o'tiradi. Uning hukmronligi davrida Qo'qon xonligining hududi yanada kengayib, qirg'izlarning ba'zi tumanlari xonlikka qo'shib olinadi hamda Kulob, Hisor, Badaxshon, Darvoz, Mascho kabi viloyatlar Muhammad Alixon hokimiyatini tan oldilar.

Muhammad Alixon hukmronligining dastlabki yillari ancha odilona tarzda kechgan. U 1826–1831-yillar davomida Koshg'arga yurishlar qilib, bu yerdagi musulmonlarni xitoyliklar zulmidan ozod qildi hamda 70 ming uyg'ur musulmonlarini Andijon viloyatiga ko'chirib keltirdi. Natijada din peshvolari Muhammad Alixonga “g'oziy” (“din yo'lida kurashuvchi”) unvonini berdilar. O'z hukmronligi davrida u ma'lum ijobiy ishlarga yo'l ochgan bo'lsa-da, lekin ma'lum

zodagonlarning tanobini tortib qo'yilishi, ba'zida xonning o'zi maishatga berilishi ma'lum noroziliklarga sabab bo'ldi. 1842-yil aprelda Qo'qonni bosib oldi. Qo'qondan oilasi bilan Namangan tomonga qochgan Muhammad Alixon tutib keltirilib, oilasining bir qismi bilan qatl ettirildi. Amir Nasrullo Qo'qon xonligining Buxoroga qo'shib olinganligini e'lon qilib, Qo'qonda o'z noibi Ibrohim dodxoh mang'itni qoldiradi. Ammo Ibrohim dodxohning Qo'qon xalqiga o'tkazgan jabr-zulmi, soliqlarning haddan tashqari oshib ketishi natijasida aholi qo'zg'olon ko'tarib, Buxoro hukmronligidan qutqarish uchun qipchoqlarni yordamga chaqiradilar. Qipchoqlar Muhammad Alixonning qarindoshi Sherali boshchiligida Qo'qonga kelib, buxoroliklarni tor-mor etdilar hamda Sheralixon (1842–1845-yy.) taxtni egalladi. Qipchoqlar esa shu vaqtdan boshlab uzoq vaqt xonlikda yetakchi mavqega ega bo'ldilar.

Qo'qonda bo'lgan voqealardan xabar topgan Amir Nasrullo 1842-yilning kuzida yana Qo'qonga yurish qildi, ammo bu safar unga omad kulib boqmasdi. Muhammad Alixon davrida yuzboshi bo'lgan Musulmonquli qipchoq Nasrulloning ishonchiga kirib, Qo'qonga keladi va qo'qonliklarni taslim bo'lishga ko'ndirish o'rniga bir tan-bir jon bo'lib amirga qarshi kurashga chorlaydi. Uning maslahatiga ko'ra Qo'qonda himoya vositalari kuchaytirildi. Bir oydan ziyodroq Qo'qonni qamal qilgan Amir Nasrullo xivaliklar chegarada joylashgan Buxoro qishloqlariga hujum qilayotganligi haqidagi xabarni olib, Buxoroga qaytishga majbur bo'ldi.

Buxoroliklar ketgandan keyin Qo'qon xonligida bir muddat tinchlik va osoyishtalik hukm surdi. Sheralixon keksa odam bo'lib, qator ijobiy fazilatlariga ega bo'lgan inson edi. Ayrimlar uning bu xulq-atvoridan o'z maqsadida foydalanmoqchi bo'ldilar. Sheralixonning davrida barcha davlat lavozimlarini qipchoqlar egallab, ular davlat boshqaruvini o'z qo'llariga oldilar²¹. Ammo 1845-yilda Buxoroda bo'lgan Olimxonning o'g'li Murodxon (Qo'qonda 11 kun xon bo'lgan) Amir Nasrulloning yordami bilan Qo'qonga kelib, Sheralixonni qatl etadi va taxtni egallaydi. Bu paytda Namanganda bo'lgan mingboshi Musulmonquli bu

²¹ Muntaxab at-tavorix, 2-jidd, 71⁶-73⁶-betlar; Tarixi Shohruxiy, 134-136-betlar; Mulla Avaz Muxammad. Tarixi jahonnamoy. Uzbekiston FA ShI qo'lyozmasi. Rakami 9455, 160^a-175^a-varaqlar; Ansob as-salotin, 19-21-betlar.

voqeadan xabar topgach, Sheralixonning besh o'g'lidan biri Xudoyorxonni (1845-1853, 1863, 1865–1875-yy.) olib Qo'qonga keladi hamda uni xonlik taxtiga o'tqizadi. 16 yoshga kirgan Xudoyorxonning yoshligidan foydalangan Musulmonquli mamlakatni deyarli o'zi boshqardi. Xudoyorxonning birinchi xonligi davrida ikkita kuch – o'troq aholi va ko'chmanchi turkiy qabilalar o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash xonlikning asosiy muammosiga aylandi.

1852-yilga kelib Musulmonquli va qipchoqlarga qarshi kurash uchun o'troq mulkdorlar va toshkentlik zodagonlar Xudoyorxon atrofida birlashdilar. Bu kuchlar yordamida Xudoyorxon Musulmonqulini 1853-yilda qatl etib, uning tarafdorlarini yo'q qilgani bilan, taxt uchun kurashlarga barham bera olmadi. Bunday vaziyatda xonlikning ichki ahvoli og'irlashdi. 1858-yilda Sheralixonning ikkinchi xotinidan bo'lgan o'g'li Mallaxon Xudoyorxonni taxtdan ag'darib, o'zini xon deb e'lon qildi. Mallaxon va Aliquli qirg'iz boshchiligida yangidan tiklangan ko'chmanchilar guruhi uzoq hukm surmadi. Aynan shu guruh a'zolari Mallaxonga qarshi til biriktirib, 1863-yil 25-fevralda uni o'ldirdilar. Taxtga esa Xudoyorxonning akasi Sarimsoqbekning o'g'li Shohmurod o'tqazildi. Lekin qo'shin boshliqlari va saroydagi ko'pchilik amaldorlar unga qarshi fitna uyushtirib, Xudoyorxonga yana taxtga o'tirishni taklif etib, odam yuboradilar.

Bu payda Mallaxon o'limini eshitgan Xudoyorxon Amir Muzaffarning ruxsati bilan Buxorodan Jizzaxga kelgan edi. Turkiston hokimi Qanoatshoh yordamida qo'shin yig'ib, 1863-yilning mart oyida Jizzaxdan Toshkentga kelgan Xudoyorxon Qo'qonga qarshi yurish uchun Toshkent qo'shini bilan Xo'jandga keldi. Bu orada Amir Muzaffar ham Buxoro lashkari bilan Xo'jandga keladi. Xudoyorxon Qo'qonga hujum qilishni rejalashtirayotgan paytda, ya'ni 1863-yilning 5-mayida shahar aholisi unga shimoliy darvozalarni ochib berdilar. Natijada Qo'qonda qirg'in boshlanib, Shohmurodxon o'z tarafdorlari bilan Marg'ilonga qochdi. Xudoyorxon ikkinchi marta (1863-y.) taxtni qo'lga kiritdi.

Ammo xonlikdagi qirg'iz-qipchoqlar Koson va Chust atroflarida qo'zg'olon ko'tardilar va To'raqo'rg'onga hujum qildilar. Ularning sardorlari taxt uchun kurashni davom ettirdilar. Xususan, Shodmonxo'ja, Sayid Mahmudxonto'ra va

Aliquli Sulton Sayidxon boshchiligida Marg‘ilon tomondan kelib, Andijonni bosib oldilar va uning atroflaridagi Baliqchi, Quva, Asaka, Shahrixon, O‘sh, Poytug‘ mavzellarini talon-toroj qildilar. 1863-yil 26-aprelda Sulton Sayidxonning qo‘shini Mingtutga kelib, Qo‘qonni qamal qildi. Amir Muzaffarning Xudoyorxonga yordami tufayli qirg‘iz-qipchoq lashkari Asaka tomonga ketib, Qo‘rag‘ulcha darasida himoyaga o‘tdi. Qattiq kurashlardan so‘ng 1863-yilning 24-iyulida Sulton Sayidxon Qo‘qon taxtini (1863–1865-yy.) egalladi. Xudoyorxon esa yana Buxoroga qochdi.

Xonlikdagi ichki nizolar tashqi dushmanlarga nihoyatda qo‘l kelgan edi. Bunday vaziyatdan unumli foydalangan Rossiya imperiyasi qo‘shinlari 1864-yilda Turkiston va Chimkentni bosib oldilar. 1865-yil bahorida ular Toshkentga yaqinlashib, Niyozbek qal‘asini egalladilar. Uzoq qamaldan so‘ng 17-iyunda Toshkent egallandi.

Xudoyorxon 1865-yilning yozida amir qo‘shinlari yordamida so‘nggi marta Qo‘qon taxtini qo‘lga kiritdi. Shundan so‘ng u amirning talablariga boshqa itoat etmay qo‘ydi. 1867-yil yanvar oyida Xudoyorxon Rossiya bilan savdo bitimini, 1868-yil 13-fevralda Qo‘qon va Rossiya shartnomasini imzoladi. Rossiya savdogarlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berildi. Natijada Qo‘qon xonligi amalda Rossiyaning vassaliga aylanib qoldi.

Xonlik hududida hukm surgan nisbiy osoyishtalik 1873-yilgacha davom etgan bo‘lsa ham, hukmdor, uning yaqinlari va mahalliy hokimlarning jabr-zulmi hamda qirg‘iz-qipchoqlarning qayta bosh ko‘tarishi natijasida bu yerlarda o‘zaro nizolar, xalq chiqishlari boshlandi. Xususan, 1873-yilda Po‘latxon (asli ismi Mulla Is‘hoq Hasan o‘g‘li) qirg‘izlar tomonidan xon qilib ko‘tarilib, u boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Saroydagi nufuzli amaldorlardan biri Abdurahmon oftobachi Xudoyorxonni taxtdan ag‘darish va uning o‘g‘li Sayid Nasriddinbekni xon taxtiga o‘tqazish maqsadida Po‘latxon bilan til biriktirdi va o‘rdada isyon ko‘tardi. Sayid Nasriddinbek Abdurahmon oftobachi ko‘magida xon deb (1875–1876-yy.) e‘lon qilindi. Xudoyorxon Nasriddinbek foydasiga taxtdan voz kechib, avval Xo‘jandga, undan Toshkentga qochdi.

Nasriddinbekning hokimiyat tepasiga kelishi ham mamlakatdagi siyosiy vaziyatning keskinligini bartaraf eta olmadi. Buni tushunib yetgan Abdurahmon oftobachi xonlik aholisini Rossiyaga qarshi kurashga safarbar qilmoqchi bo'ldi. Ammo Mahram yaqinidagi jangda ruslardan yengildi. Po'latxon ham ruslarga qarshi kurashish maqsadida Qo'qonga hujum qilmoqchi bo'lib turgan vaqtda, ya'ni 1875-yil 25-sentabrda Nasriddinxon Rossiya imperiyasi hukumati bilan bitim tuzdi. Bu xabar tezda butun Qo'qonga yoyilib, aholi yana isyon ko'tardi va o'rdaga hujum qildi. Nasriddinxon Xo'jandga qochdi. Marg'ilonda Rossiya imperiyasi askarlariga qarshi aholini safarbar qilayotgan Po'latxon qo'shiniga shaharliklar, madrasa talabalari va ko'chmanchi aholi vakillari kelib qo'shildi. Ularga qo'zg'olon vaqtida bosqinchilar bilan hamkorlik qilgan kishilar va xon oilasi vakillarini qatl etish buyurildi.

Bu paytda Namanganda bo'lgan Skobelev Rossiya imperiyasining topshirig'iga asosan 1876-yil fevralida Qo'qon xonligini butunlay bosib olishga kirishdi. Abdurahmon oftobachi va Po'latxon qo'lga olindi va 1876-yil 19-fevralda 150 yildan ko'proq hukm surgan Qo'qon xonligi tugatilib, hududlari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi va uning o'rniga Farg'ona viloyati tashkil etildi.

1.4. Markaziy Osiyoda Rossiya imperiyasining istilochilik siyosati

Rossiya imperiyasining Turkistonga bo'lgan qiziqishi bu o'lkadagi ko'plab yerosti boyliklarini o'zlashtirishga intilish bilan bog'liq edi. Tarixdan ma'lumki, Markaziy Osiyoning boy oltin konlari haqidagi xabarlar Rossiyada XVI asrdayoq ma'lum edi. Bu masalada Pyotr I tegishli harakatlarni amalga oshirgani ma'lum. Rossiya imperiyasi bosqinidan oldin Markaziy Osiyoga kelgan barcha rus ma'murlari, sayyohlari tabiiy boyliklarini o'rganishga urinishgan. Qator arxiv ma'lumotlari materiallarga ko'ra, Rossiyada Markaziy Osiyoning oltin konlari haqidagi xabarlar shunchalik ko'p tarqalgan ediki, rus bosqini davrida Rossiya armiyasi qo'shinlari bilan birga yerosti boyliklarini o'zlashtiruvchi mutaxassislar ham bu o'lkaga kirib keldilar. Ular orasida Xludov, Pervushin kabi yirik sanoatchilar ham bor edi.

Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishinishini tezlashtirgan

sabablardan yana biri – Rossiya bilan Angliya oʻrtasidagi siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlar boʻldi. XIX asr ikkinchi yarmining boshlarida Markaziy Osiyo xonliklarini bosib olish maqsadida Rossiya tomonidan olib borilayotgan siyosat Angliyaning bu borada uzoqni koʻzlab tuzgan rejalariga jiddiy xavf solar edi.

Xullas, yuqorida taʼkidlanganidek, Pyotr I davridayoq Rossiya imperiyasining Oʻrta Osiyo xonliklarini zabt etish gʻoyalari paydo boʻlgan, XIX asrning boshlaridan boshlab imperiya maʼmurlari bu gʻoyani amalga oshirish borasida dastlabki harakatlarini boshlagan edilar²². 1860-yillardan boshlab Rossiya imperiyasi Turkiston oʻlkasini bosib olish uchun jiddiy harbiy harakatlarni boshladi. Bu masala Imperator Aleksandr II (1855–1881-yy.) tomonidan 1859 va 1861-yillarda oʻtkazilgan imperiya siyosiy doiralari kengashlarida muhokama qilindi. Bu paytga kelib Rossiya imperiyasi harbiy vazirligida Markaziy Osiyo xonliklarining iqtisodiy, siyosiy va harbiy ahvoriga oid josuslik maʼlumotlari yetarli darajada toʻplanib boʻlgan edi. Imperiya bosh shtabi boshligʻi, general unvoniga koʻtarilgan graf N.Ignatevning oʻzbek xonliklarining haqiqiy ahvoli va ularni Rossiya nazoratiga olishni qanday amalga oshirish haqidagi axborotlari bu maʼlumotlar ichida ayniqsa ajralib turardi. Graf N.Ignatevning taklifiga koʻra, avvalo Qoʻqon xonligiga harbiy harakatlar boshlandi.

Qoʻqon xoni Sulton Sayidxon (1863–1865-yy.) va Amirlashkar Alimquli xonlikdagi barqarorlikni saqlash uchun ayrim choralar koʻrishga harakat qildilar. Xususan, xon qozoq biylariga murojaatnoma yoʻllab, ularni ittifoqqa chaqirgan boʻlsa, Alimqulining buyrugʻiga koʻra Nurmuhammad qoʻshbegi Avliyootaga borib, Talas daryosining yuqori oqimida istiqomat qiluvchi qirgʻiz sardorlarini tashqi dushmanga qarshi kurashda hamkorlik qilishga chaqirdi. Ammo bu harakatlarning barchasi zoe ketdi.

1860-yilning yozida Rossiya imperiyasining Qoʻqon xonligiga harbiy harakatlari jonlanib ketdi. Polkovnik Simmerman boshchiligidagi rus qoʻshinlari avval Toʻqmoq, soʻngra esa Pishpak (Bishkek) qalʼalarini kuch bilan egalladilar.

²² Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент., 2000,– Б. 43.

1864-yil may oyida Qo‘qon xonligi hududlariga sharq tomondan polkovnik M.M.Chernyaev, g‘arb tomonidan polkovnik Veryovkin boshchiligidagi imperiya qo‘shinlari bostirib kirdilar. M.Chernyaev qo‘shinlari Avliyoota shahrini qamal qildilar. Shahar hokimi Niyozali shaharni tashlab Turkiston tomonga qochib ketgan bo‘lishiga qaramay, Avliyoota aholisi o‘z tashabbusi bilan dushmanga qarshi mardonavor kurashdi. Ammo harbiy texnika va kuchlar teng emas edi. Shahar egallangach, M.Chernyaev uni talon-toroj qilishga buyruq berdi va general-mayor darajasiga ko‘tarildi. Veryovkin qo‘shinlari esa Turkiston shahrini egallab, Ahmad Yassaviy maqbarasini to‘pga tutdilar.

Turkiston va Avliyoota shaharlari bosib olingach, Qo‘qon xoni Sulton Sayidxon va Amirlashkar Alimquli Toshkentning Mingo‘rik mavzesida katta kuchlarni to‘plab, jangga tayyorlana boshladilar. Bu orada rus qo‘shinlari Chimkentga yurish boshladilar. Xonlik sarbozlari va rus qo‘shinlari bilan Chimkent uchun bo‘lgan jang 1864-yil 14-iyul tong saharda boshlandi. Manbalarga ko‘ra, shafqatsiz bo‘lgan ushbu jangda 12 mingga yaqin kishi halok bo‘lib, shtabs-kapitan Meyer va polkovnik M.Lerx boshchiligidagi rus qo‘shinlarining omon qolganlari Avliyoota va Turkiston tomon chekinishadi. G‘alaba qozongan Amirlashkar Alimquliga rus qo‘shinlari tomonidan sulh tuzish taklifi kiritiladi. Lashkarboshilar kengashida esa toshkentliklar ruslar bilan muzokara yuritishga qarshi chiqdilar va bu fikr ko‘pchilik tomonidan quvvatlandi.

Ural va Orenburg kazaklari hamda to‘pchilari bilan Sayramda birlashgan M.Chernyaev qo‘shinlari 1864-yilning 14-sentabrida Chimkentga ikkinchi marta yurish boshladi. Bu paytda Alimquli Xo‘jand va O‘ratepada Buxoro amiri qo‘shinlariga qarshi jang qilayotgan edi. M.Chernyaev bu safargi yurishida, 22 sentyabrda Chimkent shahrini egallashga muvaffaq bo‘ldi.

Shundan keyin M.Chernyaev Toshkent yurishini boshladi. 1864-yil kuzida yuz bergan ikki jangda rus qo‘shinlari muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Ammo general M.Chernyaev 1864–1865-yillarning qish mavsumini qattiq harbiy tayyorgarlik bilan o‘tkazdi. Uning qo‘shinlari Sibir va Orenburgdan yetib kelgan harbiy kuchlar bilan to‘ldirildi.

1865-yilning bahorida Toshkentga rus qo'shinlarining M.Chernyaev boshchiligidagi ikkinchi hujumi boshlandi. Alimquli katta qo'shin bilan Qo'qondan Toshkentga yetib keldi. May oyining boshlarida Toshkent uchun shiddatli janglar bo'lib, dastlab xonlik qo'shinlarining qo'li baland keldi. Ammo shunday keyin Alimqulining og'ir yarador bo'lishi va halok bo'lishi sababli qo'shin orasida parokandalik va sarosima boshlandi. Buning natijasida shahar himoyachilarining qarshiligi sindirilib, 1865-yil 15-iyun kuni Toshkent shahri M.Chernyaev qo'shinlari tomonidan zabt etildi. 17-iyunda esa yana qon to'kilishining oldini olish maqsadida muzokaralar boshlandi. M.Chernyaev Toshkent shahrining Hakimxo'ja qozikalon, Abdurahmon eshon, domla Solihbek Oxun singari nufuzli va obro'li kishilari bilan muzokara o'tkazib, "Toshkent shahri aholisi o'z ixtiyori bilan Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shildi", degan soxta ahdnomani to'ldirishga majbur qildi.

Toshkent bosib olingach, bu shahar Rossiya imperiyasining Turkiston masalasiga daxldor barcha siyosiy masalalarni hal qiladigan imperiya qarorgohiga aylanib bordi. 1865-yili o'sha paytgacha bosib olingan hududlarda markazi Toshkent shahri bo'lgan Turkiston viloyati tashkil qilindi.

1866-yili podsho Aleksandr II tomonidan Toshkentning Rossiya tasarrufiga olinganligi rasman e'lon qilindi. 1867-yil 14-iyulda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Birinchi general-gubernator etib K.P.Kaufman tayinlandi. Markazi Toshkent bo'lgan Sirdaryo viloyati, markazi Verniy (Almati) bo'lgan Yettisuv viloyatlari mazkur general-gubernatorlik tarkibiga kiritildi²³.

Toshkent istilosidan so'ng rus qo'shinlari Buxoro amirligini bo'ysundirish harakatiga tushdilar. Dastlabki yirik jang 1866-yil may oyida Chinoz va Xo'jand oralig'idagi Oqjar (uni Sassiqlik deb ham nomlashar edi) mavzeidagi Erjarda yuz berdi (bu jang "Maydayulg'un" jangi deb ham ataladi) va rus qo'shinlari foydasiga hal bo'ldi. Shu yili 24-mayda Xo'jand, 2-oktabrda O'ratepa, 18-oktabrda Jizzax ruslar tomonidan zabt etildi.

1868-yil 1-mayda Samarqand yonidagi Cho'ponota tepaliklarida buxorolik

²³ R.Shamsutdinov., Sh.Karimov. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. – Toshkent., "Sharq". 2010, – B. 163.

askarlar, xalq ko'ngillilari hamda imperiya qo'shinlari o'rtasida bo'lib o'tgan jangda Buxoro amiri qo'shini mag'lub bo'ldi va buning natijasida Samarqand ruslar tasarrufiga o'tdi. Samarqandning egallanishi amirlikni suvsiz qoldirish, uni qurg'oqchilikka mahkum etish uchun imkon berar edi ruslarga. Samarqanddan so'ng Urgut, Chelak, Kattaqo'rg'on va boshqa shaharlar ham ruslarga taslim bo'ldi.

Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1868-yil 1-iyunda Zirabuloqda bo'lib o'tdi. Bu jangda ham amir qo'shini mag'lubiyatga uchradi. 1868-yil 23-iyunda Amir Muzaffar Rossiya bilan sulh shartnomasiga imzo chekdi. Unga ko'ra amirlik o'z mustaqilligini yo'qotib, Rossiya imperiyasi protektoratini tan oldi. Imperiya tomonidan egallagan yerlar – O'ratepa, Xo'jand, Jizzax, Kattaqo'rg'on va Samarqand Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgani qayd qilindi. Amir 500.000 imperiya rubli (125.000 Buxoro tillasi) miqdorida tovon pulini to'lashga rozi bo'ldi. Bundan tashqari, amir imperiya fuqarolariga erkin savdo qilish, savdo agentliklarini tashkil etish, boj soliqlarini kamaytirish, imperiya fuqarolarining haq-huquqlari hamda mol-mulklari xavfsizligini ta'minlashga doir majburiyatlarni o'z bo'yniga oldi. 1868-yil 24-iyunda rasman Buxoro amirligi bilan urush tugaganligi e'lon qilindi. Bosib olingan yerlardan general-mayor A.K.Abramov boshchiligida Zarafshon okrugi tashqil etildi. U o'z navbatida 2 qismga: Kattaqo'rg'on va Samarqand bo'limlariga bo'lindi.

O'zbek xonliklarining uchinchisi – Xiva xonligini bo'ysundirishga 1872-yil oxirlarida harbiy vazir boshchiligida Peterburgda Turkiston hamda Orenburg general-gubernatorlari va Kavkazdagi podsho noibi ishtirokidagi maxfiy kengashda uzil-kesil qaror qilindi.

Xiva xoni harbiy kengash chaqirib, mudofaa rejalarini tuzadi va dushman istilochilariga qarshi o'zining lashkarboshilarini safarbar qiladi. Matmurod devonbegi, Mahmud yasovulboshi, Yoqubbek qalmoq, Eltuzar inoq va Bobo mehtar rahbarligidagi o'zbek va turkman yigitlari rus qo'shinlari hujumini qaytarish uchun ikki guruhga bo'linib yo'lga tushadilar. General N.A.Veryovkin Qo'ng'irotda yurish qilib, talafotlar berib bo'lsa-da, Xo'jayli va Mang'it qal'alarini

ishg'ol qildi. Keyinchalik Xorazmning qo'hna qal'asi Hazorasp egallandi. 1873-yil 29-may kuni ruslarning asosiy kuchlari Xiva ostonalarida paydo bo'ldilar. Muhammad Rahimxon II Xivani o'z ixtiyoridagi kuchlar bilan mudofaa qilib bo'lmasligiga ko'zi yetib, Izmixshir tarafidagi turkman ovuliga ketishga majbur bo'ldi.

K.P.Kaufmanning talabi bilan Muhammad Rahimhon Xivaga qaytib kelgach, 1873-yil 12-avgustda Gandimiyon qishlog'ida xon va K.P.Kaufman o'rtasida sulh shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi hududlar Rossiya ixtiyoriga o'tdi va Amudaryo bo'limiga birlashtirilib, To'rtko'l shag'ri uning ma'muriy markazi etib belgilandi. Bitimga bo'yicha rus kemalarining Amudaryo bo'ylab suzishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratildi, rus savdogarlari xonlik hududida erkin savdo qilish, Amudaryoning chap qirg'og'ida savdo omborlari qurish, Rossiya fuqarolari xonlikda ko'chmas mulk sotib olish huquqini oldilar. Xiva xonligi Rossiya vassaliga aylanib, xonlik zimmasiga 2.000.000 so'mlik tovon to'lash majburiyati yuklandi.

Rossiya imperiyaning Turkiston, Chimkent, Toshkent kabi shaharlarni bosib olishi busiz ham ichki ziddiyatlarga to'la bo'lgan Qo'qon xonligiga nihoyatda qattiq zarba bo'ldi. Chunki Qo'qon xonligining hududi asosan Farg'ona vodiysidan iborat bo'lib qolgan edi. Chegaralar qisqarilganligi tufayli xazinaga tushadigan daromad kamayib ketdi. Qo'qon xoni Xudoyorxon xazinani to'ldirish uchun soliqlarni keskin oshirib yubordi. Buning natijasi o'laroq 1868-yil 13-fevralda Xudoyorxon Turkiston general-gubernatorligi bilan xonlik o'rtasida tuzilgan adolatsiz shartnomani imzoladi. Imperiya hukumatining tazyiqlari bilan asosan rus savdogarlarining manfaatlarini ko'zlab tuzilgan bu shartnoma xonlik aholisida norozilik uyg'otdi.

Bu orada imperiya ma'murlari Qo'qon xonligini butunlay Rossiya tarkibiga qo'shib olish uchun jiddiy harakatlarni boshlab yubordilar. 1873–1876-yillarda Qo'qon xonligidagi ichki ziddiyatlarga barham berish, ko'tarilgan qo'zg'olonlarni bostirish bahonasida Rossiya harbiy qo'shinlari xonlik hududlariga kiritildi. Ma'lumki, 1873–1876-yillarda Qo'qon xonligi Po'latxon (Mulla Is'hoq Hasan

o'g'li) boshchiligidagi qo'zg'olonlar girdobida qolgan edi. Bunday vaziyatda xonlikdagi nufuzli amaldorlardan biri bo'lgan Abdurahmon oftobachi Xudoyorxonni taxtdan ag'darish va uning o'g'li Sayid Nasriddinbekni xon taxtiga o'tkazish maqsadida Po'latxon bilan til biriktirdi va isyon ko'tardi. Vaziyatdan qo'rqib ketgan Xudoyorxon Xo'jandga qochdi va Nasriddinbek foydasiga taxtdan voz kechdi.

Xudoyorxon 1875-yil iyul oyining oxirlarida Xo'jandga kelib, bu yerda 10 kun istiqomat qilgach, avgust oyining boshlarida uni Turkiston general-gubernatori Toshkentga chaqirdi. Toshkentga kelganidan so'ng Kaufman uning boyliklarini musodara qilib, o'zini Orenburgga surgun qiladi. Keyinchalik Xudoyorxon surgunlikdan qochib, Makkaga haj safari qilgan.

K.P.Kaufman 1875-yil 18-avgust kuni Toshkentdan Xo'jandga yetib kelib, rus qo'shinlarini shu yerda birlashtira boshladi. 1875-yilning 22-avgustida Xo'janddan Qo'qonga borish yo'lida joylashgan Mahram qal'asi (Sirdaryo bo'yida) yonida rus qo'shinlari bilan Abdurahmon oftobachi boshchiligidagi xonlik qo'shinlari o'rtasida shiddatli jang bo'ldi. Har ikkala tomondan ham ko'plab qurbonlar berilgan ushbu jangda Abdurahmon oftobachining qo'shinlari tor-mor etilib, uning o'zi Marg'ilon yaqinidagi Karpil mavzesiga qochib ketdi.

Xudoyorxonning vorisi Nasriddinxon Rossiya imperiyasi qo'shinlari va boshliqlarini Qo'qonda kutib olib, Rossiya imperiyasi hukumatini tan oldi. Nasriddinxon Marg'ilon hokimi Sultonmurodbek zimmasiga ruslar bilan bo'lgan urush jarimasi – 40 ming tilla tovon pulini yig'ib berish vazifasini yukladi. Sultonmurodbek Andijon va O'sh aholisidan ham jarima undira boshladi. Natijada xonlikning sharqiy hududlarida yashaydigan aholi Rossiya imperiyasi hukumatining ushbu siyosatiga qarshi isyon ko'tardi.

Po'latxon imperiya bosqinchilariga qarshi kurashish maqsadida katta kuch to'plab, Qo'qonga hujum qilmoqchi bo'lib turgan paytda, ya'ni 1875-yil 25-sentabrda Nasriddinxon Rossiya imperiyasi hukumati bilan bitim tuzdi. Bu xabar tezda butun Qo'qonga yoyilib, aholi yana isyon ko'tardi va xon o'rdasiga hujum qildi. Natijada chorasiz qolgan Nasriddinxon Xo'jandga qochdi. 1875-yil kuzida

Andijon ham rus qo'shinlari tomonidan ishg'ol etilib, hokim saroyi egallandi.

Abdurahmon oftobachi va Po'latxon shahar va qishloqlarga nomalar bilan chopar jo'natib, aholini rus bosqinchilariga qarshi kurash uchun birlashishga, Nasriddinxonni taxtdan ag'darishga chaqirdilar. 9-oktabrda Qo'qonda qo'zg'olonlar boshlanib ketganligi sababli Nasriddinxon poytxtdan qochib ketdi.

General M.D.Skobelev boshchiligidagi qo'shinlar 1875-yil 23-oktabrda Baliqchi va To'raqo'rg'onni egallab, 27-oktabrda Namanganni 26 ta to'p bilan o'qqa tutadilar. Qo'zg'olonchilar tor-mor etilib, ko'plab aholi haloq bo'ldi. 1876 yilning boshlarida Rossiya imperatori Aleksandr II ning maxsus buyrug'i asosida general Skobelev Qo'qon xonligini butunlay bosib olishga kirishdi. Imperiya qo'shinlari xonlik shahar va qishloqlariga yetib keldilar. Nasriddinxon qarshilik ko'rsata olmay, taslim bo'ldi. 8-fevralda rus qo'shinlari Qo'qon shahriga kirdilar.

M.D.Skobelevning hiylasi va mahalliy kishilar yordami bilan Abdurahmon oftobachi hamda Po'latxon Asaka va Andijon oralig'ida qo'lga olindilar. Po'latxonni qo'lga olishda yordam bergan xoinlar imperiya tomonidan mukofotlandilar. Po'latxon esa 1876-yil 1-martida Marg'ilonda dorga osildi. Shu tariqa, 1876-yil 19-fevralda 150 yildan ziyodroq hukm surgan Qo'qon xonligi butunlay bosib olinib, tugatildi. Uning o'rniga Farg'ona viloyati tashkil etilib, Skobelev yangi viloyatga harbiy gubernator etib tayinlandi. Qo'qon xonligiga qarashli yerlar Farg'ona viloyati tarkibiga kiritilib, faqat uning bir qismi Xo'jand uezdi sifatida Samarqand viloyatiga qo'shildi.

Rus istilochilariga qarshi kurashda ishtirok etgan Abdurahmon oftobachi Rossiyaning Yekaterinoslav, imperiyaga xayrixoh bo'lgan Nasriddinxon esa Vladimir guberniyasiga surgun qilindilar. Qo'qon shahrida olib borilgan harbiy harakatlar davomida xonlikning shayxulislomi va qozikaloni M.D.Skobelev tomonidan asir olindi. Ularning ikkalasi ham Vologodsk guberniyasiga surgun qilindilar.

1.5. Turkiston general gubernatorligida boshqaruv tizimi

Turkiston ma'muriyati imperiyaning boshqa o'lkalari boshqaruvidan o'zining keskin harbiylashgani bilan alohida ajralib turgan. Rossiya hukumatining

Turkiston o'lkasi uchun 1865–1916-yillar oralig'ida ishlab chiqqan hamda amalga tatbiq etilgan o'nta qonun loyihalari (1865, 1867, 1871, 1873, 1882, 1884, 1886, 1908, 1912, 1916-yillar)da va ularning moddalaridagi adliya, moliya, harbiy, ichki ishlar va boshqa vazirliklar kiritgan o'zgarishlarda ana shu holat o'z aksini topgan.

Toshkent shahri bosib olinganidan so'ng 1864–1865-yillarda bosib olingan hududlarda Orenburg general-gubernatorligi tarkibida (1865 y.) harbiylashgan ma'muriy boshqaruv tartiblariga asoslangan Turkiston viloyati tashkil etilib, unga general-mayor M.G.Chernyaev gubernator etib tayinlanadi. Turkiston viloyatini boshqarish uchun 1865-yil 6-avgustda “Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom” qabul qilinib, unga muvofiq harbiy va fuqarolik hokimiyati harbiy gubernator qo'lida bo'limlarga bo'linib, ularni bo'lim boshliqlari boshqargan. Bo'lim boshlig'i bir vaqtning o'zida bo'lim harbiy komendanti ham hisoblangan.

Turkiston viloyatining Orenburg general-gubernatorligi tarkibida bo'lishi vaqt o'tishi bilan turli muammolarni keltirib chiqargan edi. Shuning uchun imperiya hukmron doiralari o'rtasida Turkiston viloyatini Orenburg general-gubernatorligidan alohida ajratish masalasini kun tartibiga qo'yilgan edi. 1867 yilda Peterburgda Turkiston boshqaruvi bo'yicha tayyorlangan “Nizom” loyihasi maxsus komissiya tomonidan muhokama qilinib, unda Orenburg general-gubernatorligidan alohida bo'lgan Turkiston general-gubernatorligini tashkil qilish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi. 1867-yil 11-aprelda Aleksandr II tomonidan komissiya taklifi ma'qullanib, 11-iyulda Janubiy Qozog'iston va O'rta Osiyoning bosib olingan hududlarida Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilganligi to'g'risida farmon e'lon qilinadi. 14-iyulda birinchi general-gubernator qilib K.P. fon Kaufman tayinlandi.

Yangi tashkil etilgan ushbu ma'muriy birlik dastavval 2 ta – Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini o'z ichiga olgan edi. Imperiya hukumatining 1867-yilgi manifestiga ko'ra, Kaufmanga “o'lkani boshqarish uchun kerakli va zarur deb hisoblangan barcha tadbirlarni mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda amalga oshirish huquqi berilib, siyosiy, chegaraviy va savdo ishlarini hal

qilish, qo'shni mamlakatlarga ularning Rossiya bilan o'zaro aloqalariga tegishli muzokaralar olib borish va bitimlar imzolash, o'zaro kelishuvga erishish va qarorlar qabul qilish uchun ishonchli vakillarni jo'natishda cheklanmagan vakolatlar berildi”.

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoning bosib olingan hududlarida o'z hukmronligini saqlab qolish va uni mustahkamlashni birinchi darajali vazifa hisoblangani uchun ham boshqaruv sohasida dastlab katta o'zgarishlarni amalga oshirmagan. Yuqori organlar nazoratida bo'lgan quyi boshqaruv organlari, soliq tizimi saqlab qolingan. Quyi boshqaruvning dastlab saqlanib qolinishiga asosiy sabab shuki, mahalliy aholining ichki hayotiga dastlabki davrda keskin aralashish va aholining turmush tarziga katta o'zgarishlar kiritish salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Undan tashqari, yangi bosib olingan yerlarda hali qarshilik va norozilik harakatlari davom etayotganligi, boshqaruv tizimida faoliyat olib borayotgan o'z odamlari bo'lmaganligi, mahalliy sharoitni to'liq bilmaslik kabilar ham an'anaviy boshqaruv tizimini ma'lum muddat saqlab qolishga majbur qilgan.

Rossiya imperatori tomonidan “Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom” 1886-yil 12-iyunda tasdiqlangan bo'lsa-da, ma'muriy tizim bo'yicha e'tirozlar davom etdi. Ammo imperator Turkiston o'lkasida sobiq general-gubernatorlik boshqaruvining asosiy tamoyillarini saqlab qolgan holda, unga ba'zi o'zgarishlar kiritdi. Umuman olganda, Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasi hukmronlik qilgan yillarda qonun loyihalari doimo to'ldirilib, o'zgartirilib turildi.

Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo'yicha dasturiy hujjatlar ishlab chiqishda “harbiy vaziyat” omili hal qiluvchi bo'lgan. Bunday hujjatlar imperiyaning O'rta Osiyo xonliklarining yangidan-yangi hududlarini bosib olishi munosabati bilan vujudga kelgan va aynan shuning uchun ham doimo “muvaqqat” yoki “vaqtinchalik” xarakterga ega bo'lgan. Misol uchun, “Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini boshqarish to'g'risidagi Nizom” (1867-y.) “tajriba tariqasida” uch yil muddatga joriy qilingan bo'lib, 20 yil davomida amal qilgan.

Turkiston general-gubernatori o'z qo'lida harbiy va fuqarolik hokimiyatini birlashtirgan edi. U bir vaqtning o'zida podsho noibi, harbiy okrug qo'shinlari

qo'mondoni, Yettisuv kazak qo'shinlari atamani, bosh mirshab va bosh prokuror vazifalarini ham o'tagan. General-gubernator imperator tomonidan tayinlangan va vazifasidan ozod etilishi mumkin bo'lib, u harbiy vazirga bo'ysungan.

Turkiston general-gubernatorligi boshqaruv tizimi markaziy, viloyat, uezd (tuman), uchastka (volost), shahar, qishloq va ovul boshqaruvi shakllaridan iborat edi. General-gubernatorlik dastlabki tashkil etilgan paytda ikkita – markazi Toshkent bo'lgan Sirdaryo va markazi Verniy (Olmaota) bo'lgan Yettisuv viloyatlaridan iborat bo'lgan. Sirdaryo viloyati hududiga aosan ilgari Turkiston viloyatiga tegishli bo'lgan yerlar va Qo'qon xonligining bosib olingan shimoliy hududlari kirgan. Yettisuv viloyati esa Semipalatinsk viloyatining Sergiopol, Kopal va Alatavsk okrugi hududlari hamda Turkiston viloyatining bir qismidan iborat hududlarda tashkil etilgan²⁴.

Sirdaryo viloyati ma'muriy jihatdan Kazalinsk, Perovsk, Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Toshkent, Xo'jand, Jizzax uездlariga bo'lingan bo'lsa, Yettisuv viloyati Sergiopol, Kopal, Verniy, Issiqko'l va To'qmoq uездlariga bo'lingan. Rossiya hukumati yangidan bosib olingan yerlar hisobiga Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga qo'shimcha ma'muriy-hududiy birlik tashkil etib borgan. Jumladan, 1868-yilda Buxoro amirligiga qarashli bosib olingan yerlarda markazi Samarqand bo'lgan Zarafshon okrugi, Xiva xonligiga qarashli yerlarni bosib olish hisobiga 1874-yilda markazi Petro-Aleksandrovsk (To'rtko'l) bo'lgan Amudaryo bo'limi, 1876-yilda Qo'qon xonligi hududlarida markazi Yangi Marg'ilon (Skobelev, Farg'ona) bo'lgan Farg'ona viloyati tashkil etilgan edi.

Mahalliy boshqaruv ko'chmanchi aholini boshqarish va o'troq aholini boshqarishga bo'lingan. Har bir uездdagi ko'chmanchi aholi volostlarga, volostlar esa ovullarga bo'lingan. Volost (bo'lis)lar volost boshqaruvchilari, ovullar esa oqsoqollar tomonidan boshqarilgan. Viloyat boshqaruvchilari va unga nomzodlar harbiy gubernator tomonidan, ovul oqsoqoli va unga nomzodlar uезд boshlig'i tomonidan tayinlangan. Volost boshlig'i politsiya va ma'muriy hokimiyatni

²⁴ Эшов Б., Одилов А. Ўзбекистон тарихи (XIX асрнинг II ярми – 1989 йил, июнь). II жилд. Дарслик. – Тошкент, “Янги аср авлоди”. 2015, – Б. 148.

amalga oshirgan. O‘troq aholini boshqarish qishloqlarda ma‘muriy va politsiya vakolatlariga ega bo‘lgan oqsoqollar tomonidan amalga oshirilgan. O‘troq aholi uezdlarda volostlarga, volostlar esa qishloq jamoalari (oqsoqolliklar)ga bo‘lingan.

Turkiston general-gubernatori huzurida Kengash, maxsus topshiriqlarni bajarish uchun amaldorlar, tarjimon va devonxona mavjud bo‘lgan. Kengash vakolatlariga barcha qonunchilik masalalari, general-gubernator topshirgan vazifalarni ko‘rib chiqish kirgan.

Uezd boshqaruvi bo‘yicha Amudaryo bo‘limi alohida maqomga ega bo‘lgan. Amudaryo bo‘limi boshlig‘i uezd boshlig‘i maqomiga ega bo‘lib, ma‘muriy va politsiya boshqaruvi uning ixtiyorida bo‘lgan. Bo‘lim boshlig‘i huzurida yordamchi va devonxona mavjud bo‘lgan.

Mahalliy aholining sudlari alohida tartibga asosan tuzilib, xalq sudlari deb nomlangan. Xalq sudlari alohida rus sudlariga tegishli ishlardan tashqari sodir etilgan ishlarni, biror xalq sudiga tegishli bo‘lgan hamda rus hujjatlari asosida bo‘lmagan fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqqan. Xalq sudlari – xalq tomonidan saylanib qo‘yilgan biylar tomonidan amalga oshirilgan. Ular harbiy gubernator tomonidan tasdiqlangan. O‘troq aholi uchun qozi sudlari amal qilgan bo‘lib, ular aholi tomonidan saylangan hamda harbiy gubernator tomonidan tasdiqlangan²⁵.

Turkiston o‘lkasida viloyat va uezd (tuman) boshqarmalari shaharlarda joylashgan. Toshkent, Samarqand, Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilon, Namangan, Ashxobod, Chimkent, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on kabilar katta mavqega ega bo‘lgan asosiy shaharlar edi. Shaharlar ichida general-gubernatorlikning siyosiy, ma‘muriy va madaniy markazi bo‘lgan Toshkent shahriga alohida e‘tibor berilgan. Xususan, 1865-yilda general – mayor Romanovski rus zobitlari va amaldorlari uchun shaharning sharqiy qismidan joyni tanladi va qisqa muddat (1866–1868-yy.) rus aholisi yashaydigan “Yangi shahar” barpo etildi.

Rossiya imperiyasi ma‘murlari o‘zlarining Turkistondagi mustamlakachilikka asoslangan maqsadlarini keng qo‘lamda amalga oshirish

²⁵ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент., 2000, – В. 209.

uchun o'lkani ruslashtirish siyosatiga alohida e'tibor berganlar. Ma'lumotlarga ko'ra, Turkistonda ochilgan davlat muassasalari, sudlar, banklar va boshqa tashkilotlarda ish yuritish faqat rus tilida olib borilgan. Mahalliy aholi (asosan boylar, savdogarlar, qozilar va oqsoqollar)ning bolalarini rus tiliga o'rgatish uchun rus-tuzem maktablari ochilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad imperiya ma'muriyatiga sadoqatli amaldorlarni tayyorlash va kelajakda "siyosiy ahamiyatga ega bo'lmagan boshqaruv ishlarigagina mahalliy aholini jalb qilishdan" iborat edi.

Turkiston o'lkasida rusiyzabon aholiga ko'plab imtiyozlar berilgan bo'lib, bunday imtiyozlar mahalliy aholiga tegishli bo'lmagan. Rus mustamlakachilik tartiblari, idora uslubi va ruslashtirish siyosatidan.

1.6. Markaziy Osiyo xalqlarining milliy- ozodlik harakatlari

Turkistonda chorizmning siyosiy va iqtisodiy zulmiga qarshi harakatlar XIX asrning 70-yillaridan boshlandi. 1879-yilda 600 nafarga yaqin alomon harbiy gubernatordan Marg'ilon tumanidan olinayotgan soliqlarni kamaytirishni talab qildi. O'shanda viloyat harbiy gubernatori bevosita qurolli kuch ishlatishdan cho'chigan. Chunki, 1875–1876-yillarda ayni shu viloyatda boshlangan Po'latxon boshchiligidagi qo'zg'olon hamda Mingtepadagi 1878-yilgi Yetimxon boshchiligidagi g'alayon ruslarni chinakamiga tashvishga solgani esidan chiqmagan edi. 1880–1883-yillarda mustamlakachilik zulmiga qarshi qator chiqishlar bo'lib o'tdi. Xo'jand, O'ratepa, Namangan, O'sh va Chustda ko'tarilgan qo'zg'olonlar bunga misol bo'la oladi. Manbalarda 1885–1892-yillarda Farg'ona viloyatida xalqning 205 marta siyosiy chiqishlari, harakatlari ko'tarilgani qayd etilgan. 1892-yilning yozida Turkiston markazi Toshkentda rus mustamlakachilarini talvasaga solgan va tarixga "vabo isyoni" yoki "toshotar voqeasi" sifatida kirgan qo'zg'olon bo'ldi. Iyun oyida Toshkentda vabo tarqaldi. Shahar ma'muriyati shoshilinch choralar ko'rdi. Vabo kasali bilan o'lganlarni shahar ichkarisidagi 12 ta qabristonga ko'mish man etildi, shahar tashqarisida 4 ta yangi qabriston ochiladi, deb e'lon qilindi. Shahardan chiqish va kirish nazorat ostiga olindi. Shaharda vabo kasaliga chalinganlar yo'q qilinar ekan, degan mish-mishlar tarqaldi. Mustamlaka ma'muriyati tibbiyot nuqtai nazaridan to'g'ri bo'lgan bu

tadbirlar haqida aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib bormadi, musulmonchilik odatlari, marosim, qonun-qoidalarini hisobga olmadi. Va'da qilingan 4 ta yangi qabriston o'rniga faqat bittasi ochildi. Boshqa kasallik bilan o'lganlarni shahar ichkarisidagi qabristonlarga ko'mish ishlarini rasmiylashtirish ham cho'zilib ketdi, suiiste'molliklar kuchaydi. Odamlar noiloj o'liklarni eski qabristonlarga olib borib ko'mishga majbur bo'ldi. Politsiya bundaylarni topib hibsga ola boshladi. Qabristonni ochib, o'lganlarning ruhi haqorat qilindi. Shaharning eng taniqli kishilaridan hisoblanmish Azizyor Eshon, Abulqosimxo'ja, bozor oqsoqoli Ziyomuhammad va boshqa kishilar boshchiligidagi mingga yaqin kishi shahar boshlig'i mahkamasi tomon yo'l oldilar. Ularga hokim to'ra shahar boshlig'i polkovnik S.R.Putintsev va eski shahar oqsoqoli Muhammad Yoqub to'qnash kelishdi. Qamchisini o'ynatib kelgan oqsoqol xalqning so'zlarini, arz dodini tinglash o'rniga unga dag'dag'a qila boshladi. Xalq uning boshiga toshlar yog'dirdi.

Mashhur "Toshotar" voqeasi boshlanib ketdi. Qurollangan soldatlar yetib kelgach, xalq ayamay o'qqa tutildi. Natijada, ko'p kishi halok bo'ldi va yaralandi. O'lganlar va yaradorlarning miqdori haqida aniq ma'lumotlar saqlanmagan. Chunki xalqning o'zi jasadlarni va yaradorlarni o'zlari bilan olib ketishdi. Keyingi kunlari Anhordan topilgan mayitlar soni 80 taga yetgan. Qo'lga olingan 60 kishi turli muddatlarga qamoq jazosi va surgunga hukm qilindilar. Mustamlakachilarning zo'ravonligi xalqning ozodlik harakatini to'xtatib qololmadi.

Turkistonda ko'tarilgan ozodlik harakatining eng yirigi 1898-yilgi Andijon qo'zg'olonidir. Qo'zg'olonga Andijon yaqinidagi Mingtepa qishlo-g'ida yashovchi Muhammad Ali Eshon boshchilik qildi. 1898-yil 17-may kuni bir guruh kishilar Muhammad Ali Eshonni oq kigizga o'tqazib, xon deb ko'tardilar, xaloyiqni qo'zg'olonga da'vat qildilar. Shu kuni xufton pay-tida har kim qo'lga tushgan narsani olib Andijon shahriga jo'nadilar. Qo'zg'olonchilar Andijondagi mustamlakachilarning harbiy garnizoniga bostirib kiradi va kazarmaning piramidalarida turgan 30 ga yaqin miltiq-ni o'lja qilib olib, birinchi qatordagi

soldatlar ustiga tashlanishadi. Ularga ichkaridagi soldatlar qarshilik ko'rsatadilar. Chorak soat davom etgan otishmadan so'ng qo'zg'olonchilar to'rtta o'lgan sheriklarini tashlab chekinadilar. Harbiy garnizondagilardan 23 kishi halok bo'ladi, 24 tasi yarador bo'ladi.

Harbiy qo'shinlar shaharni o'rab olib, qo'zg'olonni harbiy kuch bilan shafqatsizlarcha bostiradi. Mustamlakachilar Muhammad Ali Eshonni tutish uchun Mingtepaga yurdilar, yo'lda duch kelgan kishini otib o'ldirib Mingtepaga bostirib kirdilar, uch soatcha otishma va tintuv o'tkazdilar. Nihoyat, Eshon Arslonbob yaqinidagi Toshko'prikda qo'lga tushirildi. Eshon va uning muridlari, tanish-bilishlari, maslakdoshlariga nisbatan dahshatli qatag'on uyushtirildi. Dukchi Eshon osib o'ldirildi, uning 45 nafar yordamchilari qatl etildi, 208 kishi Sibirga surgun qilindi.

Birinchi jahon urushi unda ishtirok etayotgan Rossiya imperiyasini tobora holdan toydirmoqda edi. Rossiyaning o'n minglab askarlari jangda qurbon bo'ldilar. Talvasaga tushgan Rossiya Oliy Bosh qo'mondon shtabi harbiy vazirlikdan "armiya ehtiyojlari uchun salmoqli miqdorda kuch ajratishni" zudlik bilan talab qildi. Bu kuchni harbiy vazirlik mustamlakalardan to'plashga umid bog'ladi. Natijada, Rossiya imperatori Nikolay II 1916-yil 25-iyunda Turkiston, Sibir va Kavkazdagi 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklarni front orqasidagi xizmatlar uchun safarbar qilish to'g'risida farmon chiqardi. 1916-yildagi qo'zg'olonning eng kuchli nuqtasi Jizzax qo'zg'oloni bo'ldi. Jizzax shahri aholisi 13 iyul kuni safarbarlikka chaqirilgan ro'yxatni talab qilib oqsoqol va mingboshi mahkamasiga to'plandilar. Oqsoqolni o'ldirib, mingboshi mahkamasini vayron qildilar, ro'yxatni topib olib yondirib tashladilar. Qo'zg'olonni bostirishga yetib kelgan jazo otryadi katta zarbaga uchradi. Qo'zg'olonchilar safi kengayib bordi. 18 iyul kuni Nazirxo'ja Eshon boshchiligida yangi shaharga tomon yurdilar. Jazo otryadi bilan qo'zg'olonchilar o'rtasida bo'lgan to'qnashuvda ikkala tomondan ham qurbonlar bo'ldi.

1916-yilgi Qo'zg'olon butun Turkistonga yoyildi, dehqonlar va kambag'allar qo'zg'olonni harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'ldi Qo'zg'olon

bosti-rilgan bo'lsa-da, mustamlakachilar ham anchagina kuchlaridan ajraldilar. Shuning uchun ham, 1916-yil 13-dekabrda IV Davlat Dumasida so'zga chiqqan noib A.F.Kerenskiy "Urush frontlariga yangi bir front – Turkiston fronti qo'shildi", - deb vaziyatga jiddiy va xolis baho bergan edi.

1.7. Markaziy Osiyo hududida sovet hokimiyatining o'rnatilishi va unga qarshi qurolli harakatlar

Rossiya poytaxti Petrogradga 1917-yil 24–25-oktabrda davlat to'ntarilishi sodir bo'ldi. Uni Lenin boshchiligida bolsheviklar partiyasi zo'rlik bilan amalga oshirdi. 1917-yil 25-oktabrda bolsheviklar tomonidan Petrogradga Butunrossiya Sovetlarining II qurultoyi chaqirilib, unda Lenin boshliq Sovet hukumati – Xalq Komissarlari Soveti tuzildi. Sulh va Yer to'g'risida dekretlar qabul qilindi. Sovet hukumati nafaqat Markazda, balki shu bilan birga sobiq Chor Rossiyasi tasarrufidagi barcha hududlarda ham o'z hokimiyatini o'rnatish harakatida bo'ldilar.

Bolsheviklar Markazda siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritgach, Turkistonda ham sovet hokimiyatini qaror toptirishga intildilar. Turkistonda sho'rolar hokimiyatini o'rnatish g'oyatda murakkab jarayonda kechdi. Buning boisi, avvalo, oktabr g'oyalarining mahalliy tub joy aholining dili va shuuriga botmaganligidadir. Mahalliy tub yerli aholi tabiiy ravishda oktabr g'oyalarini qabul qilmadi va unga moyillik ko'rsatmadi. Biroq begona maslak va g'oyalar bolsheviklar partiyasi va uning Turkistondagi yalovbardorlari tomonidan kuch va zo'rlik bilan o'lka xalqlariga majburan tiqishtirildi. 1917 yil 15–22 noyabrda Toshkent shaharda bo'lib o'tgan ishchi soldat va dehqon deputatlarining III–o'lka s'ezdida 15 kishidan iborat Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tuzildi²⁶.

Toshkentda faoliyat ko'rsatayotgan, asosiy tarkibi yevropalik aholi vakillaridan iborat harbiy qismlar, ishchi otryadlari mahalliy bolshevistik tashkilotlar boshchiligida qurolli qo'zg'olon yo'li bilan sovet hokimiyatini qaror toptirishga kirishdilar. Bolshevik V.S.Lapin boshchiligida inqilobiy qo'mita tuzildi va qo'zg'olon boshlandi. 1917-yil 27-oktabr oqshomida Toshkentda boshlangan

²⁶ R.Shamsutdinov, H.Mo'minov. O'zbekiston tarixi. – Toshkent., "Ochun". 2021, – B. 211.

qo'zg'olon natijasida 1-noyabrga kelib Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo'mitasi ag'darildi. General Korovichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo'mitasi a'zolari qamoqqa olindi. Toshkentda Sovet hokimiyati o'rnatildi. Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatini o'rnatish jarayoni qonli, fojiali voqealar bilan bog'liq holda kechdi. Jumladan, Farg'ona viloyatida sovet hokimiyatini o'rnatish jarayonida, Marg'ilonda 7 ming, Andijonda 6 ming, Namanganda 2 ming begunoh kishilar qirg'in qilindi. Samarqand, Kattaqo'rg'on, Yangi Buxoro, Termiz va boshqa shaharlarda ham sovet hokimiyati o'rnatildi.

Turkistonda sovet hokimiyati organlarini tuzish vaqtida ham bolshevik yo'lboshchilarning ulug'davlatchilik va shovinistik siyosati to'la kuch bilan namoyon bo'ldi. 1917-yil 15–22-noyabr kunlari Toshkentda Turkiston ishchi, askar va dehqon deputatlari sovetlarining III O'lka qurultoyi hokimiyat masalasini o'zboshimchalik va biryoqlamalik bilan hal etdi. Unda bolshevik Kolesov boshchiligida Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tuziladi. Uning tarkibiga 7 bolshevik va 8 ta so'l eser vakillar kiritildi. Uning tarkibiga butun o'lka aholisining 95 foyizini tashkil etuvchi yerli millat aholisidan esa birorta ham vakil kiritilmadi.

Vaholanki, rahnamosi Lenin imzo chekkan “Rossiya xalqlari huquqlari Deklaratsiyasi”, “Ezilgan va ekspluatatsiya qilinuvchi xalq huquqlari Deklaratsiyasi”, “Rossiya va Sharq musulmonlariga” xitobnomasi hamda boshqa hujjatlarda millatlarning ozodligi, erki, huquqlari rasman e'tirof etilgan edi. Amalda esa ulug' davlatchilik siyosati yuritildi. Sovetlar mahalliy aholining asriy orzularini ro'yobga chiqarishni emas, balki aksincha uni har sohada kamsitish, milliy va diniy qadriyatlarini tahqirlash yo'lidan bordilar. Sovet hokimiyatining mahalliy aholining xususiy mulklarini tortib olish, hamma narsani Sovetlar manfaatlari yo'lida umumlashtirish yo'lida amalga oshirgan g'ayritabiiy faoliyati pirovard oqibatda o'lka halqlarining keskin norozilik harakatlarining kuchaya borishiga sabab bo'ldi.

1917-yil oktabr to'ntarishidan keyin Turkiston 2 yil davomida Rossiyaning siyosiy markazidan uzilib qoldi. Bu davrda Turkistonda ikki hokimlik vujudga keldi. Toshkentda ruslar hokimiyati, Qo'qonda esa jadidlar Milliy muxtoriyat e'lon

qildilar. Turkistondagi sovet hukumatining birinchi boshlig'i (raisi) lavozimini F.Kolesov egalladi. Turkiston XKS 1917 yil 28 noyabrda o'lkada qizil gvardiya bo'limlarini tuzish haqida qaror qabul qildi. 1917 yil 26–28 noyabrda Qo'qon shahrida Turkiston o'lkasi musulmonlarining favqulodda IV–qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy 28 noyabr kuni “Turkiston muxtoriyati” tashkil topganligini e'lon qildi²⁷. Qurultoy jarayonida Turkiston Millat majlisi 54 kishidan iborat qilib saylandi, shunday 2/3 qismi, ya'ni 36 nafari mahalliy aholidan edi. Sovet hukumati tomonidan 1918 yil fevralida Turkiston Muxtoriyati va Qo'qon shahri aholisini qonga botirildi. Turkiston Muhtoriyati atigi 72 kun yashadi xolos. Bolsheviklar milliy muxtoriyatni yo'q qildilar, aholini ayovsiz qirg'in qilib, shaharga o't qo'ydilar. Shundan keyin jadidlarning siyosiy faolligi sustlashdi. Ularning ba'zilari chet ellarga ketdilar, ba'zilari esa maxfiy faoliyat olib bordilar. Ayrim jadidlar “qizil ruslar”, ya'ni bolsheviklar bilan hamkorlik qilish yo'liga o'tdilar, va ular bilan til biriktirib, kommunistik shiorlar ostida islom ulamolariga qarshi kurash olib bordilar. Ularning asosiy faoliyati Toshkentda o'tdi. Ba'zi jadidlar mahalliy hokimiyat organlariga ishga qabul qilinib, u yerda o'z g'oyalarini amalga oshirish yo'llarini qidira boshladilar.

1920 yil 25 avgustda Turkiston fronti qo'mondoni M.V.Frunze qizil askarlarga Buxoroni bosib olish uchun buyruq berdi. Keskin janglardan so'ng, 2 sentyabrda Buxoro shahri bosib olinib, amir hokimiyati ag'darib tashlandi. 1920 yil 14 sentyabrda Umumbuxoro inqilob komiteti va Respublika hukumati – Xalq Nozirlari Soveti, Buxoro Kompartiyasi MK tuzildi. Buxoro Xalq Nozirlar Soveti mamlakatni boshqarish maqsadida tuzilgan edi. 6–8 oktyabr kunlari bo'lib 72 Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент., 2000, 74–бет. 73 Эшов Б., Одилов А. Ўзбекистон тарихи (XIX асрнинг II ярми – 1989 йил, июнь). II жилд. Дарслик. – Тошкент., “Янги аср авлоди”. 2015, 266–бет. 74 R.Shamsutdinov., Sh.Karimov. Vatan tarixi (O'zbekiston sovet mustamlakchiligi davrida). Uchinchi

²⁷ Эшов Б., Одилов А. Ўзбекистон тарихи (XIX асрнинг II ярми – 1989 йил, июнь). II жилд. Дарслик. – Тошкент., “Янги аср авлоди”. 2015,– Б. 259.

kitob. – Toshkent., “Sharq”. 2010, 102,106–betlar. 65 o‘tgan xalq vakillarining I–umumbuxoro qurultoyida Buxoroni Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) deb e‘lon qilindi²⁸. 1920 yil oktyabr–noyabr oylarida BXSR bilan RSFSR o‘rtasida muvaqqat harbiy–siyosiy ahdlashuv va shartnoma tuzildi. 1921 yil 4 martda har ikki davlat o‘rtasida ittifoq shartnomasi imzolandi. Ittifoq shartnomasi mustaqil Buxoro davlati hududida sovet qo‘shinlari turishini “qonuniy” asoslab berdi⁷⁶. Ushbu shartnomalar mustaqil siyosat yuritishga harakat qilayotgan yosh Buxoro davlati arboblari faoliyatini muayyan darajada cheklashga olib keldi. 1921 yil 18–23 sentyabrda bo‘lgan Butun Buxoro xalq vakillarining II qurultoyida BXSR Konstitusiyasi qabul qilindi. 1923 yil 11–17 oktyabrda bo‘lgan Butun Buxoro xalq vakillarining IV qurultoyi Konstitusiyani o‘zgartirish to‘g‘risidagi qarorni tasdiqladi. 1924 yil 18–20 sentyabrda bo‘lib o‘tgan Butun Buxoro xalq vakillarining V qurultoyida BXSR Buxoro Sovet Sosialistik Respublikasi (BSSR)ga aylantirildi.

1920 yil 1 fevralda sovet qo‘shinlari Xiva shahriga kirib bordi. 2 fevral kuni so‘nggi Xiva xoni Sayid Abdullaxon taxtdan voz kechdi. 26–30 aprel kunlari Xorazm mehnatkashlarining birinchi qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilganligi e‘lon qilindi. Polvonniyoz Hoji Yusupov raisligida Xalq Nozirlar Soveti tuzildi⁷⁷. Mazkur qurultoyda XXSRning Kostitutsiyasini ham qabul qilindi. 1920 yil 13–sentyabrda RSFSR bilan XXSR o‘rtasidagi iqtisodiy–siyosiy shartnoma imzolandi. Sovet Rossiyasining ko‘rsatmalari asosida 1923 yil yoz–kuzida Xorazm respublikasida tub siyosiy to‘ntarish amalga oshirildi. 1923 yil oktyabrda XXSR Xorazm Sovet Sosialistik Respublikasi (XSSR)ga aylantirildi²⁹.

1920-yil 8-martda RKP(b) MK Turkiston Avtonomiyasi va partiya qurilishi haqidagi qarorni qabul qildi. Natijada “Turkiston turkiy xalqlarining kommunistik partiyasi va Turk Respublikasi tuzish” haqidagi qaror RKP(b) MK tomonidan noqonuniy ravishda rad qilinadi. “Turkiston Avtonomiyasi to‘g‘risidagi Nizom” deb nomlangan RKP(b) MKning ushbu qarorida federal hukumat organlari bo‘lgan

²⁸ Эшов Б., Одилов А. Ўзбекистон тарихи (XIX асрнинг II ярми – 1989 йил, июнь). II жилд. Дарслик. – Тошкент., “Янги аср авлоди”. 2015, –Б. 266.

²⁹ R.Shamsutdinov, H.Mo‘minov. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent., “Ochun”. 2021,– B. 213.

mudofaa, tashqi aloqalar, temir yo‘l, pochta va telegraf aloqasi, moliya ishlarini Butunrossiya miqyosida markazlashtirish uqtirildi.

Turkiston ASSR MIK raisi Turar Risqulov boshchiligidagi Turkiston delegatsiyasi RKP(b) MKning bu qaroriga norozilik bildirib, “Turkistonda davlat qurilishi to‘g‘risidagi Nizom” loyihasini himoya qilish uchun 1920-yil 17-mayda Moskvaga yetib bordi. T.Risqulov o‘sha kuniyoq partiya MKga ushbu hujjat matnini topshiradi.

Moskvada bo‘lgan chog‘ida T.Risqulov Turkistonni O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston va Qirg‘iziston qilib bo‘lib tashlashga qarshi chiqdi va o‘zbek, turkman, qozoq, qirg‘izlarni yagona turkiy xalq ekanligini isbotlashga harakat qildi. T.Risqulovning fikricha, “Turk Sovet Respublikasi” Turkiston, Tatariston, Boshqirdistondagi barcha xalqlarni hamda Buxoro amirligi va Xiva xonligida monarxiya tuzumi ag‘darilgach, kelajakda u yerdagi xalqlarni ham birlashtirishi kerak edi.

V.I.Lenin mazkur hujjat bilan 25-mayda tanishib chiqadi va unga “Arxivga, Turkiston to‘g‘risidagi” deb yozib qo‘yadi. U turkistonliklarning ushbu Nizom loyihasi bilan sinchiklab tanishib chiqqach, uni partiyaning milliy siyosatiga zid deb qat’iyan rad qiladi. V.I.Leninning mulohazalari va maxsus tuzilgan komissiyaning loyihasi Markaziy Komitet Siyosiy byurosining 1920-yil 29-iyunda “RKP(b) MKning Turkistondagi asosiy vazifalari to‘g‘risida” degan umumiy nom bilan qabul qilgan to‘rtta qaroriga asos qilib olindi. RKP(b) MK qarorida tashqi savdo, tashqi aloqa, harbiy masalalar RSFSR tasarrufidagi sohalar ekanligi ta’kidlandi.

T.Risqulov va uning tarafdorlari 1920-yil 18-iyulda Turkiston Kompartiyasi O‘lka Komiteti va Turkiston MIK tarkibidan chiqqanliklarini e’lon qilishdi. T.Risqulov Turkiston ASSR MIK raisi lavozimidan iste’foga chiqdi. Bu hodisa Turkistonning, hatto O‘zbekiston SSRning sovet davridagi tarixida respublika rahbarining yagona iste’fosi sifatida tarixga kirgan. 1920-yil boshlarida Turkiston komissiyasi Turkiston ASSRni milliy til belgisiga qarab bo‘lib tashlash masalasini qo‘ygan edi. Turkiston Komissiyasining bu tezislariga qarshi chiqqan T. Risqulov,

N. Xo‘jayev va boshqa milliy yetakchilar ”panturkizm”, “panislomizm”, “burjua millatchiligi” va “o‘ng og‘machilik”da ayblandi.

V.I.Lenin 1920-yil may oyida Turkistonning O‘zbekiya, Kirgiziya, Turkmeniyaga bo‘lingan xaritasini (etnografik va hokazo xaritasini) tuzishni mutasaddi shaxslarga topshirgan. Shuning uchun 1920-yil avgustda Turkiston ASSRning Yettisuv viloyati, Sirdaryo va Zakaspiy viloyatlarining bir qismi RSFSR tarkibidagi yangi tashkil qilingan Qirg‘iziston ASSR (aslida Qozog‘iston ASSR) ixtiyoriga berilgan.

1920–1924-yillarda mustaqil Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarining mavjud bo‘lib turishi Markazning vaqtinchalik murosa yo‘lini tanlaganligidan boshqa narsa emas edi. Aslini olganda Sovet hukumatining rahbari V.I.Lenin sovet respublikalari asosida SSSRni tashkil qilish prinsiplari to‘g‘risida 1922-yil kuzida to‘xtalar ekan, “qo‘shilishdan oldin ajralish kerak”, deb masalani aniq qo‘ygan edi.

Xullas, Turkiston mintaqasini milliy-hududiy jihatdan qayta chegaralash Markaz va RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi tomonidan ishlab chiqildi va 1924 yilda u o‘zining so‘nggi bosqichiga kirdi.

1924-yil 12-iyunda RKP(b) MK Siyosiy byurosi O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish to‘g‘risida maxsus qaror qabul qilgach, 15-iyulda RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi yangi tashkil etiladigan milliy respublikalar va oblastlarning muvaqqat byurosini tashkil etdi. Hududiy komissiya tarkibiga F. Xo‘jayev, A. Rahimboyev, S. Xo‘janov, Q. Otaboyev, R. Islomov, N. Aytoqov, Abdurahmonov, I. Aydarbekov, I. Vareykis, D. Manjara, I. Mejlaux, X. Saxatmuratov va boshqa siyosiy arboblarni kirgan edi³⁰.

1924-yil 16-sentabrda Turkiston ASSRning navbatdan tashqari sessiyasi, 20-sentabrda Butunbuxoro xalq vakillarining 5-qurultoyi, 2-oktabrda Butunxorazm xalq vakillarining 5-qurultoyi bu masalani ko‘rib chiqib, O‘rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishi to‘g‘risida qaror qabul qildilar. Mazkur qarorlarda o‘zbek va turkman xalqlariga O‘zbekiston SSR va Turkmaniston SSR tuzish huquqi,

³⁰ Эшов Б., Одилов А. Ўзбекистон тарихи (XIX асрнинг II ярми – 1989 йил, июнь). II жилд. Дарслик. – Тошкент, “Янги аср авлоди”. 2015. – Б. 308-318.

Turkiston ASSRning qirg'iz (aslida qozoq) viloyatlarini 1920-yilda tashkil qilingan Qirg'iziston ASSR (aslida Qozog'iston ASSR) bilan birlashtirish maqsadida qirg'iz (aslida qozoq) xalqiga Turkiston ASSRdan chiqish huquqi, qora qirg'iz (aslida qirg'iz) xalqiga Turkiston ASSRdan chiqish huquqi va Qora Qirg'iz (aslida Qirg'iz) avtonom oblastini tashkil etish huquqi, tojik xalqiga ham Turkiston ASSRdan chiqib, Tojikiston avtonom oblastini tashkil etish huquqi berilishi kerakligi ta'kidlandi.

RSFSR Markaziy Ijroiya Komitetining 2-sessiyasi (1924-yil 14-oktabr) O'rta Osiyodagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalari o'rnida O'zbekiston SSR (O'zSSR) va Turkmaniston SSR, shuningdek, Tojikiston ASSR (O'zSSR tarkibida), Qoraqalpoq va Qoraqirg'iz (Qirg'iz) avtonom oblastlari tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi³¹.

1924-yil 18-noyabrda Turkiston ASSR, Buxoro SSR va Xorazm SSR MIKlari maxsus qo'shma qaror qabul qildilar va shu qarorga binoan o'z vakolatlarini O'zbekiston SSR sovetlarining ta'sis qurultoyiga qadar ish ko'ruvchi F. Xo'jayev raisligida 31-oktabrda tashkil qilingan O'zbekiston SSR Muvaqqat inqilobiy komitetiga topshirdilar. Bu komitet O'zbekiston SSR tuzilishini boshqarib bordi.

1925-yil 13-fevralda Buxoroda maxsus qurilgan Xalq uyida O'zbekiston SSR sovetlarining 1-qurultoyi ochildi. Qurultoy 17 fevralda "O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to'g'risida deklaratsiya" qabul qildi. Ko'p o'tmay O'zSSR SSSR tarkibiga qabul qilindi (1925 yil 13-may). O'zSSR tarkibida 1929 yilgacha Tojikiston ASSR ham bo'lgan.

Qoraqalpoq avtonom oblasti (1925-yil 16-fevraldan) tuzilib, u dastlab Qozog'iston ASSR tarkibiga kirgan. Keyinchalik Qoraqalpoq avtonom oblasti (1932-yil RSFSR tarkibiga, 1936-yildan O'zbekiston SSR tarkibida) Qoraqalpog'iston ASSR qilib qayta tuzildi.

O'rta Osiyoni milliy-hududiy jihatdan alohida respublikalarga bo'lib

³¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мушамлакачилиги даврида. – Тошкент., 2000. – Б. 297.

tashlash masalasi bir necha bor Markazda, Turkiston, Buxoro, Xorazm Respublikalarida, ularning kompartiyalari plenumlarida, shuningdek, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi organ — RKP(b) MK Oʻrta Osiyo byurosi plenumlarida muhokama etilib, mahalliy xalqqa taʼsir va tazyiqlar oʻtkazib borilgan. Vazifasi Markazning irodasini bajarish boʻlgan Turkiston ishlari boʻyicha maxsus komissiya – Turkkomissiya zimmasiga oʻlkada milliy-hududiy chegaralanishni oʻtkazish va shu asosda bu hududda bir qator sovet respublikalarini tashkil qilish vazifasi yuklangan edi. RKP(b) Markaziy qoʻmita kotibi Y.E. Rudzutak bu masalaga bosh mutasaddi etib belgilangan edi.

Milliy-hududiy chegaralanish masalasi 1924-yil 5-aprelda RKP(b) MK Siyosiy byurosida, 11-mayda RKP(b) MK Oʻrta Osiyo byurosi komissiyasida koʻrib chiqildi. Unda Oʻrta Osiyo respublikalarida milliy chegaralanish loyihasini tayyorlovchi maxsus komissiya tuzildi. Loyiha RKP(b) MK Oʻrta Osiyo byurosining 1924-yil 2-iyundagi yigʻilishida muhokama etilib, asosan maʼqullandi. Bundan norozi boʻlgan mahalliy aholi vakillari, xususan, Xorazm Respublikasining bir guruh masʼul xodimlari, chunonchi, XKP MK kotibi Odinayev, ichki ishlar noziri Abdusalomov, Yoqubov, Turkiston va Buxoro vakillari: Sultonbek Xoʻjanov, Sanjar Asfandiyorov va boshqalar yagona Turkistonni boʻlib tashlash maqsadga muvofiq emas, deb eʼtiroz bildirdilar. Ular Turkiston xalqlari birligini saqlab qolishga qaratilgan “Oʻrta Osiyo federatsiyasi”ni tuzish toʻgʻrisida taklif kiritdilar.

1924-yil 8-mayda RKP(b) Markaziy Qoʻmitasiga “Xorazmda milliy masalani hal etish toʻgʻrisida xat” kelib tushadi. Bu xatda ham Xorazm Respublikasini boʻlib yuborish maqsadga muvofiq emas, deyilgan edi. Biroq mahalliy xalqlarning talab va takliflari inobatga olinmadi. Aksincha, 1924-yil 12-iyunda RKP(b) MK Siyosiy byurosi “Oʻrta Osiyo respublikalarini milliy chegaralash toʻgʻrisida”gi masalaga yana qaytib, uni oʻtkazish toʻgʻrisida qaror qabul qiladi. Munozaralar tobora qizib borganligi sababli vaqtincha Xorazm Respublikasida milliy-hududiy chegaralanishni toʻxtatib turishga qaror qilindi.

Bu borada Xorazm kompartiyasi va hukumati rahbarlariga har tomonlama ta'sir o'tkazib borildi. Ularning ko'pchiligi vazifasidan olinadi, qolganlari partiya qaroriga qo'shilishga majbur bo'ladi. Oqibatda 1924-yil 26-iyunda Xorazm Respublikasi rahbarlari Xorazmning ham milliy chegaralanish o'tkazish jarayoniga jalb etilishiga rozi bo'lishga majbur qoladilar.

Shundan so'ng, 1924-yil 15-iyulda O'rta Osiyo byurosi milliy chegaralanish loyihasini tayyorlash va 1924-yil oktabr oyida uni o'tkazish zarur, degan qat'iy xulosaga keldi. Shu maqsadda maxsus Markaziy hududiy komissiya tuzilib, joylarda tashviqot-targ'ibot ishlari kuchaytirib yuboriladi. Komissiya 1924-yil sentabr oyi boshlarida o'z ishini asosan tugallaydi. 1924-yil 25-sentabrda RKP(b) MK Siyosiy byurosi, 9- va 11-oktabrda RKP(b) Markaziy Qo'mitasi bu masalani ko'rib chiqib, milliy chegaralanishni rasmiylashtirishni maqsadga muvofiq deb topadi.

Turkiston hududlarini kichik-kichik milliy bo'laklarga bo'lish ishiga 1924-yil 24-oktabrda RKP(b) MK plenumi so'nggi nuqta qo'ydi. Unga ko'ra, O'rta Osiyodagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Respublikalari o'rnida O'zbekiston SSR (O'zSSR), va Turkmaniston SSR, shuningdek, Tojikiston ASSR (O'zSSR tarkibida), Qoraqalpoq va Qoraqirg'iz (aslida qirg'iz) avtonom viloyatlari tuzilishi kerak edi. Nihoyat, 1924-yilning 27-oktabrida bo'lib o'tgan SSSR BMIQ II sessiyasida Turkiston ASSR MIQ favqulodda sessiyasi, Butunbuxoro va Butunxorazm xalq vakillarining V qurultoylari asosida O'rta Osiyo hududida milliy respublikalar tuzish to'g'risida maxsus qaror qabul qilindi. Sessiyada BSSR Nozirlar Sho'rosining raisi Fayzulla Xo'jayev O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi to'g'risida nutq so'zladi. Shunday qilib, 1924-yil sentabr-oktabr oylarida O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish O'rta Osiyo respublikalari, RSFSR va SSSRning oliy organlari tomonidan qonuniy kuchga kiritildi va O'rta Osiyo hududidagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Respublikalari o'rnida oltita milliy davlat birlashmalari tashkil etildi. Bular:

- O'zbekiston SSR;

- Turkmaniston SSR;
- O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSR (1929-yilgacha);
- RSFSR tarkibida Qoraqirg'iz (Qirg'iziston) muxtor viloyati;
- RSFSR tarkibida Qozog'iston ASSR;
- Qozog'iston ASSR tarkibida Qoraqalpoq muxtor viloyati.

1936- yilda Qoraqalpog'iston ASSR O'zSSR tarkibiga kirgan.

O'rta Osiyo respublikalarida milliy-hududiy chegaralanish shu tarzda o'z nihoyasiga yetdi. Natijada yagona Turkiston xalqlari bir-biridan sun'iy ravishda uzoqlashtirildi. Bu hol sovetlarga o'lkada o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi.

Amerikalik tarixchi Adib Xolid bu davr tarixini biroz boshqacharoq baholaydi. U o'zining "O'zbekiston tavalludi. Ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob" nomli kitobida Turkistonda ham, Buxoroda ham chuqur ziddiyatlar bo'lganligini ko'rsatadi. Uning xulosasiga ko'ra, o'sha yillarda Markazdagi bolsheviklar emas, balki mahalliy musulmon ziyolilari – jadidlar, ya'ni islohotchilar modernizatsiyaning asosiy tarafdorlari va keyinchalik uning targ'ibotchilari bo'lgan.

A.Xolid ko'plab hujjatlarga tayangan holda jadidlar milliy qurilishning turli loyihalarini 1917-yil inqilobidan ancha oldin ilgari surganliklarini ko'rsatib beradi. Bu loyihalar mahalliy musulmonlarning intellektual ijodi mahsuli bo'lib, ular Marks va Engels asarlaridan emas, balki Yosh turklar siyosiy amaliyotidan ilhomlanganlar. Sovet Rossiyasi emas, balki dunyoviy Turkiya jadidlarga namuna bo'lib xizmat qildi.

A.Xolidning kitobida milliy-hududiy chegaralanish va mahalliy elitalarning u yoki bu viloyatlarni va ularda yashovchi odamlarni o'z nazoratiga olish uchun kurashi haqidagi fikrlari ham qiziq. Respublikalarning 1924-yilda qayd etilgan chegaralari mohiyatan milliy harakatlar va sovet rejimi erishgan murosasidir. Bu jarayonda bolsheviklar Markaziy Osiyoda yashovchi barcha xalqlarning

sadoqatini ta'minlashdan manfaatdor bo'lgan hakam rolini o'ynadi³².

Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatlar Markaziy Osiyodagi milliy-ozodlik harakati tarixida alohida bosqich bulib, kurash ko'lami va shiddati uning murakkab va ziddiyatli ekanligi bilan ajralib turadi. Bu harakat o'z geografik doirasiga ko'ra 3 hududga bo'linadi: Turkiston ASSR, Buxoro Respublikasi va Xorazm Respublikasi. U keyinchalik O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston SSRda ham davom etdi. Qurolli kurash o'z rivojlanish jarayoniga ko'ra 2 davrni bosib o'tdi: 1918–1924 va 1925–1935-yillar.

Qurolli harakatni tashkiliy jihatdan uyushtirishda Farg'ona vodiysi, Buxoro va Xorazmdagi qo'rboshilarning mazkur davrda bo'lib o'tgan o'ttizdan ortiq qurultoylarining ahamiyati katta bo'lgan. Bu qurultoylarda harakat rahbarlari saylangan, qo'rboshilar yagona qo'mondonlik ostiga birlashtirilgan. Ammo bunga doimo ham amal qilinmas edi. Shuningdek, qurultoylarda qo'rboshilar guruhlar harakat qiladigan joylar va ularning ta'sir doirasi belgilab olingan. Ba'zi qo'rboshilar oliy bosh qo'mondonga bo'ysunmay, o'zlaricha mustaqil harakat qilganlar. Ta'kidlash joizki, harakat ichida Xolxo'ja Eshon kabi maishatparast kimsalar ham bo'lgan. Turkistonda o'sha paytdagi beqaror vaziyatdan foydalangan ba'zi kimsalar talonchilik guruhlarini tuzib, xalqni talaganlar. Ularni Turkiston mustaqilligi uchun qizil armiyaga qarshi hayot-mamot janglari olib borgan vatanparvarlar bilan chalkashtirmaslik lozim. Biroq kommunistik mafkura har ikki toifaga bir xil “bosmachilar” tamg'asini yopishtirgan.

Namanganlik Nosirxon to'ra Sayid Kamolxon to'ra o'g'li, toshkentlik muftiy Sadriddinxon maxsum Sharifxo'ja qozi o'g'li, Turkiston MIK raisining sobiq o'rinbosari To'raqul Jonuzoqov, asli boshqirdistonlik Ahmad Zakiy Validiy va boshqalar bu harakatning g'oyaviy rahnamolari edilar. Harakatga rahbarlik qilgan islom ulamolari orasida Yassaviylik va Naqshbandiylik tariqatining pirlari ko'p bo'lgan.

Validiyning Turkistonga kelishi va kurash maydoniga chiqishi, “Turkiston

³² Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. Ithaca, N.Y.: Cornell University Press, 2015. P. 269-270.

milliy birligi” tashkilotining tuzilishi (1921-yil 2-avgust) bilan janglar butun mintaqada yoyilib ketdi. Boshqa yashirin milliy tashkilotlar (“Milliy ittihad”, “Milliy istiqlol”) ham tuzilib, ular harakatni faol qo‘llab-quvvatlashdi.

Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatning birinchi davri dastlabki qurolli guruhlarining tashkil topishi, Kichik Ergash va Katta Ergashning nomlari bilan uzviy bog‘liqdir. Turkiston Muxtoriyati hukumati qo‘shiniga boshchilik qilgan Kichik Ergash 1918-yil 19–21-fevralda Qo‘qon shahrida bo‘lgan jangda mag‘lubiyatga uchrab, Qo‘qon uyezdidagi Bachqir qishlog‘iga chekindi. 26-fevralda Bachqirga qizil gvardiyachilar va arman dashnoqdarining 5 ta otryadi hujum qildi.

27-fevralda bo‘lgan janglarning birida Kichik Ergash halok bo‘lgach, Katta Ergash Farg‘ona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik tartibiga qarshi kurash boshladi. 1918-yil mart oyining oxiriga kelib Katta Ergashning nomi Farg‘ona vodiysi aholisi o‘rtasida juda mashhur bo‘lib ketdi. Tez orada harakat butun Farg‘ona vodiysi va Samarqand viloyati hududlariga tarqaldi.

Marg‘ilonda esa militsiyaning sobiq boshlig‘i Muhammadaminbek Ahmadbek o‘g‘li (Madaminbek; 1892–1920-yy.) kurash boshladi. “O‘z oldiga sovet hokimiyatini ag‘darish va Farg‘ona muxtoriyatini tiklash vazifasini qo‘ygan Madaminbek ustomon siyosatchi va uddaburon tashkilotchi fazilatlariga ega edi”, deb tan olinadi 1918-yilga oid arxiv hujjatlarining birida. Farg‘ona vodiysida 1918-yilning o‘rtalariga kelib taxminan yuzga yaqin qo‘rboshilar o‘z dastalari bilan qizil armiya qismlariga qarshi kurash olib bordilar. Bu guruhlarda 15 000 yigit bor edi.

Turkistondagi bu harakatning uyushgan bir shaklda namoyon bo‘lishida qo‘rboshilar ko‘rsatgan g‘ayrat-shijoatni alohida ta’kidlab o‘tish kerak. Qo‘rboshilar harakatning harbiy rahbarlari bo‘lib, ular o‘z jangovarliklari bilan mashhur edilar. O‘z vaqtida Farg‘ona vodiysida Kichik Ergash, Katta Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek (Ko‘r Shermat), Muhiddinbek, Islom Polvon, Yormat Maxsum, Samarqand viloyatida Ochilbek, Bahrombek, Buxoroda Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor, Anvar Posho, Salim Posho, Davlatmandbek, Fuzayl Maxdum, Xorazmda Junaidxon kabi qo‘rboshilar bu harakatni yagona

kuchga birlashtirish uchun rahbarlikni birin-ketin o'z qo'llariga olsalar-da, lekin Turkiston mintaqasidagi istiqlolchilik harakati boshdan oxirigacha yagona markazga to'liq uyusha olmadi. Turkiston fidoyilarining ozodlik harakatini yagona markazga birlashtirish uchun izchil kurashayotgan Madaminbek bilan Anvar Poshoning taqdirlari esa fojiali tugadi.

Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatning bosh sababi bolsheviklarning o'lkada yuritgan mustamlakachilik va shovinistik siyosati edi. Bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan dastlabki tadbirlar (korxonalarning davlat ixtiyoriga o'tkazilishi, xususiy mulkning tugatilishi, oziq-ovqat taqsimoti va g'alla monopoliyasi, islom dinining cheklanishi va ateizm targ'iboti, masjid, madrasa, xususiy maktab va qozixonalarining bekitilishi, vaqf yerlarning tortib olinishi, majburiy mehnatning joriy qilinishi, bozorlarning yopilishi va boshqalar) hamda qizil armiya jangchilarining talonchilik va bosqinchilik siyosati harakatga alohida keskinlik va ksho'lam bag'ishladi. Bu hodisalar kurashning tobora kengayishi va rivojlanishiga olib keldi.

Qurolli kurash o'zining harakatlantiruvchi kuchlari (dehqonlar, chorakorlar, hunarmandlar, kosiblar va mardikorlar, to'q badavlat oilalarning vakillari — savdogarlar, boylar hamda ulamolar) va tashkiliy tuzilishi jihatidan ham aholining barcha guruxlari va ijtimoiy qatlamlarini o'ziga qamrab olgan harakat hisoblanadi.

Kurashchilarning milliy tarkibi, asosan, tub joy aholi – o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, qisman uyg'urlardan iborat bo'lgan. Shuningdek, ruslar, Ahmad Zaki Validiy tomonidan yuborilgan ayrim boshqird va tatar harbiylari, Turkiya va Afg'onistondan kelgan oz miqdordagi zobitlar ham bor edi.

Farg'ona vodiysidagi bu harakat 1919-yil yozining oxiri va kuzida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Madaminbek boshchiligidagi istiqlolchilar safiga Jalolobodda turgan rus krestyanlari armiyasining qo'shilishi vodiya sovet hokimiyatini ag'darish uchun real yaratdi. Sentyabr oyining dastlabki kunlarida Madaminbek lashkarlari Jalolobod va O'sh shaharlarini egallashdi. Ular 13-sentabrda Eski Marg'ilon shahrini sovetlardan ozod qildilar. Shu bilan birga

vodiydagi eng yirik strategik shahar – Andijonni qamal qilishga kirishdilar. Madaminbek boshchiligidagi qo‘shinning hujumi Farg‘ona vodiysini larzaga keltirdi. 1919-yil 22-oktabrda Pomirning Ergashtom (Irkeshtam) ovulida bo‘lgan anjumanda Madaminbek boshchiligidagi Farg‘ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi. Hukumat tarkibiga 16 tub aholi va 8 yevropalik kiritildi. Madaminbek hukumat boshlig‘i bo‘lish bilan bir qatorda Farg‘ona vodiysidagi bu harakatning oliy bosh qo‘mondoni ham etib saylandi.

1919-yilning kech kuziga kelib Madaminbek qo‘l ostida 30 000 ga yaqin yigit qizil armiyaga qarshi janglarni olib bordilar. Bu paytda Shermuhammadbek qo‘l ostida 20 000, Katta Ergash qo‘rboshida 8000 askar bo‘lgan. Ana shu uchta lashkarboshi vodiydagi jangovar harakatlarni yo‘naltirib turdi.

Turkistondagi bu harakat 1920-yilning yozi va kuzida o‘zining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Kurash yana ham shafqatsiz va murosasiz tus oldi. Farg‘ona vodiysi va Samarqand viloyatidagi vatanparvarlar bilan bir qatorda endilikda Xorazm va Buxoro Respublikalaridagi istiqlolchilar ham bosqinchi qizil armiya jangchilariga qarshi kurashga otlandilar. Kurash bayrog‘ini vodiyda Madaminbek o‘rniga endi Shermuhammadbek ko‘tardi. Farg‘ona vodiysidagi butun qo‘rboshilar va tinch aholi vakillari Oltiariq tumanidagi G‘oyibota qishlog‘ida o‘zlarining navbatdagi qurultoylariga to‘plandilar. Qurultoy 1920-yil 3-mayda Shermuhammadbek boshchiligidagi Turkiston muvaqqat hukumatini tuzdi.

Shermuhammadbek Farg‘ona vodiysidagi kurashchilarning oliy bosh qo‘mondoni qilib saylandi. Shu davr hujjatlarning birida e‘tirof etilishicha, “Madaminbek qo‘rboshilar o‘rtasida eng kuchlisi bo‘lgan bo‘lsa, Shermuhammadbek, shubhasiz, eng xavflisi edi”.

Farg‘ona vodiysidagi vatanparvarlar qo‘shiniga 1923–1924-yillarda oldin Islom Polvon (taxminan 1882–1923-yy.), so‘ng Yormat Maxsum (1929-yil halok bo‘lgan) kabi qo‘rboshilar rahbarlik qildilar. Bu paytda qo‘rboshilarning kichik-kichik guruhlarini jang harakatlarini olib bordilar. Lekin qo‘rboshilar kurashning mazkur bosqichida turli sabab va mahalliy shart-sharoitlar natijasida doim ham birlari bilan kelishib ish ko‘rmadilar.

1920–1924-yillarda Buxoro va Xorazm Respublikalarida milliy muxolifat olib borgan ozodlik kurashi o‘ziga xos alohida yo‘nalish va xususiyatga ega bo‘lib, o‘ta murakkab va ziddiyatli ekanligi bilan Turkiston Respublikasidagi bu harakatdan ajralib turadi. Bolsheviklar qizil askarlarga tayangan holda 1920-yil 1-fevralda Xiva xonligi va 1920-yil 2-sentyabrda Buxoro amirligini qurolli kuch bilan ag‘darib, hokimiyatni Buxoroda asosan Yosh buxoroliklar, Xorazmda esa Yosh xivaliklar firqalarining a‘zolaridan iborat demokratik kuchlar qo‘liga berishdi. Lekin bu joylarda hokimiyat uchun kurashayotgan boshqa kuchlar ham mavjud bo‘lib, natijada milliy kuchlar o‘rtasida hokimiyat masalasida o‘zaro ixtilof vujudga keldi.

Buxorodagi qo‘rboshilar o‘rtasida Ibrohimbek (1889–1932-yy.) alohida salmoqqa ega. U amirlik tuzumi ag‘darib tashlangach, Sharqiy Buxorodagi qo‘rboshilar guruhlariga umumiy rahbarlik qilib, bolsheviklar va bosqinchi qizil armiyaga qarshi mustaqillik kurashini boshladi.

Xullas, 1920-yilda yuzaga kelgan qurolli muxolifat biryo‘la 2 kuchga qarshi: birinchidan, bu davlatlar hududida joylashgan bosqinchi qizil armiya qismlariga qarshi mustaqillik kurashini; ikkinchidan, bolsheviklar yordamida hokimiyatni egallab olgan kuchlarga, ya‘ni Yosh xivaliklar, Yosh buxoroliklarga qarshi muxoliflik urushini olib bordilar. Bu harakatning Turkiston Respublikasi, xususan, Farg‘ona vodiysidagi qurolli kurashdan farqli jihati ham ana shunda.

Olis va yaqin tarixda bosqinchilarga qarshi xotin-qizlar ham necha bor jang maydonlarida ot surgan, vatanparvar kuchlarga boshchilik qilgani ma‘lum. Hatto ayollardan maxsus bo‘linmalar ham tuzilgan. Istiqlolchilar safida ayollar nafaqat oddiy jangchi, balki ayrim hollarda qo‘rboshi sifatida jang qilishgan. Farg‘ona vodiysida Shakarxon va Muhiddinbekning onasi singari o‘zbek va qirg‘iz ayollaridan yetishib chiqqan qo‘rboshilar milliy istiqlol kurashi tarixiga shonli sahifalar qo‘shdilar. Karmanalik Nodira qiz esa Ibrohimbek qo‘shinida maxsus ayollar guruhiga boshchilik qilib, Sharqiy Buxoroda qizil askarlarga qarshi mardonavor kurashgan.

1924-yil oxirida Turkiston mintaqasida milliy hududiy chegaralanish

o'tkazilishi natijasida qurolli kurashning birinchi davri yakunlandi. Uning ikkinchi davri esa yana 10 yil davom etib, o'zining xarakteri va kuchlar nisbati jihatidan avvalgi davrga nisbatan ancha farq qiladi. Bu davrda asosan Farg'ona vodiysi, Sharqiy Buxoro va Xorazm vohasida janglar davom etdi. 1930-yillarning o'rtalariga kelib qurolli harakat mag'lubiyatga uchradi. Tirik qolgan kurashchilarning aksariyati xorijiy davlatlarga muhojir bo'lib jo'nab ketishga majbur bo'ldi.

Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatning eng zaif tomoni uning Markaziy Osiyo mintaqasida yagona markaz ostida to'liq birlasha olmaganligi, harakatning boshidan to oxirigacha mafkuraviy asos bo'lib xizmat qiluvchi yagona milliy dasturning yaratilmaganligi hamda ba'zi yetakchi shaxslar orasidagi kelishmovchilik va nizolar, ayrimlarining tor dunyoqarashi va boshqalar bo'ldi. Ayrim shaxslar (Xolxo'ja Eshon, G'ulomalixon Bahodir va boshqalar) harakatga faqat o'zlari rahbarlik qilishni o'ylab, yagona qo'mondonlikka bo'ysunmadi. Shuningdek, qurolli kurashga aloqador bo'lmagan ba'zi guruhlar talonchilik va bosqinchilik bilan shug'ullanib, ko'plab begunoh kishilarni o'ldirishdi. Bundan qizil armiya qo'mondonligi va bolsheviklar ustomonlik bilan foydalanishdi. Ular maxsus xufiyalar va josuslar, turli ayg'oqchilar yordamida harakat ichidagi birlikni parchalash, ba'zi guruh rahbarlari o'rtasidagi tarqoqlik va o'zaro ixtiloflarni yanada avj oldirishga urindilar. Nihoyat, Sovet hukumati bir necha islohotlar o'tkazish va turli-tuman targ'ibotlar natijasida harakat qatnashchilarini mehnatkashlar qo'llab-quvvatlashdan qaytara oldi.

Turkistondagi bu harakatning o'ziga xos milliy ko'rinishi va xususiyatlari mavjud bo'lgan. Bu xususiyatlar harakatdagi qo'rboshilar dastalari va guruhlari faoliyatida, ularning maqsad va istaklarida o'z ifodasini topgan bo'lib, unda shariat qonun-qoidalarini asosidagi milliy davlat barpo qilishdan tortib to milliy demokratik tartibdagi mustaqil davlat tuzishgacha kabi g'oyalar mujassamlashgan edi.

1.8. Jadidchilik harakati va uning ahamiyati

Jadidchilik madaniy-ma'rifiy harakati XIX asr oxiri – XX asr boshida Usmonli va Rossiya imperiyalaridagi musulmon ziyolilari orasida keng tarqalib,

Turkistonga ham kirib kelgan. Rossiyada jadidchilik harakatining asoschisi qrimlik Ismoilbey Gasprali (Gasprinskiy) edi. U uzoq yillar davomida Yevropada yashab, u yerda tahsil oldi, u o'z yurtidagi va, umuman, musulmon dunyosidagi xalqlarning taraqqiyotdan juda ortda qolganini anglab yetib, buning asosiy sababi savodsizlik va diniy aqidaparastlikda ekanligiga amin bo'ldi hamda islom jamiyatida islohot o'tkazish kerak deb chiqdi. Islohotni maktablardan boshlash kerak, dedi u. Buning uchun maktab dasturlarida faqat diniy fanlar emas, dunyoviy fanlarni ham o'qitish kerak. Shunda odamlar dunyodagi taraqqiyparvar fikrlar va hozirgi zamon ilm-fani yutuqlari bilan tanishadilar va qoloqlikdan xalos bo'ladilar. Usuli jadida, ya'ni "yangi usul maktablari" deb atalgan bunday maktablar dastlab Qrimda ochildi. Ismoilbey Turkistonga ko'p umid bog'lagan edi, chunki Rossiya imperiyasida Turkiston eng aholisi zich mintaqa hisoblanib, bu yerda musulmolarning soni ko'p bo'lgan. Shuning uchun u o'z g'oyalarini shu yerda amalga oshirishga qaror qildi. U bir necha marta Turkistonga kelib, bu yerdagi mahalliy ziyolilar o'rtasida o'z g'oyalarini targ'ib qildi, va uni qo'llab-quvvatlagan ziyolilarning soni tobora o'sib bordi. Farg'ona, Samarqand, Toshkent, Buxoro va boshqa shaharlarda yangi usul maktablari ochila boshladi.

Turkiston jadidlari o'zlarini "jadid" deb atamaganlar. Bu atamani ularga nisbatan ruslar qo'llaganlar. Ular esa o'zlarini "xodimi millat", ya'ni millat uchun xizmat qiluvchilar, o'zaro muloqotda esa "mujohidlar" deb atar edilar. Turkiston jadidlari millat vatanparvarlari bo'lib, jamiyatni taraqqiyot uchun davr talablariga binoan isloh qilish yo'llarini izlaganlar. Buning uchun ular ta'lim tizimida yangi usuldagi maktablarni joriy etishni va ularda diniy fanlar bilan birga dunyoviy fanlarni ham o'qitishni taklif etganlar. Ular odamlarni jamiyatning taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi g'ayriislomiy va keraksiz urf-odatlardan voz kechishga chaqirganlar. Lekin ular mustamlakachilarga qarshi hech qanday kurash olib bormaganlar va faqat belgilangan qonun doirasida unga rioya qilgan holda faoliyat olib borganlar.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek tilida "Turkiston madaniy muxtoriyati" loyihasini tuzib (1907-y.), uni 3-Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga ko'rib

chiqish uchun taqdim etdi. Unda Turkiston o'lkasining madaniyat sohasida qanday bo'lishi kerakligi haqidagi jadidlarning tasavvurlari aks etgan. Bu loyiha Duma tomonidan rad etilgan edi va Ismoilbey Gasprali (Gasprinskiy) ning shaxsiy arxivida saqlanib qolgan. Sho'rolar davrida Ismoilbeyning qizi Shafiqa Xonim bu arxivni Turkiya hukumatiga taqdim etgan va u hozirgacha Anqara shahridagi Milliy kutubxona fondida saqlanadi. Bu loyihaning matni 2004-yilda Turkiyada professor Temur Xo'ja o'g'li tomonidan nashr etilgan. Unda Rossiya mustamlakasi bo'lgan Turkiston o'lkasida joriy kolonial qonun-qoidalar va tartiblarni mahalliy aholining manfaatlarini, haq-huquqlarini inobatga olgan holda isloh qilish va o'zgartirishga qaratilgan takliflar bayon etilgan. Loyihaning moddalarida Turkiston o'lkasining madaniy ishlarda mustaqil siyosat olib borishi taklif etilgan edi, xususan, unda ta'lim tizimi, diniy tashkilotlar, qozilik tizimi, til masalasi va boshqa masalalar ko'rib chiqilgan.

Ular mahalliy aholining siyosiy ongini o'stirish, hal qiluvchi kurashlarga yetaklab borish maqsadida o'lkaning ko'plab shaharlarida vaqtli matbuot nashrlari - gazeta va jurnallar chiqara boshladilar. Masalan, Toshkentda "Xurshid", "Sadoi Turkiston", "Turk eli", "Najot", "Kengash", "Sho'roi islom", Samarqandda "Oyna", "Hurriyat", Buxoroda "Turon", "Buxoroi sharif", Qo'qonda "Sadoi Farg'ona", "Tirik so'z" nomli matbuot nashrlari o'z sahifalarida markazdagi siyosiy vaziyatni, joylardagi ahvolni, o'tkir ijtimoiy-siyosiy masalalarni yoritishda, mahalliy aholi ommasini siyosiy-g'oyaviy jihatdan tayyorlab borishda muhim rol o'ynadi.

Abdulla Avloniy tomonidan Toshkentda 1917-yil apreldan chiqarila boshlagan "Turon" gazetasining ilk sonida "Yashasin xalq jumhuriyati" shiori birinchi bor yangragan edi. Unda aniq maqsad-maslak: "Musulmonlar orasida ko'p yillardan buyon davom etgan umumga zo'rlik, bid'at odatlarni bitirmak, kelajakda bo'ladigan jumhuriy idoraga xalqni tayyorlamoq" g'oyasi ilgari surilgan edi.

Xuddi shuningdek, Munavvar Qorining o'sha yili "Najot" gazetasining 26-mart sonida bosilgan «Xurriyat berilmas, olinur», degan xitob ham jadidlarning xalq ozodligi va istiqloli yo'lida jiddiy kurashga bel bog'laganliklaridan dalolat

berardi.

“Sho‘roi Islom”, “Sho‘roi Ulamo” tashkilotlari. Turkiston jadidlari faqat targ‘ibot-tashviqotchilik ishlari bilangina cheklanib qolmasdan, shu bilan birgalikda siyosiy tashkilotlar, partiyalar tuzish, ularning faoliyatini islohotchilik maqsadlari sari yo‘naltirish bilan ham jiddiy shug‘ullanib bordilar. Chunonchi, 1917-yil 14-martda Toshkentda “Sho‘roi Islom” tashkiloti tuzildi. Hur va demokratik Turkiston uchun kurash uning asosiy g‘oyasi va bosh maqsadi edi. 15 kishidan iborat rayosat tarkibidan Munavvar qori Abdurashidxonov (yetakchi), Abduvohid qori, Mirkomilboy Mo‘minboyev, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Salimxon Tillaxonov singari yurt rahnamolari o‘rin olgan edilar.

O‘lkaning turli joylarida “Sho‘roi Islom”ning quyi shu‘balari tuzilib, ular aholi orasida qizg‘in faoliyat yuritdilar. Shuningdek, “Sho‘roi Islom” ta‘sirida joylarda turli nomlarda tashkilotlar tuzildi. Toshkentda “Turon”, “Ittihodi taraqqiy”, Andijonda “Ozod xalq”, “Hurriyat”, “Ma‘rifat”, Samarqandda “Mirvaj-ul Islom”, “Klub Islomiya”, Kattaqo‘rg‘onda “Ravnaqul Islom”, “Guliston” va boshqalar shular jumlasidandir. M. Behbudiyning “Xaq olinur, berilmas”, Munavvar Qorining “Hurriyat berilmas, olinur” shiorlari ularning chinakam kurash bayrog‘iga aylangan edi.

Turkiston istiqloli uchun kurashga bel bog‘lagan va “Sho‘roi Islom” ta‘sirida faoliyat yuritgan jadidlarning bir qismi “Qadimchilar” nomi bilan atalardi. 1917-yil iyuniga kelib “Qadimchilar” “Sho‘roi Islom” tarafdorlari bilan uzil-kesil aloqani uzib, “Sho‘roi Ulamo” tashkilotini tuzdilar (uning rahbarlari: Sherali Lapin, Abdumalik Hoji Nabiyeu va boshqalar).

1918-yilda Abdurauf Fitrat Buxoro jadidlar qo‘mitasining topshirig‘iga binoan o‘zbek tilida “Buxoroda islohot loyihasi” ni yozdi. Unda bo‘lajak Turkiston jumhuriyatining siyosiy dasturi loyihasi e‘lon qilingan edi. Amalda u mustaqil Turkiston davlatining konstitusiyasi loyihasi edi. Unda faqat madaniyat ishlari emas, balki davlat qurilishi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa masalalar, xususan, davlat boshqaruvi va qonunchilik tizimi, harbiy va mudofaa tashkilotlari, askarlikka chaqirish tartibi, yer-mulk masalalari, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar batafsil

yoritilgan. Bu loyiha dastlab rasmiy maqomga ega bo'lmagan, taklif sifatida kam nusxada chop etilib tarqatilgan. 1920-yilda Buxoroda "qizil ruslar" tomonidan xon hukmronligi ag'darilib Buxoro Xalq Jumhuriyati e'lon qilingandan keyin 2 yil davomida jadidlar milliy davlatchilik asoslarini tuzgan paytda ularga bu loyiha asos bo'lib xizmat qilgan. Uning bir nusxasi Buxoro shahar arxivida hozirgacha saqlanadi, va 2005-yilda Toshkentda ilmiy izohlar bilan birga nashr etilgan. 2015-yilda esa uning ruscha tarjimasi nashrdan etildi.

Shunga o'xshash yana bir loyiha 1918-yilda, ya'ni Rossiyada Chor hukumati ag'darilib, oktyabr to'ntarishi yuz bergandan keyin Qo'qon shahrida e'lon qilingan Turkiston muxtoriyati uchun yozilgan. Bu davrda Turkiston o'lkasining bo'lajak taqdiri noma'lum bo'lib turgan edi. Lekin bu hujjat ham qog'ozda qolib ketgan va amaga oshirilmagan. Chunki Qo'qon muxtoriyati tez orada Toshkentdan bostirib kelgan rus askarlari tomonidan yo'q qilingan.

Turkistonda sho'rolar hukumati o'rnatilib, Buxoro va Xiva xonliklari tugatilgandan keyin 1924-yildagi milliy-hududiy chegaralinish arafasida Buxoro Xalq Jumhuriyati jadidlar hukumatining rahbari Fayzulla Xo'jaev "O'zbekiston Respublikasi" loyihasini tuzdi. Unda O'rta Osiyo mintaqasining asosan o'troq aholisini va barcha tarixiy shaharlarini o'z ichiga oluvchi davlat nazarda tutilgan edi.

1.9. Sovetlar yuritgan siyosat va uning oqibatlari

O'zbekiston SSR tashkil qilinganidan so'ng respublika davlat boshqaruvi organlari Ittifoq organlari tartibida va ulardan andoza olingan holda tuzilgan. Bu ittifoqdosh respublikalarning Markazdan turib boshqarishning eng oson va oddiy, shu bilan birga mustahkam shakli edi. SSSR tarkibidagi O'zSSR amalda hech qanday suverenitet va mustaqillikka ega emas edi. O'zSSR tashkil etilayotgan vaqtlardayoq uning oldiga, asosan, Markazning manfaatlariga xizmat qilish, SSSRning markaziy rayonlariga xom ashyo yetishtirib berish kabi vazifalar qo'yilgan edi. SSSR inqirozga yuz tutib, parchalanib ketgunga qadar bu vazifalar o'z kuchini yo'qotmadi. Ma'muriy-buyruqbozlik hamda kommunistik mafkuraga asoslangan sovet davlati o'z ichki siyosiy mavqeini mustahkamlash maqsadida

maʼlum davrlarda zoʻravonlik siyosatini amalga oshirib turdi. Oʻzbekiston SSRda “agrar inqilob”ning strategiya va taktikasi Oʻzbekiston Kompartiyasining 2-sʻezdi (1925-yil noyabr)da tasdiqlangan edi. Bu jarayon OʻzSSR MIK ning “Suv va suvni natsionalizatsiya qilish toʻgʻrisida” va “Yer-suv islohoti toʻgʻrisida” dekretlari (1925-yil 2-dekabr) bilan boshlangan edi. 1925–1929-yillarda OʻzSSRda yer-suv islohotining 2-bosqichi oʻtkazildi. Bu islohot joylarda shart-sharoitlar va tayyorgarlik darajasiga qarab 3 bosqichda amalga oshirilgan.

VKP(b) MK Siyosiy byurosining “Yoppasiga jamoalashtirish toʻgʻrisida”gi qarori va VKP(b) MK Oʻrta Osiyo byurosining “Quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bogʻliq tadbirlar toʻgʻrisida”gi koʻrsatmalari (1930-yil 26-yanvar) asosida Oʻzbekiston Kompartiyasi MK 1930-yil 17-fevralda “Kollektivlashtirish va quloq xoʻjaliklarini tugatish toʻgʻrisida” qaror qabul qilgan. Oʻzbekiston SSRda quloqlashtirish kompaniyasi 1930-yil fevraldan boshlab avj olgan.

1927-yil “Hujum” harakati nomi bilan kirgan kompaniya avj oldirildi. 1929-yilda oʻzbek yozuvi lotin grafikasiga oʻzgartirildi. 1940-yilda esa lotin grafikasining kirillitsa bilan almashtirildi. 1920–1930-yillarda mustabid tuzumga qarshi fikr bildirganlarni taʼqib ostiga olish avj oldi. Ayni shu paytda “18 lar guruhi”, “inogʻomovchilik”, “qosimovchilik” kabi siyosiy ishlar toʻqib chiqarilgan edi.

Mustabid tuzum Markazda va joylarda oʻz mutlaq hokimiyatini shakllantirib, mustahkamlab borar ekan, bunda u oʻziga sodiq muayyan siyosiy va ijtimoiy kuchlarga tayanib ish yuritmogʻi kerak boʻlardi. Shu maqsadda Markaz hukumati yangi sotsialistik jamiyat qurilishining butun davomida Oʻzbekistonga oʻzining koʻp sonli sadoqatli xodimlari, vakillarini rahbariy lavozimlarga yuborib turganligi bejiz emas. Xususan ular yordamida oʻlka hayotida kechayotgan barcha jarayonlar, oʻzgarishlardan doimiy xabardor boʻlish, ularning yoʻnalishlarini, maqsad, vazifalarini belgilash, mahalliy kadrlar faoliyatini kuzatish, nazorat qilish mumkin boʻlardi. Markaz Oʻzbekistonlik milliy kadrlarning kundalik ishlariga «koʻz quloq» boʻlish, ular faoliyatini tekshirish, taftish qilish barobarida sotsializm qurilishi yoʻliga sadoqat bildirganlarni tanlash, tarbiyalash, ularni yuqori

mansablarga ko'tarishni o'z e'tiboridan chetda tutmadi.

Shu bois Markaz ishonchini qozonib, uning nufuzli namoyandalari bilan yaqindan hamkorlik qilgan, kerak bo'lganda o'z xalqining manfaati, qiziqishlarini ko'zlab ish yuritgan bilimdon kadrlar soni ham ko'payib borganligi faktdir. Ammo Stalinning yakkahokimligi kuchayib, totalitar tuzum bedodligi avj olib borgan sari bunday kadrlarni arzimasa sabab va bahonalar bilan qiyin-qistovga olish, vazifalaridan chetlashtirish odatiy tusga kirib bordi.

O'zSSRda yer-suv islohoti 1925–1929-yillarda amalga oshirildi. Qabul qilingan dekretlar asosida belgilanganidan ortiq yerlar, ish hayvonlari va mehnat qurollari tortib olindi. Boylar, yirik savdogarlar, ulamolar va boshqa mulkdorlarning yerlari va butun mol-mulki musodara qilindi.

1929-yil kuzidan SSSRda qishloq xo'jaligini ma'muriy-buyruqbozlik usuli bilan kollektivlashtirish (jamoalashtirish)ga kirishildi. VKP(b) MK Siyosiy byurosining "Yoppasiga jamoalashtirish to'g'risida"gi qarori va VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining "Quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog'liq tadbirlar to'g'risida"gi ko'rsatmalari (1930-yil 26-yanvar) asosida O'zbekiston Kompartiyasi MK 1930-yil 17-fevralda "Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida" qaror qabul qilgan. O'zbekiston SSRda quloqlashtirish kompaniyasi 1930-yil fevraldan boshlab avj olgan. Quloqlarga qarshi kurashda ularning mol-mulklarini musodara etish va o'zlarini boshqa hududlarga surgun qilish uchun tegishli tashkilotlarga hamda respublikalardagi partiya tashkilotlariga tegishli huquqlar berildi.

O'zbekiston SSR hududida dehqonlarni majburiy ro'yxatga olishga qarshi ommaviy noroziliklar va qo'zg'olonlar boshlandi. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, joylarda raykom va qishloq soveti xodimlari kaltaklanib, o'ldirila boshlandi. Bunday qo'zg'olonlar SSSRning boshqa hududlarida ham yuz berdi.

1930-yil kuzidan dehqonlarni jamoa xo'jaliklariga kirishga majburlash yana avj oldi. 1931-yil yoziga kelib barcha dehqon xo'jaliklarining 56,7 foizi kolxozlarga birlashtirilgan edi. O'zbekiston SSRda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish rasmiy ravishda 1932-yilda tugatildi. Bu davrda dehqonlarning

qariyb 92 foizi kolxozlarga kirgan edi. Yakka xo‘jaliklarga turli choralar qo‘llanishi natijasida kollektivlashtirish 1939-yilda 99,55 foizga yetdi.

O‘zbekiston SSRdagi jamoalashtirish qishloq xo‘jaligiga juda katta zarar yetkazdi. G‘alla yetishtirish keskin qisqardi. Chorvachilikka haddan tashqari katta ziyon yetdi. RSFSRning markaziy guberniyalari, Volgabo‘yi va Qozog‘istonni qamrab olgan ocharchilik 1932–1933-yillarda O‘zbekistonda ham yuz berdi. Sovet hokimiyatining dastlabki o‘n yilliklarida O‘zbekiston butunlay agrar o‘lkadan agrar-sanoatlashgan o‘lkaga aylanishi borasida muhim qadam qo‘yilganligini e‘tirof etish lozim. Birinchi besh yillik (1928–1932-yy.)da ko‘plab yangi sanoat korxonalari, elektrostantsiyalar, temir yo‘llar qurildi.

Sanoatni rivojlantirish natijasida O‘zbekiston Markazga rangli va nodir metallar, oltingugurt, ozokerit, volfram, molibden, paxta tolasi, xom ipak bilan ta‘minlaydigan va sho‘rolar mamlakatini xom ashyo qaramligidan xalos etishga yordam beradigan yirik xomashyo mintaqasiga aylandi. O‘zbekistonning oltin sanoati butun mamlakatning to‘lov balansini mustahkamlash uchun katta mablag‘lar berib turdi.

Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) tufayli O‘zbekiston qishloqlaridagi ahvol nisbatan yaxshilandi, dehqonlar o‘z mahsulotini sotish, g‘o‘za va boshqa ekin maydonlarini kengaytirish orqali turmush darajasini yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Biroq 20-yillarning ikkinchi yarmidan YaIS (NEP) o‘z mohiyatini yo‘qotib, erkin savdo va xususiy tadbirkorlikka chek qo‘yila boshladi. Sovet hukumati boylarning yerlarini musodara qilish hisobiga kambag‘al dehqonlarni yer bilan ta‘minlash orqali qishloqda “sotsialistik ijtimoiy tuzum” ning asosi bo‘lgan jamoa bo‘lib xo‘jalik yuritishni rivojlantirishni ko‘zlab, keng miqyosli agrar islohotini avj oldirdilar. 1925-yil 2-dekabrdagi O‘zSSR MIQning favqulodda sessiyasida qabul qilingan “Yer va suvni natsionalizatsiya qilish” to‘g‘risidagi dekreti qabul qilindi.

Xullas, 1925–1929-yillardagi yer-suv islohoti sovet hukumatining mulkdor sinflarni tugatish, sinfsiz jamiyat qurish uchun qilgan chora-tadbirlaridan biri bo‘ldi. Ushbu jarayon keyingi yillarda qishloq xo‘jaligini majburiy

jamoalashtirishga zamin yaratgan edi.

O'zbekistonda jamoalashtirish O'zKP MQning 1930-yil fevralda qabul qilgan "Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish" to'g'risidagi qarori e'lon qilingandan so'ng boshlab yuborildi. O'zbekistonda jamoalashtirish asosan 1932-yilning oxiri – 1933-yilning boshlarida tugallandi. 1930–1933-yillarda O'zbekistonda 5550 dehqon xo'jaligi a'zolari hibsga olinib, quloq qilindi va Ukraina, Sibir, Qozog'iston va boshqa joylarga zo'rlik bilan ko'chirildi.

O'zbekiston uchun suv inshootlari qurish muhim edi va shuning uchun 1939-yildan bunday qurilishlar umumxalq hashar yo'li bilan amalga oshirila boshladi. 1939-yil 1-avgustda boshlangan 270 km uzunlikdagi Katta Farg'ona kanali xalqning mashaqqatli mehnati evaziga 45 kunda barpo etildi. Kanal qurilishida 160 ming kishi ishtirok etdi va u asosan qo'l mehnati bilan qurildi.

O'zbekistonda "Madaniy inqilob" va uning oqibatlari.

XX asrning 20–30-yillaridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat respublika ma'naviy-madaniy hayotida ham o'z aksini topdi. Sovet davlatining "madaniy inqilob" tadbiri jamiyatning barcha jabhalari qatorida ilm-fan, madaniyat, san'at, maorif, oliy ta'lim sohalarini ham o'z izmiga solgan edi.

Oktyabr to'ntarishidan so'ng sovetlar sharq ayollarini ozodlikka chiqarish uchun kurash, ularning siyosiy faolligini oshirish hamda yangi hayot qurilishiga jalb qilish kampaniyasini avj oldirib yubordilar. Ushbu jarayonning eng cho'qqisi 1927-yil bo'lib, u tarixga "Hujum" harakati nomi bilan kirdi. Ya'ni, sovet adabiyotlari talqinida bu eski turmush tarziga hujum qilish ma'nosini anglatar edi. Hujumning oldiga qo'yilgan birinchi navbatdagi vazifalaridan biri bu – ko'p xotinlikni, balog'atga yetmagan qizlarni turmushga berishni va qalin pulini yo'q qilish edi.

Shubhasiz, "Hujum" harakati ayollariga birmuncha erkinlik, huquqlar berdi. Lekin ushbu harakat bosqichma-bosqich, zo'ravonlik usullarini ishlatmasdan, xalq ongini ushbu jarayonga tayyorlab amalga oshirilganida edi, ko'p salbiy holatlarning oldi olingan bo'lardi.

1929-yilda o'zbek yozuvi lotin grafikasiga o'zgartirildi. 1940-yilda esa lotin

grafikasining kirillitsa bilan shoshilinch almashtirilishi O‘zbekiston aholisining bilim darajasining o‘shishiga, o‘zbek tilining rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu holat savodsizlar sonining sun’iy o‘shishini keltirib chiqardi.

1926-yilda yuzaga kelgan birinchi o‘zbek davlat kontsert etnografik ansambliga atoqli o‘zbek xonanda, aktyor, sozandalari jalb etilib, 1929-yilda uning zaminida Samarqandda O‘zbek davlat musiqali teatri tashkil topdi. Aynan o‘sha davrlarda atoqli o‘zbek ijrochilari chet el gastrollarida bo‘lishgan: Tamaraxonim va Qori Yoqubovlar Parij va Berlin (1925-y.)da katta muvaffaqiyat qozonishgan. 1936 yilda O‘zbek davlat filarmoniyasining tashkil etilishi ijrochilik san’atining ma’lum darajada tizimlanishiga asos bo‘ldi. O‘zbek xalq cholg‘u asboblari orkestri, ashula va raqs ansamblari, xor kapellasi, simfonik orkestr uning tarkibida ish boshladi.

XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmi – 1930-yillardagi siyosiy qatag‘onlar.

O‘tgan asrning 20–30-yillarida sovet tuzumiga qarshi fikr bildirgan va umuman ziyoli kishilarni ta’qib ostiga olish avj oldi. Ayni shu paytda “18 lar guruhi”, “inog‘omovchilik”, “qosimovchilik” kabi siyosiy ishlar to‘qib chiqarilgan edi.

O‘zbekistondagi hukumat va partiya organlarining vakolatlari masalasi tadqiq etilganda “o‘n sakkizlar guruhi”ning faoliyati va qismatini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Asosan hukumat a’zolari kirgan “o‘n sakkizlar guruhi” a’zolari O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti siyosatiga qarshi chiqqan edilar.

1925-yil noyabrda O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatgan milliy rahbar xodimlardan 18 kishi (ular tarixiy adabiyotlarda “o‘n sakkizlar guruhi” deb atalardi) 1925-yil 19–22-noyabrda Samarqandda bo‘lgan O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti plenumiga quyidagi ariza bilan murojaat qilgan edilar:

“O‘zKP(b) MK plenumiga

Ariza

Do‘stona va samarali ishlash uchun toqat qilib bo‘lmaydigan sharoit yuzaga

kelganligi munosabati bilan bizni O‘zbekistondagi ishdan bo‘shatishni va RKP(b) MK ixtiyoriga jo‘natishingizni so‘raymiz.

Agar lozim bo‘lsa, sababini yanada mufassalroq bayon qilishimiz mumkin”.

Ariza ostida O‘zbekistonda faoliyat olib borgan 18 nafar mas’ul milliy xodimlarning familiyasi va lavozimi yozilib, imzolari qo‘yilgan. Mazkur arizaga qo‘l qo‘ygan 18 nafar milliy xodimlar O‘zbekiston SSR hukumati a‘zolari, ayrim okruglar, viloyatlar, uездlar, tumanlar va shaharlar rahbarlari, yirik xo‘jalik boshliqlari va partiya xodimlaridan iborat bo‘lgan.

“O‘n sakkizlar guruhi” ishtirokchilari ariza berishlariga partiya ichida guruhbozlik kurashining davom etayotganligi, buning natijasida esa samarali ishlash uchun sharoitning yo‘qligi, rahbarlarning xodimlarga ishonmasligi asosiy sabab bo‘lganligini ko‘rsatib o‘tganlar.

“Inog‘omovchilik” 1926–1931-yillarda mustabid tuzum tomonidan milliy rahbar va ziyolilarning qatag‘on qilinishiga sabab bo‘lgan uydirma. “Inog‘omovchilik” – o‘sha yillarda O‘zSSR Maorif Xalq Komissari vazifasini bajarib kelgan Rahim Inog‘omov (1902–1938-yy.) nomi bilan bog‘liq.

R.Inog‘omov va uning tarafdorlari xalq ta’limi va madaniyatini proletarlashtirishga qarshi chiqib, VKP (b) MQ O‘rta Osiyo byurosi faoliyatini tugatish talabini ko‘tarib chiqadilar. Shuningdek, R.Inog‘omov o‘zbek mehnatkashlarining Oktyabr to‘ntarishiga tayyor bo‘lmaganliklari va uning yevropalik proletar kuchlar tomonidan amalga oshirilganligi xususida fikrlar bildirgan.

Maxsus uyushtirilgan viloyat plenumlarida “inog‘omovchilik” qoralanib, u bilan ayovsiz kurash olib borishga da’vat etiladi.

Rahim Inog‘omovga ko‘plab ayblar qo‘yilgach, uni Qashqadaryo viloyatining eng chekka qishloqlarining biriga ishga yuborishadi. Quvg‘in va ta’qiblar ta’sirida R.Inog‘omov matbuot orqali tavba-tazarru mazmunidagi “ochiq xat”i bilan chiqadi.

Inog‘omovning qarashlari xususida Mustafo Cho‘qaeв quyidagi fikrlarni bildirgan: “...Biz ruslarga iqtisodiy jihatdan qaram bo‘lishni istamaymiz. Mana shu

haqiqatni kommunist bo'lishga shoshilgan turkistonlik yoshlar anglay boshladi. R.Inog'omov boshliq guruh o'zbeklarga o'z-o'zini boshqarish huquqini berish, Turkiston ustidan O'rta Osiyo byurosi nazoratini bekor qilinishini talab qilgan".

"Qosimovchilik" – 1929–1930-yillarda milliy an'anaviy sud va huquq sohasidagi qadriyatlarni saqlab qolish tarafdorlari bo'lgan vatanparvar ruhdagi huquqshunos mutaxassislarni mustabid sovet tuzumiga majburan bo'ysundirish yo'lidagi qatag'onga qarshi harakat bo'ldi. 1929-yilda O'zSSR Oliy sudining raisi Sa'dulla Qosimovning "qosimovchilik" deb nomlangan ishini ko'rib chiqish boshlanadi. S.Qosimov va uning tarafdorlari "bosmachilar"ni qo'llab-quvvatlashda, "aksilinqilobchi millatchi tashkilotlar" a'zolari bilan aloqa bog'laganlikda, islom dinini himoya qilishda ayblandilar.

1930-yilning 22-iyunida xukm h'lon qilinadi. Qosimov va uning 3 tarafdori otib tashlanadilar. Minglab ziyolilar yo'q qilinishining cho'qqisi 1937–1939-yillarga to'g'ri keldi. Respublika NKVDsi "uchlik"lari tomonidan 1937-1939-yillarda 41 mingdan ziyod kishi qamoqqa olinib, ulardan 6 ming 920 nafari otib tashlangan edi.

XX asrning 20–30-yillaridagi mustabid tuzumning qatag'onlik siyosati jiddiy va fojiali oqibatlarga olib keldi. Milliy ziyolilarning jismonan yo'q qilinishi oqibatida milliy madaniyat to'la-to'kis rivojlana olmadi. Millatning aql-idrokli kishilari mahv etilgach, hamma "yo'lboshchi"ning itoatkor quliga aylantirildi. Shunday qilib, har qanday o'zgacha fikrni kuch bilan bug'adigan, ommaviy o'zboshimchalik va zo'rlik bilan vatanga sodiq necha o'n minglab kishilarni qirib tashlagan mustabid tartibot qaror topdi va kuchaya bordi.

XX asr 90-yillariga kelib jahon va sobiq ittifoqdagi o'zgarishlar hamda yuzaga kelgan vaziyat o'zbek xalqining mustaqillik uchun bo'lgan kurashini tezlashtirib yubordi. Bu o'rinda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1989-yil 23-iyundagi plenumida Islom Karimovning birinchi kotib etib saylandi. O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1989-yil 21-oktabrda bo'lgan XI-sesiyasida "*O'zbekiston SSRning davlat tili haqida*" Qonun qabul qilindi. 1990-yil 19-fevralda "*O'zbekiston SSRning davlat tili haqida*"gi qonunni amalga oshirish

davlat dasturi qabul qilindi.

XX asr 90-yillariga kelib jahon va sobiq ittifoqdagi o'zgarishlar hamda yuzaga kelgan vaziyat o'zbek xalqining mustaqillik uchun bo'lgan kurashini tezlashtirib yubordi. Bu o'rinda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1989-yil 23-iyundagi plenumida Islom Karimovning birinchi kotib etib saylandi. O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1989-yil 21-oktabrda bo'lgan XI-sesiyasida "*O'zbekiston SSRning davlat tili haqida*" Qonun qabul qilindi. 1990-yil 19-fevralda "*O'zbekiston SSRning davlat tili haqida*"gi qonunni amalga oshirish davlat dasturi qabul qilindi.

1990-yil 24-mart kuni O'zbekiston SSR Oliy Sovetining XII chaqiriq 1-sessiyasi SSSR doirasida birinchi bo'lgan siyosiy hujjatni – "*O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvini ta'sis etish to'g'risida*"gi qarorni qabul qildi va O'zbekiston Kompartiyasi MK birinchi kotibi I.A.Karimov O'zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi.

1990-yil-20 iyunda respublika Oliy Soveti tomonidan "*Mustaqillik Deklaratsiyasi*" qabul qilindi edi. Mustaqillik Deklaratsiyasi 12 moddadan iborat bo'lib, mazkur hujjat O'zbekiston qonunlarining Ittifoq qonunlaridan ustuvorligini ta'minladi. 1991-yil 15-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashi "*O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida*" maxsus qaror qabul qildi.

1991-yilning 22-iyulda "*O'zbekiston SSR hududida joylashgan Ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini O'zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o'tkazish*" to'g'risida qaror qabul qilindi.

1991-yilning aprel oyiga kelib, Markaz o'zining ta'sir doirasini saqlab qolish maqsadida mustaqil davlatlar ittifoqini tuzishga intildi. 1991-yil aprelda Novo-Ogoryovoda SSSR Prezidenti M.S.Gorbachevning 9 respublika rahbarlari bilan uchrashuvi bo'ldi. Ishtirokchilar tomonidan "*Mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirish va tanglikni bartaraf etishga doir kechiktirib bo'lmaydigan Choralar to'g'risida*" qo'shma Bayonot imzolandi. Bu hujjat "*9+1*" (9 respublika + Markaz) degan nomni oldi. 1991-yil iyul oyining oxirlarida Novo-Ogoryovoda yangi shartnoma loyihasini uzil-kesil tayorlash uchun Markaz vakillari va

Respublika rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Markazni ham, Respublikalar rahbarlarini ham qanoatlantiradigan "Mustaqil Davlatlar Ittifoqi to'g'risida shartnoma" loyihasi tayyorlandi. Shartnomani imzolash 1991-yil 20-avgust kuniga qoldirildi.

1991-yil 18-avgustda Moskvada davlat to'ntarishi amalga oshirildi. Fitnachilar tomonidan mamlakatni idora qilish uchun SSSRda Favqulodda holat davlat qo'mitasi (GKCHP) tuzildi va mamlakatda favqulodda holat e'lon qilindi. Favqulodda holat davlat qo'mitasi faoliyatiga qarshi B.N.Yeltsin boshchilik qildi. 21-avgustda fitnachilar mag'lubiyatga uchradi, 22-avgustda esa Favqulodda holat davlat qo'mitasi (GKCHP) a'zolari qamoqqa olindi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov rasmiy safar bilan Hindistonda edi. 1991-yil 19-avgustda safardan qaytib keldi va Toshkent shahrining faollari bilan uchrashib, qat'iy tarzda O'zbekiston nuqtai nazarini ma'lum qildi. 20-avgustdagi majlisda O'zbekistonning mustaqillikka erishish yo'li o'zgarmasligi haqida Bayonot qabul qilindi.

1991-yil 21-avgust kuni O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning Farmoni bilan Favqulodda holat davlat qo'mitasining O'zbekiston Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan qarorlari va farmonlari noqonuniy deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Prezidentining 1991-yil 25-avgustdagi Farmoniga binoan Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi qo'mitasi qonuniy ravishda O'zbekiston tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston Prezidentiga bo'ysundirildi. Respublika ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi, prokuraturasi, adliya organlari, ichki qo'shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shilmalari partiyadan butunlay holi qilindi.

Nazorat savollari:

1. Temur va temuriylardan keyingi davrda Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat qanday edi?
2. Ko'chmanchi o'zbeklar kimlar edi va ularning Turkiston hududiga

kirib kelishi o'lkaga qanday ta'sir ko'rsatdi?

3. Turkistonda qanday sabablarga ko'ra xonliklarga bo'linib ketdi?

4. Buxoro amirligi qachon tashqil topdi?

5. Xiva xonligi qachon va qay tariqa tashqil topdi?

6. Qo'qon xonligining asoschisi kim?

7. Turkiston xonliklari o'z boshidan qanday ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotni kechirmoqda edi?

8. Markaziy Osiyoda Chor Rossiyasining istilochilik siyosati qachon va qay tariqa boshlangan?

9. Markaziy Osiyo xalqlarining milliy-ozodlik harakatlari qanday boshlangan?


10. Jadidchilik harakati nima va uning ahamiyati nimalardan iborat edi?

11. Markaziy Osiyo hududida sovet hokimiyatining o'rnatilishi qanday kechdi?

12. Sovetlar yuritgan siyosat qanday edi va uning oqibatlarini nimalarda ko'rish mumkin?

Mavzuni o'rganishga doir o'yinlar, uslubiy metodlar va tavsiyalar:
XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda xonliklarning paydo bo'lishi va
Markaziy Osiyoda Rossiya imperiyasining istilochilik siyosati. Sho'rolar
davrida Markaziy Osiyo.

1-ilova:



Venn diagrammasi

Venn diagrammasi talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondoshuv hamda mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltirilgan. Bu texnologiya talabalar o'zlashtirgan o'zaro yaqin nazariy bilimlar, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu metoddan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaraliroqdir. Talabalar Venn diagramma tuzish qoidasi bilan tanishadilar alohida kichik guruhlarda venn diagrammasi tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) to'ldiradilar. Juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar. Doiralarni kesishuvchi joyida, ikkinchi uchinchi doiralar uchun umumiy bo'lgan, ma'lumotlar ro'yxatini tuzadilar.



“Kim biladi?” o‘yini

“Kim biladi?” o‘yinida talabalar ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruh a‘zolari biror hukmdor yoki tarixiy shaxs haqida ma‘lumotlarni aytadi. Ikkinchi guruh a‘zolari esa hukmdor yoki tarixiy shaxsni kim ekanligini aniqlashadi. Keyingi navbatda ikkinchi guruh a‘zolari biror hukmdor yoki tarixiy shaxs haqida ma‘lumot o‘qishadi. Birinchi guruhdagilar hukmdor yoki tarixiy shaxsning kim ekanligini topishadi. Har bir to‘g‘ri javob uchun yutuqli kartochkalar beriladi. Bu o‘yinni “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” fanida ham foydalanish mumkin. Masalan:

1- guruh: U hukmdor Abulxayrxonning farzandi Shohbudoqsultonning o‘g‘li. Uning ismining ma‘nosi “Kuch, qudrat” demakdir. U XV asrning 80-yillarida o‘z davlatini tuzgan.

2- guruh: Bu – Shayboniyxondir.

1-guruh: U Movarounnahr va dashti qipchoqni qaytadan birlashtirdi, karvon yo‘llarini qayta jonlantirdi, sardobalar karvonsaroylar, madrasalar qurish va taminlashga ahamiyat beradi. 1572-yili Akbarshoh ho‘zuriga elchi yuboradi.

1- guruh: Bu – Abdullaxon ikkinchidir.

2- guruh: U Mang‘itlar davlatining asoschisi. Markaziy hokimyatga bo‘ysinmagan qabilalarni oq uyli qilib ko‘chirtirib yuborish siyosatini tutgan, yirik yer egalarining davlatni boshqarish ishlarida aralashuvlarni keskin kamaytirishga erisha olgan hukmdor.

2 - guruh: Bu – Muhammad Rahimbiy.

1-guruh: Uning davrida davlat ichki va tashqi savdosi o‘sdi. Amir Shohmurodning o‘g‘li, u Quroni Karimni yoddan bilgan. Uning huzurida tez-tez diniy va ilmiy munozaralar o‘tkazib turilgan. Uning o‘zi ham madrasa talabalariga maruzalar o‘qigan. U kim?

2-guruh: Bu – amir Haydar.

1-guruh: U Xiva tarixshunoslik maktabiga asos slogan, “Shajarayi turk” asari muallifi. Uning topshirig‘i bilan “Dastur ul-amal” asari ham yozilgan. U kim?

2-guruh: Bu – Abulg‘oziy Bahodirxon.

1-guruh: U Olimxonning ukasi. Qo‘qonda Ilm-fan, adabiyot rivojiga e‘tibor bergan, uning say-harakatlari natijasida Qo‘qon ilm-fan markaziga aylangan. Farg‘onalik tarixchi Muhammad Hakim uning hukmronligi davrini eng yaxshi podsholik davrlaridan biri deb tavsiflagan. U kin?

2-guruh: Bu – Umarxon.

O‘yin shu tarzda davom etadi.

4-ilova:

“Bellashuv” intellektual o‘yini

“Bellashuv” intellektual o‘yini kichik guruhlariga bo‘lingan holda yoki bir kursning barcha guruhlaridan 6 kishidan iborat jamoalar shakllantirilgan holda tashkil qilinadi va jami 100 ballik tizimda baholanadi.

I-shart. Muammo va yechim. Bu shartda har bir guruh ishtirokchilariga bittadan savol beriladi. Savolni o‘ylash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Savol javobini to‘liq ochib berish uchun 3 daqiqa vaqt ajratiladi. Baholash maksimal 5 ballik tizimda baholanadi. Jami 5 ball.

II-shart. Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid manbalar tahlili. Bu shartda har bir guruhga yozma shklda 3 tadan savol beriladi. Javob topish uchun 2 daqiqa vaqt ajratiladi. Guruh a’zolaridan kelishgan holda vakillar chiqib berilgan savollarga 2 daqiqa vaqt ichida javob berishadi. Har bir to‘liq bo‘lgan to‘g‘ri izoh uchun baholash maksimal 5 ballda baholanadi. Jami 15 ball.

III-shart. Atamalar izoh bering Bu shartda har bir guruh ishtirokchilariga 10 tadan atamalar jadvali izoh uchun beriladi. Atamalar mazmunini aniqlash uchun 5 minut vaqt beriladi. Har bir guruh ishtirokchilari atamalar mazmunini yozma ravishda ekspertlar guruhiga vaqt tugashi bilan taqdim etadi. Atamalar mazmunini to‘liq ochib berish uchun 3 daqiqa vaqt ajratiladi. Baholash har bir to‘g‘ri javob uchun 3 ball bilan baholanadi. Jami 30 ball.

IV-shart. Sardorlar bellashuvi. Bu shartda guruh sardorlari taklif etiladi. Har bir guruh sardoriga 10 ta tezkor savol beriladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun 5 balldan baholanadi. Jami 50 ball.

Ushbu o‘yinlar ta’lim oluvchilarda fanga yoki o‘rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otadi, tarixga bo‘lgan ijodiy yondashuvni o‘stiradi, talabalarning mantiqiy fikrlash malakalarini oshiradi.

TAQDIMOT



Markaziy Osiyo xonliklari xaritasi

<https://english-life.uz/wp-content/uploads/Orta-Osiyoda-Buxoro-amirligi..j>

Chor Rossiyasining Turkustonni bosib olishi 4 bosqichga bo'linadi.

1847-1865-
yillar.
Qo'qon
xonligiga
qarashli
hududlar
bosib
olingan.

1865-1868-
yillar
Toshkent va
Buxoro
amirligi
hududlari
bosib
olingan.

1873-1879-
yillar Xiva
va Qo'qon
xonligi
hududlari
zabt etiladi

1880-1885-
yillar. Bu
davrdan
hozirgi
Turkmaniston
yerlari bosib
olinadi.



Samarqamdning rus armiyasi tomonidan istilo etilishi aks etgan kartina.

<https://upload.wikimedia.org/wikipedia/commons/thumb/2/25/Karazin>



Buxoro amirligida inqilobiy harakatlar

<https://cdn.uza.uz/2020/10/02/17/44/507RuzVGKKqB6XRi5w9JvhwazTCxBWj>

[C_normal.jpg](#)

TEST SAVOLLARI

1. “Turkiston” atamasi qachon ilk bor qayd etilgan?

- A) IX asrda
- B) VI asrda
- V) XV asrda
- G) XI asrda

2. “O‘zbekiston” atamasi qachon ilk bor qayd etilgan?

- A) 1924-yilda
- B) XX asr boshlarida
- V) XIV asrda
- G) XVI asrda

3. “Transoksiana” atamasining ma’nosi nima?

- A) Daryoning orqa tomoni
- B) Oksning orqa tomoni
- V) Amudaryoning orqa tomoni
- G) Ikki daryo oralig‘i

4. Jadidlar “turk” atamasini kimlarga nisbatan ishlatganlar?

- A) O‘zbeklar
- B) Turk tilida so‘zlashuvchi barcha xalqlar
- V) Turk tilida so‘zlashuvchi ko‘chmanchi xalqlar
- G) Turk tilida so‘zlashuvchiu o‘troq xalqlar

5. XVI – XVIII asrlarda O‘rta Osiyo aholisi nima deb atalgan?

- A) Turkistonlik
- B) O‘zbek
- V) Tojik
- G) O‘zbek va Turkistonlik

6. “O‘zbek” atamasi qayerdan kelib chiqqan?

- A) O‘zbek qabilasidan
- B) O‘zbekxon ismidan
- V) O‘zbekiston nomli yerdan

G) O‘zbek xonligidan

7. 1583-yildan boshlab Shayboniylar davlatida kim rasman xon deb e‘lon qilingan?

A) Abdullaxon II

B) Abdulazizxon

V) Nodir Muhammadxon

G) Navro‘z Ahmadxon

8. Buxoro xonligida hukmronlik qilgan so‘nggi shayboniy hukmdorni toping.

A) Abdullaxon II

B) Navro‘z Ahmadxon

V) Ubaydullaxon

G) Pirmuhammad II

9. Qachondan Buxoro xonligida ashtarxoniylar sulolasining hukmronligi boshlanadi?

A) 1601-yildan

B) 1602-yildan

V) 1603-yildan

G) 1604-yildan

10. Imomqulixon qaysi yillarda hukmronlik qilgan?

A) 1607-1638-yillarda

B) 1609-1640-yillarda

V) 1611-1642-yillarda

G) 1613-1645-yillarda

11. Nima uchun Toshkentda Imomqulixon hukmronligiga qarshi 1613-yilda qo‘zg‘olon ko‘tarildi?

A) Imomqulixon hukmonligini tan olmaslik uchun

B) Imomqulixon o‘g‘li Iskandar Sultonning aholiga boj, xiroj va boshqa soliqlarni ko‘paytirib, qattiq zulm o‘tkazganligi

V) qozoq sultoni Kelimuhammad madadiga tayanishi

G) Iskandarni Toshkentliklardan ko‘plab aholini askarlikka olishi

12. Qaysi Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Xiva xonlarining talonchilik yurushlari kuchayadi?

- A) Vali Muhammad
- B) Imomqulixon
- V) Nadr Muhammad
- G) Abdulazizxon

13. Xorazm Buxoro xonligi tasarrufiga olingandan keyin Subxonqulixon kimni Xivaga hokim etib tayinlaydi?

- A) Erengxonni
- B) Amir Shohniyozni
- V) Amir Shohmurodni
- G) Eshmuhammadni

14. Rajab Sultonning mustaqil Samarqand xonligining mustaqilligi qaysi yilgacha saqlanib turildi?

- A) 1730-1731-yillargacha
- B) 1731-1732-yillargacha
- V) 1732-1733-yillargacha
- G) 1733-1734-yillargacha

15. Qaysi davrga kelib Samarqand Registoni ansamblining hozirgi qiyofasi shakllantirildi?

- A) XV asrda
- B) XVI asrda
- V) XVII asrda
- G) XVIII asrda

16. Buxoro xonligi qancha vaqt ashtarxoniylar sulolasi tomonidan boshqariladi?

- A) 135 yil
- B) 140 yil
- V) 160 yil
- G) 175 yil

17. XVI asr oxirida kimning hukmronligi davrida Buxoro xonligi ulkan markazlashgan davlatga aylangan?

- A) Abulgʻozixon
- B) Abdullaxon II
- V) Muhammad Shayboniyxon
- G) Ismoil Safaviy

18. Quyidagi qoʻzgʻolonlardan qaysi biri 1916-yilda boʻlib oʻtgan?

- A) Dukchi Eshon qoʻzgʻoloni
- B) Jizzax qoʻzgʻoloni
- C) Poʻlatxon qoʻzgʻoloni
- D) Ernazarbiy qoʻzgʻoloni

19. Xiva xonligida yerni ijaraga olib, hosilning teng yarmiga ishlovchilar qanday atalgan?

- A) bevatanlar
- B) barzikorlar
- V) yarimchilar
- G) vaqfchilar

20. 1810-yilda Toshkentni Qoʻqon xonligi tarkibiga qoʻshib olgan hukmdorni aniqlang.

- A) Norboʻtabiy
- B) Xudoyorxon
- V) Olimxon
- G) Muhammad Ali

21. 1996-yilda Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda qaysi buyuk vatandoshimiz tavalludining 660 yilligi keng miqyosda nishonlandi?

- A) Amir Temur
- B) Mirzo Ulugʻbek
- V) Zahiriddin Muhammad Bobur
- G) Jaloliddin Manguberdi

22. Shohruxbiy vafotidan keyin Qoʻqon xonligi taxtiga oʻtirgan shaxsni

aniqlang.

- A) Abdurahimbiy
- B) Erdonabiy
- V) Norbo‘tabiy
- G) Abdulkarimbiy

23. Quyida berilgan lavozimlardan qaysi biri Buxoro xonligida ashtarxoniylar davrida joriy etilgan.

- A) shayxulislom
- B) otaliq
- C) devonbegi
- D) saroy qutvoli

24. 1864-yil M.Chernyayev qaysi shaharni egallash uchun olib borgan birinchi harakatida mag‘lubiyatga uchragan?

- A) Samarqand
- B) Xiva
- C) O‘ratepa
- D) Toshkent

25. Ashtarxoniylardan keyin Buxoroda hokimiyat tepasiga kelgan sulola qaysi?

- A) Mang‘itlar
- B) Shayboniylar
- V) Minglar
- G) Kenagaslar

26. Ubaydullaxon pul islohoti o‘tkazgan sanani aniqlang?

- A) 1703-yil
- B) 1710-yil
- V) 1701-yil
- G) 1708-yil

27. Turkiston ishchi va soldat deputatlari Sovetlarining 3-o‘lka syezdi qaysi shaharda bo‘lib o‘tdi?

- A) Toshkent
- B) Qo‘qon
- V) Buxoro
- G) Turkiston

28. Qachon “turli musulmon guruhlarining birlashgan kengashi” o‘tkazildi?

- A) 1917-yil 26-28-noyabr
- B) 1917-yil 12-15-noyabr
- V) 1917-yil 20-21-noyabr
- G) 1917-yil 15-22-noyabr

29. Turkiston XKS raisi lavozimini kim egalladi?

- A) Kolesov
- B) P.Korovichenko
- V) Kabozev
- G) Perfilyev

30. Turkiston o‘lka musulmonlari Markaziy Kengashi (Milliy Markaz) bolsheviklar bilan hamkorlik qilishga qarshi chiqdilar va 1917-yil noyabr oyi boshlarida Toshkent shahridan qaysi shaharga ko‘chib o‘tdilar?

- A) Turkiston
- B) Buxoro
- V) Toshkent
- G) Qo‘qon

31. “Turli musulmon guruhlarining birlashgan kengashi” qaysi tashkilotning tashabbusi bilan o‘tkazildi?

- A) “Sho‘roi Ulamo”
- B) XKS
- V) Kraymussovet
- G) “Sho‘roi Islomiya”

32. Turkiston ishchi va soldat deputatlari Sovetlarining 3-o‘lka syezdi qachon bo‘lib o‘tdi?

- A) 1917-yil 15-22-noyabr

- B) 1917-yil 12-17-noyabr
- V) 1917-yil 20-21 -noyabr
- G) 1917-yil 29-30-noyabr

33. 1918-yil oktyabr to'ntarishidan keyin Turkiston general- gubernatorligi o'rnida "qizil ruslar" tomonidan qanday ma'muriy hudud tashkil etilgan?

- A) Turkiston Respublikasi
- B) O'zbekiston Respublikasi
- V) O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari
- G) Turkiston va Qozog'iston Respublikalari

34. Chor Rossiyasi davrida Turkiston ulamolarining asosiy raqibi kim bo'lgan?

- A) "Qizil ruslar"
- B) Jadidlar
- V) Nasroniylar
- G) Ruslar

35. Chor Rossiyasi davrida jadidlar harakatining asosiy maqsadi nima bo'lgan?

- A) Chor hukumatini ag'darish
- B) Islom jamiyatini isloh qilish
- V) Mutaqillikka erishish
- G) Qo'qon xonligini tiklash

36. Sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyin "bosmachilik" harakatining asosiy maqsadi nima bo'lgan?

- A) Ruslarga qarshi kurash
- B) Jadidlarga qarshi kurash
- V) "Qizil ruslar" ga qarshi kurash
- G) "Qizil ruslar" va jadidlarga qarshi kurash

37. Chor Rossiyasi kolonializm siyosatining asosiy maqsadi nima bo'lgan?

- A) Bosib olingan yerlarga abadiy egalik qilish
- B) Bosib olingan yerlarni talon taroj qilish

V) Mayda xalqlarni yo‘qotish

G) Rus madaniyatini tarqatish

38. Quloqlashtirish siyosati asosan qaysi yilda amalga oshirib bo‘lindi?

A) 1935-yilda

B) 1933-yilda

V) 1931-yilda

G) 1937-yilda

39. Sho‘rolar davrida olib borilgan milliy siyosatning asosiy maqsadi nima bo‘lgan?

A) Milliy Respublikalarni rivojlantirish

B) Milliy Respublikalarni markazga qaram qilish

V) Millatlarni kamsitish va yo‘qotish

G) Millatlarni mustaqil qilish

40. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin yuz bergan iqtisodiy qiyinchiliklarning asosiy sababi nima?

A) Aholining ko‘pligi

B) Boshqaruv siyosatida yo‘l qo‘yilgan xatolar

V) Sanoatning zaifligi va markazga qaramligi

G) Paxta yakkahokimligi

41. Rossiya impyერიyasining musulmon xalqlari orasida jadidchilik harakatiga kim asos solgan?

A) Validi To‘g‘on

B) Muso Jalil

V) Ismoil Gasprali

G) Ch.Valixonov

42. Turkiston o‘lkasida jadidlar harakatining ilk nashri qaysi?

A) Ulug‘ Turkiston

B) Xurshid

V) Hurriyat

G) Tujjor

43. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Turkiston madaniy muxtoriyati” loyihasi qachon yozilgan?

- A) 1905-yilda
- B) 1907-yilda
- V) 1918-yilda
- G) 1922-yilda

44. Abdurauf Fitratning “Buxoroda islohot loyihasi” qachon yozilgan?

- A) 1917-yilda
- B) 1918-yilda
- V) 1922-yilda
- G) 1924-yil

45. O‘zbekistonda olib borilgan qatag‘on siyosati kimga qarshi qaratilgan edi?

- A) O‘zbek ziyolilariga
- B) O‘zbek va tojik ziyolilariga
- V) O‘zbek va qozoq ziyolilariga
- G) O‘zbek, qozoq va tojik ziyolilariga

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Rasmiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: «O'zbekiston». 2017. - B. 472-473.
3. Мирзиёев Ш.М. Демократик ислохотларни изчил давом эттириш халқимиз учун тинч ва осойишта, муносиб ҳаёт даражасини уратиш – барқарор тараққиёт кафолатидир // Халқ сўзи. 2016 йил 2 ноябр.
4. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак // Халқ сўзи 15 уанвар 2017 йил Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий уакунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси.

Tadqiqotlar va darsliklar

1. Ahmedov B. O'zbekiston halqlari tarixi manbalari T., Fan, 1992 y.
2. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar T., O'qituvchi, 1994 y.
3. Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг кддимги даврдан Россия босқинига қадар) / / Масъул муҳаррир: Б. Ахмедов. – Т.: «Шарк», 2001.
4. Азизов И. XIX аср сўнгги чораги - XX аср бошларида Бухоро амирлигида солиқ тизими. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2019.
5. Анке фон Кюгелген. Легимитация среднеазиатских династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв). – Алматы: Институт Востока Германского Восточного общества, 2004.
6. Горшенина С.М. Изобретение концепта Средней / Центральной Азии: между наукой и геополитикой. Перевод с французского М.Р. Майзульса. – Вашингтон: Программа изучения Центральной Азии, Университет Джорджа Вашингтона, 2019.
7. Зияев А. Х. «Силсилат ас-салотин» как исторический источник. /Автореферат. Ташкент: 1990. - Б. 11.
8. Бухоро шарқ дурдонаси . /Муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997.

9. Ишқуватов В.Т. Қўқон Россия дипломатик муносабатлари тарихшунослиги. Тошкент.: 2009.
10. Казанцев А.А. «Большая игра» с неизвестными правилами: Мировая политика и Центральная Азия. – М.: МГИМО; Наследие Евразии, 2008.
11. История Бухары. / Под редакцией И.Муминова. -Ташкент: Фан, 1976.- С. 113.
12. Махмудов Ш. Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фанлари номзоди.. дисс. - Тошкент, 2007.
13. Худайкулов Т.Д. Марказий Осиё мамлакатларининг бошқарув тарихи (Марказий, маҳаллий, ҳарбий, диний ҳокимият XVIII-XX аср бошлари). Монография. «Узкитобсавдо нашриёти», Тошкент.: 2023.
14. Eshov B., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi (darslik). I -jild. Toshkent.: “Yangi asr avlodi”. 2014.
15. Eshov B., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi (darslik). II -jild. Toshkent.: “Donishmand ziyosi”. 2020.
16. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. T., “Ўzbekiston”, 1997
17. Ziyaev X. Z. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T., Sharq. 1998.
18. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланом. биринчи китоб /форс тилидан С.Мирзоев таржимаси, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б. Ахмедов. – Тошкент: Шарқ, 1999.
19. Тураев Х. Традиция посещений култовых мест в Бухаре: Социальная и религиозная оценка //History and Culture of Central Asia. – Tokio, 2012.- С.213-228.
20. Тўраев Н. Убайдуллахоннинг сўнгги кунлари // Мулоқот. - Тошкент, 1997.- № 4.- Б.41-42.
21. Ўзбекистон тарихи дарслиги. – Тошкент, 2011.
22. O‘zbekiston tarixi. Oliy o‘quv yurtlarining tarix fakulteti talabalari uchun darslik. // Mas’ul muharrir A.S.Sagdullayev. – Toshkent.: 2021.
23. O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan. (Qadimgi davrdan hozirgacha). D.X. Ziyayeva muharrirligida. Toshkent: “Sharq” 2012
24. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. – Toshkent: “Sharq”, 2003.
25. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Xoshimov S., Ubaydullaev O‘. Vatan tarixi (o‘quv qo‘llanma). Ikkinchi kitob. – Toshkent: “Sharq”, 2016.
26. Султонов Т. Чингиз и Чингизиды. -Москва: Евразия, 2017.
27. Qirg‘iziston tarixi. Bishkek . 1998y.
28. Qozog‘iston tarixi. Alma-Ata. 1997y.
29. Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. Ithaca, N.Y.: Cornell University Press, 2015.

30. Tignor, Robert, et al. Worlds Together, Worlds Apart: A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W.W. Norton. USA, New York 2008. 8. Peter N. Stearns. A Brief History of the World. The teaching company. USA, New York. 2008.

31. Vamberi G. Buxoro yoxud Movaraunnahr tarixi. T., Fan 1991 y.

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz – Ta’lim tarmog‘i portal.
2. www.uz – Milliy axborot qidiruv tizimi
3. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portal
4. www.my.gov.uz – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal
5. www.ixl.com – Masofadan turib o‘qitish sayti (ingliz tilida)
6. <https://tipi.uz> – Toshkent iqtisodiyot va pedagogika institute
7. <https://online-library.uz> - Toshkent iqtisodiyot va pedagogika institutining elektron kutubxonasi

Mundarija

KIRISH	3
I BOB. XVI-XIX ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA XONLIKLARNING PAYDO BO‘LISHI VA MARKAZIY OSIYODA CHOR ROSSIYASINING ISTILOCHILIK SIYOSATI. SHO‘ROLAR DAVRIDA MARKAZIY OSIYO.....	11
1.1. Buxoro xonligining tashkil etilishi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti.....	11

1.2. Xiva xonligining tashkil etilishi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti.....	21
1.3. Qo‘qon xonligining tashkil etilishi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti.....	25
1.4. Markaziy Osiyoda Rossiya imperiyasining istilochilik siyosati.....	31
1.5. Turkiston general-gubernatorligida boshqaruv tizimi.....	38
1.6. Markaziy Osiyo xalqlarining milliy-ozodlik harakatlari.....	43
1.7. Jadidchilik harakati.....	46
1.8. Markaziy Osiyo hududida sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va unga qarshi qurolli harakatlar.....	61
1.9. Sovetlar yuritgan siyosat va uning oqibatlari.....	65
Nazorat savollari.....	75
Mavzuni o‘rganishga doir o‘yinlar, uslubiy metodlar va tavsiyalar.....	76
Taqdimot.....	80
Test savollari.....	82
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	92